


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**"BYUDJET HISOBI VA G'AZNACHILIK" FAKULTETI**

**"ELEKTRON TIJORAT VA RAQAMLI IQTISODIYOT" KAFEDRASI**

**"DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH MILLIY TIZIMI"**  
**fanidan**

**O'QUV – USLUBIY**

**MAJMUA**



**Toshkent-2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**"BYUDJET HISOBI VA G'AZNACHILIK" FAKULTETI**

**"ELEKTRON TIJORAT VA RAQAMLI IQTISODIYOT" KAFEDRASI**

**"DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH MILLIY TIZIMI"  
fanidan**

**O'QUV – USLUBIY**

**MAJMUA**

<b>Bilim sohasi:</b>	200000	–Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
<b>Ta'lif sohasi:</b>	230000	–Iqtisod
<b>Ta'lif yo'nalishlari:</b>	5231300	– Pensiya ishi
	5231500	– Baholash ishi
	5232000	– Davlat budgetining g'azna ijrosi
	5232700	–Investitsion loyihalarini moliyalashtirish
	5232800	- Elektron tijorat

**TOSHKENT-2019**

A.O.Ro'ziyev, M.I.Azizova, G.S.Djamalova, "Davlat xizmatlarini ko'rsatish milliy tizimi" fanidan O'quv-uslubiy majmua. TMI, 2019 26bet

"Davlat xizmatlarini ko'rsatish milliy tizimi" fanidan O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019 -10 " 08 " -sonli buyrug'inining ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

**A.O.Ro'ziyev**

-TMI, "Eiektron tijorat va raqamli Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

**M.I.Azizova**

-TMI, "Eiektron tijorat va raqamli Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

**G.S.Djamalova**

-TMI, "Eiektron tijorat va raqamli Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**R.X.Alimov**

-TDIU "Ekonometrika" kafedrasi professori, i.f.d.

**M.M.Ikromov**

- TMI, "Eiektron tijorat va raqamli Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Fanning O'quv uslubiy majmuasi kafedraning 2019 yil "8" 08 dagi "2"-sonli majlisida muhokama qilingan va fakul'tet Kengashi tasdig'iga tavsiya etilgan.

**"Eiektron tijorat va raqamli iqtisodiyot"  
kafedrasi mudiri v.v.b.:**

 **U.K.Yakubov**

Fanning O'quv uslubiy majmuasi " Budjet hisobi va g'aznachilik" fakul'teti Kengashi muhokamasidan o'tkazilgan va institut Kengashi tasdig'iga tavsiya qilingan (2019 yil "14" 08 dagi "1"-sonli bayonnomma)

**"Budjet hisobi va g'aznachilik" fakulteti dekani:**

 **U.Ortiqov**

Fanning O'quv uslubiy majmuasi institut O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va institut Kengashi tasdig'iga tavsiya qilingan (2019 yil "15" 08 dagi "1"-sonli bayonnomma)

**Kengash raisi**

 **I. Qo'ziev**

**O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i**

 **T.M.Baymuratov**

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi Toshkent moliya instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil "15" 08 dagi "1"-sonli bayonnomma)

## **MUNDARIJA**

<b>I O'QUV MATERIALLARI</b>	<b>5</b>
<b>1.Ma'ruzalar matni</b>	<b>6</b>
<b>2.Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv         materiallari</b>	<b>105</b>
<b>II MUSTAQIL TA'LIM MATERIALLARI</b>	<b>171</b>
<b>III O'QUV PORTFOLIOSI</b>	<b>177</b>
<b>IV GLOSSARIY</b>	<b>199</b>
<b>V ILOVALAR</b>	<b>205</b>
<b>1.Fan dasturi</b>	<b>206</b>
<b>2.Ishchi fan dasturi</b>	<b>216</b>
<b>3. Tarqatma materiallari (Interfaol ta'lif         metodlari, keyslar banki )</b>	<b>240</b>
<b>VI TESTLAR</b>	<b>253</b>
<b>VII Talabalar bilimini baholash mezonlari</b>	<b>259</b>
<b>VIII O'quv-uslubiy majmuaning elektron variant</b>	

*I.O'QUV*  
**MATERIALLARI**

*MA’RUZA  
BO’YICHA O’QUV  
MATERIALLARI*

# **1-mavzu. “DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISH MILLIY TIZIMI” FANIGA KIRISH**

**Reja:**

1. Davlat xizmati tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari va turlari.
2. Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda elektron hukumat faoliyat yo‘nalishlari
3. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar.

## **Davlat xizmati tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari va turlari**

Davlat xizmati mohiyatini va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan oldin, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mehnat faoliyati turlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish lozim.

Yuridik adabiyotlarda, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mehnat faoliyati fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida turli (davlat, nodavlat) tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari doirasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar sifatida ta’riflab o‘tilgan bo‘lib, shartli ravishda bir necha guruhlarga bo‘lingan:

- tovarlar, moddiy boyliklar ishlab chiqarish, ma’lum bir xizmatlar ko‘rsatish;
- nomoddiy (ma’naviy) boyliklar yaratish (masalan, kitoblar, maqolalar yozish, kino va videofilmlar yaratish, ssenariylar tayyorlash);
- ijtimoiy-madaniy faoliyat (ta’lim berish, sog‘liqni saqlash va h.k.lar);
- davlat xizmati, ya’ni jamiyatning barcha sohalarida faoliyat ko‘rsatish;
- ijtimoiy-madaniy (ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish) sohalarni boshqarish;
- iqtisodiyot (sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish) sohalarini boshqarish;
- ma’muriy-siyosiy (mudofaa, davlat xavfsizligi, adliya, ichki ishlar, tashqi ishlar) sohalarni boshqarish1;
- nodavlat, jamoat, diniy, xalqaro, xorijiy tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatish;
- jamiyatning turli sohalarida ma’lum bir ehtiyojlarni qondirish maqsadida ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanish va boshqalar.

Huquqshunos olim D.N.Baxraxning fikricha: «Insonlarning, shuningdek, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo‘nalishlaridan biri – bu xizmatdir. Bu tushuncha turli ma’nolarda: insonning faoliyat turi, ijtimoiy-huquqiy institut, davlat organlarining maxsus tizimi ma’nosida ishlatalishi mumkin. Xizmat – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta’minlashdan, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatishdan iborat.»<sup>2</sup>

Xizmatchi o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida o‘ziga xos munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlarning mazmunini xizmat turi hamda

xizmat olib borilayotgan tashkilotning xususiyatlari belgilab beradi.

Xizmat munosabatlari davlat-xizmat munosabatlariga yoki jamoat birlashmalarida va boshqa nodavlat, xususiy, tijorat tashkilotlarida amalga oshiriladigan xizmat munosabatlariga bo‘linishi mumkin.

Xizmatchilarning qanday lavozim egallashi va qaysi tashkilotda o‘z majburiyat va vazifalarini bajarishiga qarab, ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- davlat organlarining xizmatchilari;
- mahalliy organlarining xizmatchilari;
- davlat korxonalari, muassasalari, tashkilotlari va birlashmalarining xizmatchilari;
- nodavlat tashkilotlarning xizmatchilari;
- jamoat birlashmalarining xizmatchilari va h.k.lar.

Huquqshunos olim Yu.M.Kozlov, barcha xizmatlar ichida davlat xizmatining tutgan o‘rniga to‘xtalib, uni davlat organlarida amalga oshiriladigan hamda ishchilarining mehnatidan mazmuni va shakli jihatidan farq qiladigan har qanday faoliyat sifatida ta’riflaydi. Davlat xizmatiga bunday yondashish mehnat faoliyatining ikki shakliga asoslanadi: birinchidan, bevosita moddiy boyliklarni, tovarlarni yaratish (ishlarni bajarish); ikkinchidan, boshqaruvni, rahbarlikni, kontrol va nazoratni amalga oshirish.<sup>3</sup>

Yuridik adabiyotlarning tahlili, davlat xizmati tushunchasiga bir necha ma’nolarda yondashishni taqazo etadi:

**birinchidan, ijtimoiy ma’noda.** Davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo‘lib, davlat tashkilotida ma’lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko‘rsatmasiga ko‘ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish;

**ikkinchidan, siyosiy ma’noda.** Davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, davlatning maqsad va vazifalariga barcha mavjud siyosiy kuch orqali erishadi, jamiyatdagi muvozanatni ta’minlaydi;

**uchinchidan, huquqiy ma’noda** – davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o‘rnatish bo‘lib, bu orali mansab majburiylari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta’minlanadi. Davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institatlardan biri bo‘lib, uni o‘rganish davlat xizmatining ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishni talab qiladi. Bu institut davlat-xizmat munosabatlarini tartibga soluvchi normalar yig‘indisidan iborat bo‘lib, u orqali xizmatchilarning huquqlari, majburiylari, ularga belgilanadigan cheklolvar, javobgarlik hamda davlat xizmatini o‘tash, xizmat munosabatlarining yuzaga kelishi va bekor bo‘lishi tartibga solinadi;

**to‘rtinchidan, tashkiliy ma’noda.** Davlat xizmati davlat apparatining tashkiliy-funksional elementlari bilan aloqada baladi. U quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi: davlat apparati faoliyatining tashkiliy va protsessual asoslarini tashkil etish; lavozimlarning tuzilishi va huquqiy ko‘rinishi; xodimlarni aniqlash, baholash. Davlat xizmati davlatni, davlat hokimiyatini mustahkamlaydi va fuqarolik jamiyatining bir me’yorda faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

«Davlat va mahalliy organlarida amalga oshiriladigan xizmat, –

Yu.N.Starilovning fikricha, – bu ommaviy xizmat bo‘lib, ommaviy hokimiyat organlarida amalga oshiriladi. Davlat xizmati – davlat korxonalar, muassasalari, tashkilotlari va birlashmalarida amalga oshiriladigan xizmatdir. Xususiy tashkilotlarning, korxonalarining, banklar va boshqa korxona va tashkilotlarning xizmatchilarini, faqatgina ijtimoiy nuqtai nazardan, xizmat munosabatlari tizimiga kiritish mumkin. Oxirgi vaqtarda ko‘pgina rivojlangan davlatlarda xalq deputatlari tomonidan olib borilayotgan xizmat professional ish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Lekin deputatlar davlat xizmatchilari hisoblanmaydilar. Davlatda oliv mansablarni egallab turgan shaxslar ham (Prezident, vakillik va ijro hokimiysi organlarining rahbarlari, vazirlar va h.k.lar) davlat xizmatida emas. Ular ommaviy-huquqiy xizmat maqomiga ega hamda o‘z vazifalarini ma’lum bir davrda amalga oshirishlari mumkin.”<sup>1</sup>

V.M.Manoxin tomonidan davlat xizmatiga berilgan tushunchani ko‘pgina yuridik adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, uning fikricha, davlat xizmati – bu davlat organlarini va boshqa tashkilotlarini tashkil etish va huquqiy tartibga solish bo‘yicha davlat faoliyatining bir bo‘lagi hisoblanadi, dalat organlari va tashkilotlarning faoliyati esa davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirishga qaratiladi.<sup>2</sup>

B.M.Lazarev esa, yuqoridagi ta’rifga nisbatan o‘zining quyidagi fikrlarini bildiradi: birinchidan, mazkur ta’rifda davlat xizmati davlat xizmatchisi atamasi bilan belgilangan; ikkinchidan, davlat xizmatchilari nafaqat davlat funksiyalarini, balki boshqa faoliyat turini ham amalga oshiradilar; uchinchidan, davlat xizmati hamda uni tashkil etish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat umumlashtirilgan. Davlat xizmati – bu davlatga xizmat qilish, ya’ni uning talabi bilan ma’lum bir pul mukofoti evaziga davlat organida davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarini amalga oshirish bo‘yicha bo‘ladigan faoliyatidir.<sup>3</sup>

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmati tushunchasining keng va tor doirada ko‘rib chiqilganligini ham ko‘rish mumkin. Masalan, A.P.Alexin va Yu.M.Kozlov davlat xizmati tushunchasiga to‘xtalib, keng ma’noda davlat xizmatining davlat xizmatchilari tomonidan davlat organlari, muassasalari va korxonalarida, tor ma’noda esa, faqatgina davlat organlarida amalga oshirilishini ko‘rsatib o‘tadilar.<sup>2</sup>

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmati mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan bir necha o‘ziga xos xususiyatlar ham nazarda tutilgan. Jumladan, Yu.A.Dmitriev fikricha<sup>3</sup>, davlat xizmati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga qarab boshqa mehnat faoliyatidan ajralib turadi:

- 1) **davlat xizmatining professional faoliyat ekanligi.** Davlat xizmati davlat xizmatchisining asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblanadi. Davlat xizmatini o‘rindoshlik asosida amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat xizmatchilari qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan tartibda boshqa haq to‘lanadigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin. Davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa mehnat faoliyatining cheklanishi davlat xizmat majburiyatlarini yuqori darajada amalga oshirilishini ta’minlaydi;

<sup>1</sup> Старилов Ю.Н. Служебное право. Москва, изд. БЕК, 1996, с.131.

<sup>2</sup> Манохин В.М. Государственная служба. Москва, 1966, с.5.

<sup>3</sup> Лазарев Б.М. Государственная служба. Москва, 1993, с.5-6.

- 2) ***kompetentlik.*** Davlat xizmatchilari egallab turgan lavozimi (mansabiga), davlat xizmat majburiyatlarini amalga oshirishda bilimi, ish tajribasi va saviyasi nuqtai nazaridan mos bo‘lishi kerak;
- 3) ***davlat xizmatining oldindan aniq belgilangan davlat xizmati lavozim (mansab)lari doirasida amalga oshirilishi.*** Davlat xizmatchisi degan maqom aynan shaxsning davlat xizmatidagi aniq bir lavozim (mansab)ni egallaganidan so‘ng yuzaga keladi;
- 4) ***davlat xizmatining davlat organlarida amalga oshirilishi;***

***davlat xizmatiga haq to‘lash davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilishi.*** Davlat apparati xarajatlarini qoplash, davlat xizmatchilari mehnatiga haq to‘lash davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunlarda nazarda tutiladi.

Yuridik adabiyotlarda davlat xizmatining ijtimoiy foydali mehnat faoliyati sifatidagi tushunchasidan tashqari, huquqiy institut sifatidagi tushunchalari ham yoritib berilgan.

Davlat xizmati tushunchasini funksional ma’noda ham olib qarash mumkin. Funksional ma’noda davlat xizmati davlat faoliyatining, davlat organlari apparatining, ma’muriy-boshqaruv tuzilmalari faoliyatining alohida turi hisoblanadi.

Davlat xizmati tushunchasini yoritib berishda quyidagi uning asosiy belgilariga e’tiborni qaratish lozim:

1. ***Davlat xizmatining davlat organlarida amalga oshirilishi.***
2. ***Davlat xizmatining professional (kasbiy) faoliyatda ifodalanganligi***
3. ***Davlat xizmatchilarining hokimiyat vakolatiga ega bo‘lishi.***
4. ***Davlat xizmatining davlat organida o‘rnatilgan davlat mansabini egallagan shaxs tomonidan amalga oshirilishi.*** Yuqorida mazmuni yoritib berilgan davlat xizmatining asosiy elementlariga asoslanib, davlat xizmatiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: ***davlat xizmati – bu davlat organida ma’lum bir mansabni egallab turgan shaxs tomonidan davlat vazifalari va funksiyalarini bajarish maqsadida hokimiyat-vakolatlarining amalga oshirilishiga qaratilgan kasbiy faoliyatadir.***

Ushbu ta’rifda davlat xizmati tushunchasini yoritib beruvchi barcha elementlar o‘z ifodasini topgan. Davlat xizmati instituti, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o‘rnatilgan tartibdan kelib chiqadigan bo‘lsak, kompleks institut hisoblanadi. Davlat xizmati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya hamda ma’muriy, mehnat, moliya, jinoyat va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada davlat xizmati to‘g‘risidagi tushunchalar uning kompleks tarzda tartibga solinishi nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

***Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda elektron hukumat faoliyat yo‘nalishlari.***

Jahonda integratsiyalashuv va globallashuv jarayonari kechayotgan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, xalq xo‘jaligining barcha jabhalariga integratsiya qilish masalasi – barcha sohalar uchun o‘ta dolzarb va

muhim vazifadir.

Tez taraqqiy etib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan – Elektron hukumat tizimini yaratish, uning barcha imkoniyatlarini ijtimoiy va iqtisodiy, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, kommunal sohalarda amaliyatga tatbiq etish – xalq manfaatlariga xizmat qilishi, mehnat samaradorligi va sifat, qurilayotgan jamiyat uchun yangi imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Fanningvazifasi – zamonaviy axborot kommunikatsion va raqamli texnologiyalardan foydalasngan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatayotgan milliy tizim, tashkil etuvchi komponentlari, masalalari asoslaridan nazariy va amaliy bilimlarni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan bo‘yicha talabalar davlast boshqaruvirdagi axborot tizimlari to‘g‘risidagi bilimlarga, Internet tarmog‘i orqali davlat xizmatlarini olish va xizmat ko‘rsatish milli tizimidan samarali foydalanish malakalariga ega bo‘lishi, etika va axborot madaniyati kabi tushunchalarni o‘zlashtirishlari lozim bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakasiga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini shakllantirish tamoyillari;
- davlat xizmatlari milliy tizimidan foydalanishda zarur bo‘lgan texnik va dasturiy vositalar;
  - davlat va interaktiv xizmatlar portalı, kommunikatsiya va Internet tarmog‘i;
  - davlat va hukumat boshqaruvi hamda xizmatlari;
  - axborotlashtirish, elektron hukumat, interaktiv davlat xizmatlari va ahborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qabul qilingan huquqiyeme’yoriy hujjatlar;
  - davlat va hukumat boshqaruvi hamda xizmatlarida joriy etilayotgan axborot-kommunikatsiya tizimlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
  - Internet va kompyuterdan samarali foydalanish, axborot madaniyati va Internetdan foydalanish qoida va etikasi, axborot xavfsizligi tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
  - davlat boshqaruvda, tashkilot va organlarida joriy etilgan axborot tizimlari, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot-kommunikatsiya tizimlarini qo‘llash sohalari;
  - axborot tizimlari va texnologiyalarining funksional imkoniyatlari va ulardan oqilona foydalanish;
  - turli vaziyatdan kelib chiqqan holda samarali va maqsadsli qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
  - davlat boshqaruvi va xizmatlarida joriy etilgan axborot tizimlari va texnologiyalari, xizmat axborotlarini olishni shakllantirish, guruhlash va tahlil qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining hammasi ham bu haqda to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmasa-da, vaqt o‘tishi bilan ushbu tizim jamiyat hayotining

butun jabhasini qamrab olishini dunyo tajribasi ko‘rsatmoqda. Shu munsoabat bilan aholini kompyuter savodxonilagini oshirish, uning davlat elektron va interaktiv xizmatlaridan foydalanishga o‘rgatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun o‘qitish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Shu maqsadda humumat tomonidan bir qator strategik vazifalarning belgilanishi – ana shu maqsaddani tez muddatlarda hamda sifatli ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

Elektron hukumat davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron hukumat atamalarini quyidagi to‘rtta asosiy qismlari orqali umumlashtirish mumkin. Elektron hukumat quyidagicha tavsiflanadi1.

1. AKT dan foydalanish (kompyuter tarmoqlari, internet, faks va telefon).
2. Hukumat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash (axborot bilan ta’minlash, xizmatlar, mahsulotlar, mamuriy boshqaruv).
3. Fuqarolar bilan hukumat munosabatlarini rivojlantirish (yangi aloqa kanallarini yaratish, sièsiy èki ma’muriy jaraènlariga fuqarolarni targ‘ibot va tashviqotlar orqali jalb qilish)
4. Belgilangan strategiyalarga mos ravishda ishtirokchilarni jaraènlarda qatnashish qiymatini belgilash.

*Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minlash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub’ektlari bilan axborot almashishni ta’minlashning qo‘srimcha mexanizmlarini yaratish;
- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;
- o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;
- aholi va tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinushi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;
- tadbirkorlik sub’ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtiruvi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jaraènlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jaraènlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o‘tkazish;
- tadbirkorlik sub’ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini,

shuningdek kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to‘lashning avtomatlashirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

- naqd bo‘lmagan elektron to‘lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

### **Elektron hukumatning muvaffaqiyat omillari**

Elektron hukumatning muvaffaqiyat omillari beshta asosiy guruhlarga bo‘linadi:

#### *Kelajakni ko‘rish qobiliyati, strategiya va aniq maqsadlar*

Elektron hukumatni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida aniq maqsad va AKT strategiyasiga asoslanib reja tuziladi. Elektron hukumatni yaratishda amalga oshirish bosqich ko‘nikmalarini bilish kerak bo‘ladi.

#### *Qonun va yo‘riqnomalar*

Hukumat loyihalarini yaratishda qonunchilik èki tartibga soluvchi me’èri-xuquqiy asoslar talab qilinadi, chunki bir qancha yil oldin yaratilgan qonunlar yangi elektron xizmatlarni tadbiq qilishda to‘g‘ri kelmaydi. Qonun va yo‘riqnomalarni tashkil qilishda aniq maqsadlar zarurdir, chunki aniq rejalar elektron hukumatni qo‘llab quvvatlashda muhim ahamiyatga egadir. Yangi loyihalar uchun yangi qonuniy o‘zgartirish kiritishning rejasini tuzish xam ko‘p vaqtini talab qiladi.

#### *Tashkilotlararo kelishuv*

Tashkilotlararo kelishuv strukturasi ma’lum yo‘nalishdagi tashkilotlarga yo‘l ko‘rsatuvchi mexanizmdir. Bu kelishuv juda ham muhimdir chunki hukumat bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu kelishuv hamkorlik va tezkor amalga oshirishni ta’minalashni talab etadi.

Tashkil etuvchilik xarakteriga ega bo‘lgan kelishuvni rejalashtirish uchun quyidagilar muhimdir:

- Majburiyatga asoslanib mustahkam hamkorlikni ximoya qilish;
- Axborot texnologiyalar boshqaruvini rejalashtirish va menejmentini o‘zgartirish;
- Byudjetni shakllantirish va uni amalga oshirish;
- Muvofiglik va hamkorlik;
- Monitoring va ishning sifatini baholash;
- Texnologiyani yetkazib beruvchi tashkilotni boshqarish;
- Hukumat xususiy sektori va fuqarolar hamkorligi.

#### *BPR - Biznes jaraènlarni maqbullashtirish<sup>4</sup>*

Elektron hukumatning asosiy vazifasi hukumatni yangidan tuzish hisoblanadi. Haqiqatan ham, muvaffaqiyatli elektron hukumat biznes jaraènlarga asoslanadi. Biznes jaraènidagi innovatsiya bu BPR (Business

Davlat organlariga so‘rovlarga javoblar, turli to‘lovlar, rasmiy hujjatlarning namunasini olish, ularni to‘ldirish, elektron imzo bilan yuborish, oliy o‘quv yurtlarida masofadan turib tahsil olish, ichki ishlar idoralariga ariza bilan murojaat

<sup>4</sup> e-Government Applications, by Nag Yeon Lee and Kwangsok Oh, printed in Scand-Media Corp., Ltd., Republic of Korea, in 2011, page-25

etish shular jumlasidandir. Masalan, Janubiy Koreyada shaxslar rasmiy sayt orqali o‘zining murojaati ko‘rib chiqilishi qaysi bosqichda ekanligini kuzatib borishi mumkin.

Har qanday mamlakatda milliy ma’lumotlar bazasi hamda elektron reestrlar elektron hukumat faoliyatining asosiy jihatlari hisoblanadi. Bu mexanizmlar jismoniy va yuridik shaxslar, avtomobil transporti, ko‘chmas mulk, davlat xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida milliy axborot tizimlarini rivojlantirish doirasida oltita ma’lumot bazasi, 12 ta axborot tizimlari majmui yaratilmoqda. Shu jumladan, «*Soliq*» axborot tizimlari majmui o‘nta dasturiy mahsulot va 31 avtomatlashtirilgan tizimdan iborat. Uning ishga tushirilishi natijasida Davlat soliq qo‘mitasining 31 xizmatini elektronlashtirish mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, «*Kliring*», «*Xarid*», «*Byudjet*», «*Bojxona*», «*Litsenziya*» hamda «*Adliya*» singari axborot tizimlari majmui ham mavjud bo‘lib, ular muayyan sohada ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishslash hamda xizmatlarning bir qismini elektronlashtirishga sharoit yaratmoqda. Shuningdek, «*Sog‘liqni saqlash*», «*Ta‘lim*», «*Kommunal*» tizimlarini hayotga tatbiq etilmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da 2018–2021 yillarga mo‘ljallangan davlat va jamiyat, davlat va aholi munosabatlari shaffofligini ta‘minlovchi tegishli dastur ishlab chiqilishi belgilangan.

Axborot almashinuvining har bir bosqichi, o‘z davri uchun aohida ahamiyatga ega hisobanadi. Ularning har biri jamiyat hayotiga chuqur singib, ma’lum bir ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lgan. Masaan, elektron nur trubkasini yaratilishi jamiyatni axborotlashtirishning eng samarali vositalaridan biri – televide niya davrini boshlab bergen bo‘lsa, XX asrning 60-70 yillarida EHMLarning rivojlanishi asnosida yuzaga kelgan, kompyuter va tarmoq texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyotining mantiqiy davomi sifatida yuzaga chiqdi. Xususan, matbuotning taraqqiy etishi, jamiyatdagi savodhonlikning ortishiga qanchalik hissa qo‘sghan bo‘lsa, radio va tele eshittirishlar orqali, aholi tezkor usulda muhim siyosiy, madaniy va ma’naviy axborot olish vositasiga ega bo‘ldi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida axborot qiymatining ortib borishi va uning taqchillik muammoarini bartaraf etishda Internetning o‘rnini beqiyosdir. Davr taqazosi bilan shakllanayotgan axborotlashgan jamiyatda axborotga nisbatan xalqaro miqyosda davlat siyosati yuritila boshlandi. Buning yaqqol isbotini “Elektron hukumat” tizimini joriy etish va rivojlantirish borasida olib borilayotgan isloxothalr va ularning natijalarida ko‘rish mumkin.

### Nazorat savollari:

1. Davlat xizmatarini ko‘rsatish samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyaarining ahamiyati qanday jarayonarda o‘z aksini topadi?
2. Fanni o‘tilishi o‘z oldiga qanday maqsad va vazifaarni qo‘yadi?

3. Fanni o‘rganishda qanday ko‘nikma va maakaga ega bo‘lish mumkin?
4. O‘zbekistonda davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda AKTdan foydalanish yo‘nalishida qanday chora-tadbirar amaga oshirildi?
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish masalasi qanday o‘z aksiri topgan?
  6. Elektron hukumat tushunchasi
  7. 2. Elektron hukumatning vazifalari
  8. 3. Elektron hukumatning prinsiplari.
  9. 4. Elektron hukumatni amalga oshirishning muvaffaqiyat omillari
  - 10.5. Elektron hukumatni amalga oshirishning xavf omillari.
  - 11.6. —Elektron hukumat|| tizimini rivojlantirishning me’eriyl-huquqiy 12.asoslari.
  - 13.7. —Elektron hukumat to‘g‘risida||gi Qonuni
  - 14.8. Elektron hukumat joriy etishning jaxon tajribasi.

## **2-mavzu. JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXBOROTLASHGANLIK AHAMIYATI**

### **Reja:**

1. Axborotlashgan jamiyat dunyoviy taraqqiyotning eng rivojlangan fazasi.
2. Axborot axborotlashgan jamiyatga olib keluvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy resurs.
3. Iqtisodiyot va jamiyatni "raqamlashtirish" jarayoni.

Boshqaruv va iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini avtomatlashtirish va robotlashtirish, «intelлектуал» tizimlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, har bir insonga ixtiyoriy axborot va bilimlarni taqdim etuvchi yagona integrallashgan tizimlarni yaratish jamiyat munosabatlarining barcha tizimlarda radikal o‘zgartirishlar qilishni talab qiladi, oqibatda eng katta o‘sish va o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishda shaxs erkinligini ta’minlaydi.

Axborotlashgan jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari natijasida kirib kelgan zamonaviy taraqqiyotning eng rivojlangan fazasi hisobanadi.

O‘z navbatida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi axborotlarni jamiyatda qiymatga ega va egalik qila olish mumkin bo‘lgan resursga aylanishidagi asosiy omili va sharti hamda keng ko‘lamli o‘zaro axborotli hamkorlik muhiti hisoblanadigan iqtisodiy-axborot fazoni paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda amalga oshib boradi.

O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatni shakllanish xususiyatlarini ko‘rib chiqishni axborotlashgan jamiyat nazariyasi mohiyati va uning sanoatlashtirilishdan (industrillashdan) keyinga bosqichdagi o‘rnini yoritib berishdan boshlab tadqiq etish maqsadga muvof bo‘ladi.

Amerikalik iqtisodchi olim K.Klark XX asrning 40 yillarida insoniyatning taraqqiyot bosqichida axborotli rivojlanish chetlab o‘tib bo‘lmaydigan jarayon ekanligini birinchi bo‘lib bashorat qildi.

«Axborotlashgan jamiyat» atamasi 60- yillarning boshlarida F. Maxlupo va

T. Ulisao tomonidan taklif qilinib, undagi axborotlashgan jamiyat nazariyasining asosida paydo bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy qayta shakllanishlarni axborot texnologiyalarini tarqalishi bilan birqalikda tahlil va umumlashtirishga harakat qilish yotar edi.

Yana bir rus olimi N.N. Moiseevni fikricha axborotlashgan jamiyat bu – «Jamoa Intellekti inson aqli uning tanasida qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, aynan shunga o‘xhash ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyatdir, ya’ni, jamiyatni rivojlanishiga va ortib borayotgan barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ta’sir qiladi hamda insoniyat manfatlari uchun harakat qiladi».

Shunga o‘xhash barcha ta’rif va tafsivlar yangi jamiyatning shakllanishi jarayonida axborot va bilimlarni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Mavjud yondashuvlarni umumlashtirgan holda, hozirgi kunda «Axborotlashgan jamiyat» tushunchasini talqin qilishda quydagilar e’tiborga olinadi:

- axborotlashgan jamiyat har bir inson va davlat farovonligini bosh sharti axborotlarga to‘sqliarsiz kirish va ular bilan ishslash malakalariga ega bo‘lishdagi bilimlar bo‘lgan bilimlar jamiyati;

- axborot ayrboshlashda na vaqt, na fazoviy, na siyosiy chegaralarga ega bo‘lmagan global jamiyat; bu bir tomondan madaniyatlarni o‘zaro birlashishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, har bir jamiyatga o‘zini namoyon qilishga yangi imkoniyatlar ochib beradi;

- bilim va axborotlardan foydalanish, tarqatish, uzatish, saqlashga, ishlov berish, egalik qilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan jamiyat.

Axborotlashgan jamiyatni bosh maqsadi yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va foydalanishdangina iborat bo‘lib qolmay, davlatning barcha iqtisodiy tizimlarini tubdan o‘zgartirish, axborot-iqtisodiy fazosini shakllantirish, mehnat umumдорligini uzuksiz oshirib borish uchun innovatsiya hamda bilimlardan amaliy jihatdan keng foydalanib, shu asosda tarzi va sifatini oshirishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi kunda bo‘lg‘usi axborot jamiyatining barcha xususiyatlarini yetarli darajada tavsiflab berish mushkul muammo hisoblanadi, chunki uning har biri biron-bir darajada o‘zini namoyon qilib boradi. Biri aniq darajada, ikkinchisi munosab, uchinchisi davr mobaynida o‘zini namoyon qilib boradi. Shunday bo‘lsa ham, jamiyatni axborotlashtirish yo‘lidagi harakatlari va bu harakatni keyingi istiqbollarini tahlil qilib axborotlashgan jamiyat istiqbolini quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- insoniyatning tughanmas zahirasi bo‘lgan va barcha individ, tashkilot, ijtimoiy guruhlar va butunlay jamiyat kira olishi mumkin bo‘lgan axborotlar shaklidagi eng muhim va qiymatga ega bo‘lgan bilimlar jamiyatning bosh boyligi hisoblanadi. Bilimlar va ularni amaliy2 jihatdan qo‘llash qo‘shimcha qiymat manbai sifatida mehnatning o‘rnini bosib boradi. Sanoatlashgan jamiyatda mehnat va kapital markaziy o‘zgaruvchilar bo‘lgani kabi axborot va bilimlar ham axborotlashgan jamiyatning asosiy o‘zgaruvchisi hisoblanadi;

- yalpi milliy mahsulotda axborot mahsulot va xizmatlar ulushi o‘sib boradi;

- insonlarni o‘zaro samarali axborotli hamkorligi, jahon axborot resurslariga kirish va axborot mahsulot hamda hizmatlariga bo‘lgan talablarini ta’minlovchi global axborot fazosi yaratiladi;

- o‘zining hayot faoliyati va indivilar faoliyati uchun birinchi navbatda ilmiy axborotlarni ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan jamiyat;

- axborotlar uzatish tezligi, hajmi va ishlov berish tezligi o‘sishini ta’minlashda zarur bo‘lgan axborot texnikalari ishlab chiqariladi va foydalaniladi;

- eski kasblarni yo‘q bo‘lishi va yangilarini paydo bo‘lishi, ulardagi ishchilar sonidagi munosabatlarni o‘zgarishi bilan bog‘liq hoda jamiyat professional tuzilishi o‘zgaradi. Bir vaqtning o‘zida rivojlangan avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ish joylari tizimini yaratish asosida individlashgan mehnatning ulushi ortib boradi. Demak, ishlab chiqarishda ishchining turi shakllanib boradi;

- axborot texnologiyalari ma’naviy madaniyatga faol ta’sir ko‘rsatib boradi, kompyuter madaniyati shakllanib boradi, madaniyat yutuqlari haqiqiy ravishda umumxalq boyligiga aylanib boradi. Kompyuterlashtirish va ta’lim uzlucksizligi amalga oshib boradi;

- kishilik jamiyatining hayotiy faoliyatida globallashuv amalga oshadi. Yagona iqtisodiy xo‘jalik yaratiladi. Jamiyat global muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘ladi va shu yo‘lga kiradi;

- insonlar va jamiyatni tabiatga bo‘lgan munosabati sifat jihatdan o‘zgarib boradi. Jamiyat tabiatga hukmronlik qilishdan u bilan garmonik jihatdan o‘zaro hamkorlik qilish uchun qadamlarni boshlab yuboradi

**Axborotlardan axborotlashgan jamiyatni qurishga olib keluvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy resurslar** sifatida yanada keng foydalanilishi o‘zaro qaramaqarshi bo‘lgan ikki munosabatni yuzaga keltiradi: ochiqlik va yopiqlik tomon harakat. O‘z navbatida ochiq, yopiq hamda ochiqlik va yopiqlik hususiyatlarini birlashtiruvchi qo‘shma axborotlashgan jamiyat to‘g‘risida gapirish mumkin.

Taraqqiyotning mumkin bo‘lgan rivojlanishida ishlab chiqarishning asosiy mahsulotlaridan biri axborot va bilimlar bo‘lib boradi. Ajralib turuvchi xususiyatlari:

❖ jamiyat hayotida axborotlar, bilimlar va axborot texnologiyalarining ahamiyat ortib boradi;

❖ ichki aylanma mahsulotlarda axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, kommunikatsiyalarda band bo‘lgan insonlar soni ortib boradi;

❖ telefon, radio, televideniya, Internet tarmog‘i, shuningdek an’anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali jamiyatni axborotlashtirish o‘sib boradi;

❖ insonlarni o‘zaro samarali axborot hamkorligini, b) ularni jahon axborotlariga kirishi, v) ularni axborot resurslari va xizmatlariga bo‘lgan talablarini qanoatlanirishni ta’minlovchi global axborot makoni yaratiladi.

Axborotlashgan jamiyatga o‘tish bilan axborotlarga ishlov berishda kompyuterlar va AKTga asoslangan yangi sanoat paydo bo‘ldi. Axborotlashgan jamiyatga xos jihatlarni keltirib o‘tamiz:

- axborot inqirozi muammosi hal qilinadi, ya’ni axborot burxonlari va axborot tanqisligi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar bartaraf qilinadi;
- boshqa resurslar bilan taqqoslashda axborotlarga ustuvorlik beriladi;
- rivojlanishning bosh shakli axborot iqtisodiyoti hisoblanadi;
- axborot texnologiyalari inson faoliyati barcha sohalarini qamrab olgan holda global tavsifga ega bo‘ladi;
- butun insoniyat taraqqiyotida axborot birligi shakllanadi;
- informatika vositalari yordamida har insonni butun taraqqiyot axborot resurslariga erkin kirish amalga oshiriladi.

Shu bilan birga o‘zining ijobiy tomonlari bilan birga ayni damda salbiy munosabatlarni ham kuzatish mumkin:

- ❖ jamiyatga ommaviy axborot vositalarini o‘ta ta’sir qilishi;
- ❖ sifatli va ishonchli axborotlarni tanlash muammosi mavjud bo‘ladi;

O‘zbekistonni axborotlashgan jamiyatga o‘tishdagi yo‘li uning hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy xususiyatlari bilan aniqlanadi va ularga quydagilarni kiritish mumkin:

- bir tomondan:
- 1) O‘zbekistonda o‘tish iqtisodiyotiga xos bo‘lgan salbiy iqtisodiy munosabatlarni mavjudligi;
- 3) axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan to‘lovga qobiliyatli talablarni yo‘qligi;
- 4) axborot mahsulotlarini asosiy iste’molchilar bo‘lgan ko‘p sonli o‘rta hollar sinfini yo‘qligi.

O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatga o‘tishda harakatlar quyidagi masalalarni hal qilinishini taqozo qiladi:

- axborotlashgan jamiyatni texnologik asosini yaratish va rivojlantirish;
- tanlangan yo‘lni amalga oshishini ta’minlovchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va madaniy yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ommaviy iste’molchilarga yo‘naltirilgan axborot va kommunikatsiya xizmatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish sohasida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- foydalanuvchilarni axborot tizimlari bilan tarmoqli o‘zaro homkorligi uchun muvofiqlashtirilgan arzon qurilmalarni, uy kompyuterlashtirishlarni dasturiy va servisli quvvatlovchi tizimlarni ishlab chiqish;
- aholi uchun axborot va kommunikatsiya xizmatlari bozorini tadqiq qilish hamda rivojlantirishda davlat va nodavlat tuzulmalari integratsiyasini yengillatuvchi iqtisodiy sharoitlarni yaratish.

Iqtisodiyot va jamiyatni "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida - digitization, ba’zan esa digitalization) to‘g‘risida fikr bildirishdan avval, birinchi navbatda, terminga anqlik kiritish zarur bo‘ladi. Keng ma’noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni ommaviy joriy etish va ishslash ko‘nikmalarini olish, ya’ni, axborotni yaratish, qayta ishslash, almashish va uzatish texnologiyalari bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sifatida

tushuniladi<sup>5</sup>.

Microsoft tahlilchilarining fikriga ko‘ra, jahon AT-industriyasini keyingi yanada rivojlantirishda "Texnologik platforma" - qo‘shma texnologiyalar, mahsulotlar va ularni tarqatish kanallari to‘plamlari, shuningdek, ulardan foydalanish va taqsimlash ekotizimlarini ommaviy joriy etish muhim rol o‘ynashi kerak. Hozirgi kunda yangi texnologik platformalarning asosiy elementlari bulutli hisoblash, mobillik, buyumlar Internetti, katta ma’lumot texnologiyalari, biznes-analitika va kompyuterli o‘rgatish hisoblanadi<sup>6</sup>. Mazkur ilg‘or platforma texnologiyalarining kumulyativ ta’siri tufayli, “mahsulotni xizmatlarga aylanishi”, qiymat yaratish, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlarini kengaytirish, shuningdek, "inson kapitalini yetkazib berish zanjirini qisqaarishi" bosqichma-bosqich amalga oshib boradi<sup>7</sup>.

Bunda, boshidanoq DTI "To‘rtinchi sanoat inqilobi mavzusi"ning yanada keng muhim tarkibiy qismi sifatida muhim o‘ringa ega. WEF ekspertlarining so‘nggi hisobotida (yanvar, 2017), bu nodavlat tashkilot rahbari Klaus Shvab (Klaus Schwab) uning kirib kelishini birinchi marta e’lon qilganiga oz muddat o‘tganiga qaramasdan (Davos Forumi -2016), "To‘rtinchi sanoat inqilobi to‘liq kuch bilan davom etayotganligi" (allaqachon “is underway”) qat’iy keltiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Axborotashgan jamiyat tushunchasini talqin qilishda qanday yondashuvlar mavjud?
2. Axborotlashgan jamiyat qanday holatlarda shakllanadi va rivojlanib boradi?
3. Axborotlashgan jamiyat ko‘rsatkichini aniqlovchi qanday asosiy o‘zgaruvchi parametrlarni ko‘rsatish mumkin?
4. Axborotlashgan jamiyatning qanday ajraib turuvchi xususiyatlari mavjud?
5. Axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos jihatlari?

### **3-mavzu . O‘ZBEKİSTONDA AXBOROTLASHTIRISHNING ME’YORİY-HUQUQIY ASOSLARI**

#### **Reja:**

1. Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati.
2. Davlat xizmatining maqsadi va vazifalari.

---

<sup>5</sup> Бундай таъриф, хусусан, UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology,[http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09\\_Katz\\_en.pdf](http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf)) экспертлари томонидан келтирилган

<sup>6</sup> Цифровая трансформация: технологии и примеры индустриального применения, Microsoft Corporation, 2017

<sup>7</sup> Термин, используемый главным экономистом Microsoft Престоном Макафи, см. <http://tass.ru/pmef-2017/articles/4300601>

## **Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati.**

Mamlakatimizda fuqarolarning o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekani Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan. Asosiy Qonunimizning 30-moddasida O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga dahldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilangan.

*Axborotlashtirish* - yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan yehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnolo- giyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonidir<sup>8</sup>.

Axborotlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan keng ko‘lamli foydalanish tufayli jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida axborot va bilimlardan foydalanish samaradorligi oshdi. Buning natijasida fuqarolar, tashkilotlar va davlatning axborotga bo‘lgan ehtiyojlar qondirilib, axborotlashgan jamiyatga o‘tish uchun sharoitlar yaratilmoqda. Davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot resurslariga ishlov berish va foydalanuvchiga hujjatlash- tirilgan axborotni taqdim etishni amalga oshiruvchi axborot tarmoqlari va tizimlari asosida shaxslar, predmetlar, dalillar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni olish yehtiyojlar qondiriladi.

O‘zbekiston hukumati axborotlashtirishga iqtisodiy rivojlanish va aholining turmush darajasini oshirishning strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida qaramoqda. Axborotlashtirish va telekommukatsiyalar sohasida AKT faoliyat ko‘rsatishining muhim iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi qonunchilik bazasi yaratilgan va takomillashtirilib borilmoqda.

Jumladan: «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, uning asosiy vazifa- lari axborot yerkinligi prinsiplari va kafolatlariga rioya yetilishini, har kim- ning axborotni yerkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foy- dalanish va saqlash huquqlari ro‘yobga chiqarilishini, shuningdek axbo- rotning muhofaza qilinishini hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashdan iboratligi qayd etilgan. Qonunda axborot, axborot mulkdori, axborotni muhofaza etish, axborot resurslari, axborot borasidagi xavfsizlik, axborot egasi, maxfiy axborot, ommaviy axborot, hujjatlashtirilgan axborot tushunchalariga ta’riflar berilgan.

«Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonun<sup>29</sup> (yangi tahrirda) 2003-yil 11 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda axborotlashtirish, axborot resurslari, axborot texnolo- giyalari, axborot tizimlari, axborot resurslarining yoki axborot tizimla- rining mulkdori; axborot

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги 2003 йил 11 декабрь қонуни / Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2004. - №1-2. - 10-м.

<sup>29</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2003.- №1. - 2-м.

resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi, bloger tushunchalariga ta’rif berilgan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari keltirilgan. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda mahfiy sirlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta’minlashi shartligi belgilangan.

«Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi qonun<sup>10</sup> 1999-yilning 20-avgustida qabul qilingan va unga 2011 -yil 30-dekabrda o‘zgartish va qo‘srim-chalar kiritilgan bo‘lib, telekommunikatsiyalarni yaratish, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunda telekommunikatsiya tarmoqlarining turlari keltirilgan, bular umumfoydalanish tarmoqlari, idoraviy va ajratilgan tarmoqlarga bo‘linadi. Qayd etilganki, telekommunikatsiyalar sohasida tartibga solish va boshqaruv maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi, telekommunikatsiyalar sohasidagi maxsus vakolatli organning vakolatlari belgilab berilgan, telekommunikatsiyalar sohasida litsenziyalanishi lozim bo‘lgan faoliyat turlari belgilangan. Qonunda telekommunikatsiyalarning texnik vositalarini sertifikatlashga talablar; bozor ishtirokchilariga tele-kommunikatsiya tarmoqlarini va xizmatlar bozorini yaratish va rivojlan- tirishdan teng asosda foydalanish kafolatlari; tariflari maxsus vakolatli organ tomonidan tartibga solinadigan «universal telekommunikatsiya xizmatlari» tushunchasi; telekommunikatsiya xizmatlariga tariflar belgilash tartibi; telekommunikatsiya tarmoqlari orqali uzatiladigan telefon suhbatlari, telegraf va boshqa xabarlar sirini saqlash bo‘yicha majbu- riyatlar belgilangan.

«Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> 2003-yil 11-dekabrdagi qabul qilingan, u elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo (ERI) va qog‘ozdagagi o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzoning tengligini tan olish shart- larini belgilaydi. Qonunda ERI va elektron hujjat tushunchasi; YeRidan foydalanishni tartibga solish Vazirlar Mahkamasi va maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi; maxsus vakolatli organ vakolatlari, shu jumladan, ERI kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarining davlat ro‘y- xatiga olinishini amalga oshirish; ERI kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarining vazifalari, majburiyatlarini va mas’uliyati; ERI kaliti sertifikatiga, uni berish, to‘xtatib turish va bekor qilishga talablar; yopiq ERI kalitlari egalarining va ochiq ERI kalitlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilab qo‘yilgan.

«Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi qonun 2004-yilning 29-aprelida qabul qilingan bo‘lib, u elektron hujjat aylanishi sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi, elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Qonunda elektron huj- jatning qog‘oz shaklidagi hujjat bilan teng yuridik kuchga ega yekanligi belgilab qo‘yilgan. Qonunda elektron hujjatning majburiy rekvizitlari; elektron hujjatning asl nusxasi va nusxasi, hujjatning jo‘natuvchisi, qabul qilib oluvchisi va axborot vositachisi tushunchalari; elektron hujjatni jo‘natish va qabul qilish shartlari; elektron hujjatlarni saqlash va himoyalashga qo‘yiladigan talablar belgilangan.

---

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисингин ахборотномаси. - 2004. - №1-2. - 10-м Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами. - 2011. - №52. - 557-м.

«Elektron tijorat to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> 2004-yilning 29-aprelida qabul qilingan, elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonundan ko‘zlangan maqsad - respublikada elektron tijorat rivojlanishi uchun teng huquqiy shart-sharoitlar yaratish. Qonunda elektron tijorat ishtirokchilari; elektron tijoratda shartnomaviy shartlar va shartnoma tuzish shartlari; elektron tijoratda ofertaga qo‘yiladigan talablar; elektron tijoratda elektron hujjatlardan bitim tuzilishida dalil sifatida foydalanish shartlari; elektron tijorat ishtirokchilarining majburiyatlari va mas’uliyati belgilangan.

«Elektron to‘lovlar to‘g‘risida»gi qonun 2005-yil 16-dekabrda qabul qilingan, u elektron to‘lovlarni amalga oshirish paytidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonundan ko‘zlangan maqsad - elektron shakldagi to‘lovlarni amalga oshirish uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Qonunda yelecnon to‘lov hujjatlarini yaratish, ularga ishlov berish va saqlashga oid talablar belgilab qo‘yilgan. Qayd etilganki, elektron to‘lov hujjati pulli hisob-kitob hujjatiga tenglashtirilgan bo‘lib, ular bilan teng yuridik kuchga ega, elektron to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish, to‘lov tizimidagi ma’lumotlarning xavfsizligi va himoyalanishi- ni ta’minlash bo‘yicha talablar belgilangan. Qonunda elektron to‘lov, to‘lov tizimi tushunchalari, ularning turlari: banklararo va bank ichidagi to‘lov tizimlari va chakana to‘lovlar tizimi; to‘lov tizimi mazmuni va qoidalariga oid talablar; to‘lov tizimi sub’ektlari: to‘lov tizimi a’zolari va to‘lov tizimidan foydalanuvchilar; to‘lov tizimi a’zolari va foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularning o‘zaro munosabatlari belgilangan.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan hamda 2014-yil 5-mayda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> fuqarolarning axborot olishga oid konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlarini mustahkamladi. Shuningdek, mazkur huquqiy hujjat axborotni, avvalo, fuqarolarning bevosita huquq va yerkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan ma’lumotlarni olish mexanizmlarini aniq belgilab berdi.

«Elektron hukumat to‘g‘risida»gi qonun<sup>2</sup> 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Ushbu huquqiy hujjat davlat organlari faoliyatining samarador- ligini yanada oshirishga, aholiga, jismoniy va yuridik shaxslarga AKT keng foydalanish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomil- lashtirishga qaratilgan. Qonunning maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda elektron hukumat, davlat xizmati, so‘rov, ariza beruvchi, idoralararo elektron hamkorlik qilish, elektron hukumatning yagona identifikatorlari, elektron davlat xizmatining reglamenti, elektron davlat xizmati kabi tushunchalarga ta’riflar berilgan. Qonun elektron hukumat faoliyatini tashkil etishning davlat organlari faoliyatining ochiq-oshkoraliqi, da’vo qiluvchilarining elektron davlat xizmatlaridan teng foydalanishi, axborot xavfsizligini ta’minlash kabi prinsiplarini mustahkamlaydi. Hujjat shu jumladan, «bir darcha» prinsipi asosida elektron hujjat almashish imkoniyatlarini kengaytiradi, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro aloqaning sama- rali mexanizmlarini yaratishni, elektron davlat xaridlari tizimini rivojlan- tirishni nazarda tutadi.

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari elektron davlat xizmatlari ko'rsatishda foydalaniladigan axborot tizimlari va axborot resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlashi shartligi belgilangan. Elektron hukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, elektron hukumat sohasidagi vakolatli organ va boshqa davlat organlari amalga oshirishi ko'rsatilgan va ularning elektron hukumat sohasidagi vakolatlari keltirilgan. Elektron davlat xizmati ko'rsatish to'g'risidagi so'rovga va so'rala yotgan elektron davlat xizmati bo'yicha beriladigan javobga doir talablar belgilangan. Elektron hukumat infratuzilmasi: markaziy ma'lumotlar bazalaridan; idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimidan; davlat organlari- ning axborot tizimlari va axborot resurslari hamda ularning majmualari- dan; davlat organlarining rasmiy veb-saytlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan; ma'lumotlarga ishlov berish markazi va idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'idan iboratligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya- larini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi 4702-sonli farmoni<sup>2</sup> bilan davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mam- lakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, «elektron hukumat» tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish maq- sadida O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekom- munikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlan- tirish vazirligi tashkil qilingan va uning asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdag'i «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 1730-sonli qarori<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat va jamiyat qurilishi sohasida zamonaviy AKTdan keng foydalanishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 26-sentabrdagi «Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ- huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida» 215-sonli qarori<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi qonunini bajarishga, respublikada YeRIdan foydalanish sohasidagi me'yoriy-huqu- qiy bazani takomillashtirishga, YeRIdan foydalanish bo'yicha kalitlarni ro'yxatga olish markazlari faoliyatini tashkillashtirishga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 22-noyabrdagi «Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida» 256-sonli qarori<sup>2</sup> «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun ijrosini ta'minlash, axborotlashtirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va davlat axborot resurslarini shakllantirish, davlat

organlarining axborot tizimini barpo etish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda Davlat axborot resurslarini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi va Davlat organlarining axborot tizimlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomlar tasdiqlangan hamda birinchi Nizomning ilovasida Davlat organining rasmiy saytiga qo‘yiladigan asosiy talablar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-may- dagi «Davlat axborot resurslari hamda ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida» 87-sonli qaroriga<sup>2</sup> asosan IV tomonidan yaratilgan bir qancha ma’lumotlar bazalari (jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar barmoq izlarining ma’lumotlar bazasi, haydovchilik guvohnomasi olgan shaxslarning ma’lumotlar bazasi, ma’muriy huquqbuzarliklarning ma’lumotlar bazasi va boshqalar) Davlat axborot resurslari hisobiga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-fevraldagagi «Ma’muriy jazoga tortilgan shaxslarni markazlashtirilgan hisob- ga olish tizimini tashkil etish to‘g‘risida» 39-sonli qarori<sup>3</sup> statistik axbo- rotlarning yagona tizimini yanada rivojlantirish, ma’muriy jazoga tortilgan shaxslarni hisobga olish tartibini takomillashtirish va ularning ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikdan bosh tortishiga ko‘maklashadigan shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan. Qarorda ma’muriy jazoga tortilgan shaxslarni hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrdagi «Interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 378- son qarori<sup>1</sup> bilan elektron hukumat milliy tizimini yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga axborot texnologiyalarini joriy etishda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini tashkil etish, uning texnik asoslari bayon etilgan Nizom qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 87-sonli qarori bilan vazirlik axborotlashtirish, elektron raqamli imzodan foydalanish, telekommunikatsiyalar va pochta aloqasi sohasida maxsus vakolatli organ; O‘zbekiston Respublikasi Telekommunikatsiyalar tarmoqlarini boshqarish tizimini shakllantirish va uning samarali faoliyatini ta‘minlovchi maxsus vakolatli organ; yuridik shaxslarning telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyati turlarini litsenziyalovchi organ; 2013-2020-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturining amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasining ishchi organi va radiochastota organi hisoblanishi belgilangan.

Mazkur qonun, farmon va qarorlarning ijrolarini amalga oshirish va bu boradagi faoliyatni tartibga solish siyosatini yuritish uchun AKT sohasi- ning turli tarmoqlarining rivojlanishiga javob beruvchi turli institutlar tashkil etilgan. Kompyuterlashtirish va AKTni rivojlantirish sohasidagi oliy organ «2013-2020-

yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kom- munikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish Respublika komissiyasi» hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mazkur komissiyaning ishchi organidir.

### **Davlat xizmatining maqsadi va vazifalari**

Har qanday davlatda davlat xizmatini tashkil etishning *asosiy maqsadi*, albatta, davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish, jamiyat xotirjamligini ta’minlash, Konstitutsiyasi va qonunchilik hujjatlari bilan o‘rnatilgan tartibda ommaviy manfaatlarni qondirish hisoblanadi. O‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun davlat turli-tuman vazifalarni bajaradi.

Yuridik adabiyotlarda<sup>11</sup> davlat xizmatining vazifalariga deyarli barcha huquqshunos olimlar bir xilda yondashgan.

O. Husanovning ko‘rsatishicha, davlat xizmatining asosiy maqsadi davlatning Konstitutsiya va qonunlarini amalga oshirish hisoblanadi. Shu maqsadda ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1) davlatni aholi bilan aloqasini, davlat xizmatining obro‘-e’tiborini ta’minlovchi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini shakllantirish;
- 2) markaziy va mahalliy davlat organlari apparatining samarali ishlashi va rivojlanishini ta’minlash;
- 3) mehnatni ilmiy tashkil etish, fan yangiliklaridan, texnika yutuqlaridan foydalanish, jahon tajribasini qo‘llash orqali davlat apparati faoliyatini doimiy takomillashtirib borish;
- 4) davlat boshqaruvini demokratlashtirish, uning faoliyatida oshkorlik va ochiqlik uchun sharoit yaratish, qonuniylikni ta’minlash, buyruqbozlik va korrupsiya ko‘rinishlariga barham berish;
- 5) davlat organlari jamoasida sog‘lom muhit, ishchanlik sifatlarini, tashabbuskorlik, ijodkorlikni vujudga keltiruvchi sharoitlarni ta’minlash;
- 6) davlat boshqaruvi xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish tizimini vujudga keltirish va faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, xodimlarni xizmat pillapoyasidagi adolatli siljishiga imkoniyat yaratish;
- 7) davlat boshqaruviga xizmatga qabul qilish, xizmatni o‘zgartirish, yuqori ko‘tarilish, xodimlar faoliyatini baholash, rag‘batlantirish, javobgarlik tartiblarini aniqlash.

Bular davlat xizmatining umumiyligi vazifalari bo‘lib, davlat xizmatining o‘ziga xos, aniq tur va yo‘nalishga taalluqli vazifalari ham mavjuddir. Bularga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

— davlat boshqaruv tuzilmasini samarali tashkil qilish va rivojlantirish, mansablar o‘rtasida vakolatlar taqsimlanishini rejalashtirish;

<sup>11</sup> Карап: Алексин А.П., Кармолицкий А.А., Козлов Ю.М. Административное право. – Зеркало, 1998; Бахрах Д.Н., Россинский Б.В., Старицов Ю.Н. Административное право. – М.: Норма, 2004; Козлов Ю.М. Административное право. – М.: Юристъ, 2003; Габричидзе Б.Н., Чернявский А.Г., Ким-Кимэн А.Н. Административное право. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004.

- davlat organlari xodimlarini boshqarish, ularning malakaviy darajasini aniqlash, malakasini rivojlantirish, mansab darajasida siljishi, ijtimoiy himoyasini ta'minlash;
  - davlat boshqaruvi xodimlarini mansab darjasini va toifasi bo'yicha statistik hisob yurgazish;
  - mansablarga malakaviy talablarni, ularning ko'tarilishi tartiblarini ishlab chiqish;
  - davlat apparati xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish, tanlov o'tkazish, xizmatchilarning malakaviy o'sishi va ish faoliyati istiqbolini rejalashtirish;
  - davlat apparatini saqlash va samaradorligi uchun qilinayotgan moliyaviy va boshqa moddiy xarajatlarni asoslash, shtat miqdorini aniqlash, davlat xizmati organlari, tashkilotlariga qilinadigan moddiy va mehnat sarf-xarajatlarini aniqlash;
  - mansab vazifalarini bajarish uchun manfaatdorlik va javobgarlik shakllarini hamda ularni qo'llashning demokratik usullarini aniqlash va asoslash;
  - davlat boshqaruvi va davlat xizmati sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish. Buning uchun, zamonaviy axborot-tahlil tarmog'ini shakllantirish, ekspert-maslahatchi guruhlari xizmatini tashkil etish;
  - davlat boshqaruvi xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini tahlil qilish, bitiruvchilarning sifatiga baho berish, ulardan foydalanishni nazorat qilish, davlat organlari va ta'lim muassasalarining aloqalarini ta'minlash;
  - davlat boshqaruvi va davlat xizmati sohasida qonun hamda islohot dasturlari loyihibarini tayyorlash.<sup>12</sup>
- O'zbekiston Respublikasida davlat xizmati sohasiga taalluqli izlanishlarni olib borgan huquqshunos olimlardan yana biri X.R. Alimov davlat xizmatining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritadi:
- O'zbekiston Respublikasi xalqi manfaatlarini ko'zlab davlatning funksiyalarini amalga oshirish;
  - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, Prezident va Hukumatning qarorlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hokimiyat va boshqaruv organlarining boshqa me'yoriy hujjatlarini ijro etish;
  - faoliyatning o'rnatilgan maqsadlari va vakolatlariga qat'iy rioya etgan holda respublika va mahalliy organlarning samarali ish faoliyatini ta'minlash;
  - fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini va himoya qilinishini ta'minlash;
  - boshqaruv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish va ilmiy-texnik jarayonning eng ilg'or vositalaridan foydalanish, professional darajani oshirib borish va boshqalar.<sup>1</sup>
  - Yuqoridagilarga asoslanib hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin
- Umuman olganda, davlat xizmatining vazifalari davlat organining huquqiy

---

<sup>12</sup> Б.Мирбобоев, О.Хусанов, А.Бегматов. Ўзбекистонда давлат хизматини ташкил этишнинг ташкилий-хукукий масалалари. Тошкент, Akademiya, 2005. 25-26-б.лар.

maqomiga, davlat xizmatchisining qanday lavozimni egallaganiga bog‘liqdir.

#### **4-mavzu. O‘ZBEKISTONDA AXBOROT RESURSLARINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

**Reja:**

1. Axborot resurslari.
2. Tashkilot axborot resurslarini shakllantirish manbaalari.
3. Axborot resurslari iqtisodiy faoliyatni axborotlashtirish asosi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali

#### **Axborot resurslari.**

Kompyuter texnikalari va telekommunikatsiyalarni barcha iqtisodiy sohalarga keng joriy qilib borilishi natijasida avvallari tasavvur qilish bir muncha murakkab bo‘lgan katta hajmli axborotlarni to‘plash, ishlov berish va saqlash, shu bilan birga tezkor uzatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy qilish natijasida insonning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyati, uning kundalik muomala doirasi haqiqatan ham jahon sivilizatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tajriba, bilim va ma’naviy boyliklarni jalb qilinishi hisobiga cheksiz tarzda kengayib bormoqda. Iqtisodiyot tobora kamroq moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish bilan birga ayni damda ko‘proq axborot mahsulotlarini yaratish va tarqatish sifatida tavsiflanib bormoqda. Neft va neft mahsulotlari industrial iqtisodiyot uchun qanchalik zarur bo‘lgani kabi, yangi iqtisodiyot uchun axborotlar ham yangi asr sharoitlariga zarur bo‘lgan bilimlarni egallash uchun asosiy vositaga aylanmoqda.

Alovida insonlar, guruhlар, jamoa va tashkilotlarning faoliyati ularning axborotlashganlik darajasiga, va mavjud axborotlardan samarali foydalanish xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib qoldi. Biron-bir harakatni qabul qilishdan avval turli axborotlarni to‘plash va ishlov berish, tahlil qilishda katta ishlar olib borish zarur bo‘ladi. Har qanday sohada ratsional yechimlarni izlash katta hajmdagi axborotlarga ishlov berishni talab qiladi, bu esa bir vaqtida maxsus texnik vositalarni jalb qilmasdan mumkin bo‘lmaydi.

Har qanday sivilizatsiyaning rivojlanishi uchun moddiy, texnikaviy, energetik va axborot resurslar zarur bo‘ladi. Hozirgi davrda axborot oqimlari hajmi tez sur’atlarda o‘sib borish jihatlari bilan xususiyatlanadi. Bu holat iqtisodga ham ijtimoiy sohalarga ham birdek tegishlidir. Hozirgi vaqtida axborotlar hajmining eng tez o’sish sur’atlari ishlab chiqarishda, savdoda, moliya-bank tizimida va ta’lim sohasida kuzatilmoqda. Hozirgi davrda axborot texnologiyalarning va resurslarning rivojlanishidagi ahamiyati hamda salmog‘i hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Bozoriy munosabatlar esa ma’lumotlarning o‘z vaqtida olinishiga, to‘g‘riligiga, to‘laligiga va saqlanishiga juda katta talablar qo‘yadi va bularsiz moliya-kredit, investitsion va marketing faoliyatining samarali rivojlanishi mumkin emas. Keyingi yillarda butun jahon miqyosida «sanoatlashgan jamiyat» dan «axborotlashgan jamiyat»ga o‘tish kuzatilmoqda. Shu tufayli ishlab chiqarish usullari, insonlarning dunyoqarashi va hayot tarzi, xalqaro munosabatlar shiddat bilan o‘zgarayapti. Insonlar tobora ko‘proq «axborot», «axborotlashtirish»,

«*axborot texnologiyalari*» kabi tushunchalardan barcha faoliyatda keng qo'llanilyapti. Bu vositalarni faoliyatga joriy qilinishi axborot resurslarini shakllantirishda asosiy elementlar sifatida hizmat qiladi.

**Resurs** – zahira, biron-bir manba. Mamlakat xalq ho'jaligi, har qanday tarmoq, korxonani, ya'ni har qanday ko'lAMDAGI tashkilotni ko'rib chiqib moddiy, tabiiy, mehnat, moliya energetika resurslarini ajratish mumkin va bu toifa iqtisodiy toifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda har qanday ko'lAMDAGI me'yorda faoliyat yuritishi uchun faqat yuqorida sanab o'tilgan toifadagi resurslarni o'zi yetarli bo'lmaydi va ayni damda axborot resurslari ham ahamiyatga ega resurslar sifatida sanalmoqda. Ishlab chiqarish uchun nafaqat zaruriy balki bularni barchasini bajarish uchun texnologiyalar to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lishni bilish ham zarur bo'ladi. Shuning uchun, hozirgi kunda aynan axborotlar, axborot resurslari alohida iqtisodiy toifa sifatida ko'rib chiqiladi.

**Axborot resurslari.** Axborot ta'rifidan kelib chiqib, axborot resurslariga axborot tizimi ega bo'lgan barcha axborotlar hajmi deb ta'rif berish mumkin. Mamlakat uchun – mamlakatning axborot resurslari, biron darajadagi tashkilot uchun – tashkilot axborot resurslari. Boshqacha qilib aytganda, **axborot resurslari** – ularni yaratuvchilardan ajratib olingan, moddiy tashuvchilarda joylashgan va jamiyat foydalanishi uchun mo'ljallangan barcha bilimlar hajmidir.

O'zbekiston Respublikasi «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunida **«axborot resursi** — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi» deb tushuncha beriladi.

Axborot resurslarini shakllantirish va undan maqsadli foydalanish jamiyatdagi bir butun axborot makonini tashkil etish borasidagi eng asosiy masalalardan biridir. Umuman olganda, axborot resurslari davlat organlari, davlat va nodavlat tashkilotlar, ilmiy, jamoat va o'quv muassasalari tomonidan hosil qilinadi. Bu resurslar turli ma'lumotlarni, bilimlarni hamda axborot va bilimlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan lingvistik vositalarni o'z ichiga qamrab oladi. Axborot resurslari jismoniy, xuquqiy shaxslar va davlat orasidagi munosabatlar ob'ekti bo'lib hisoblanadi va boshqa resurslar kabi qonunlar himoyasida bo'ladi. Axborot resursi egasi mamlakat qonunlarida ko'zda tutilgan barcha xuquqlardan foydalana oladi.

Axborot resurslarini boshqarish ma'lumotlarni tashkil qilish va ularga ishlov berish jarayonlarini boshqarishni o'z ichiga olib, tobora alohida boshqaru funksiyasi sifatida shakllanib bormoqda va bu jamiyatda olib borilayotgan axborotlashtirish deb ataluvchi jarayonlarga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonunda **«Axborotlashtirish** — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni» deb ko'rsatilgan.

Keng ma'noda axborot resurslarini boshqarish, ilmiy, ishlab chiqarish va boshqa masalalarni yechish uchun makon va vaqtda uzatilishini ta'minlovchi ixtiyoriy shakldagi moddiy tashuvchida fiksirlangan axborotlar to'plami sifatida

talqin qilish mumkin.

Axborot resurslari asosida informatika sanoati paydo bo‘ldi va uning asosiy masalasi axborotlarga bo‘lgan barcha ehtiyojlarni ta’minlashdan iboratdir. Global tarmoqlarni yaratilishi va elektron hujjatlardan foydalanish axborot resurslariga masofadan turib kirish imkoniyatlarini taqdim etilishi natijasida yirik axborot tashkilotlari, masalan dunyo bo‘yicha axborotlarni to‘plovchi va tarqatuvchi Dow Jones Telerate, Reuters kabi axborot agentliklari tashkil qilingan. Masofaviy ta’lim, elektron kutubxona vositalari rivojlanib bormoqda.

Informatikaga tegishli ravishda axborot resurslari deyilganda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari va hizmatlari bilan birga ko‘rib chiqiladigan axborot tizimidagi kutubxona, arhivlar, fondlar, ma’lumotlar va bilimlar bazasi sifatida tashkil etilgan alohida hujjatlar, hujjatlar massivi va fayllar tushuniladi.

### **Tashkilot axborot resurslarini shakllantirish manbaalari**

Har qanday tashkilot biron-bir tashqi muhitda mayjud bo‘ladi va o‘zining ichki muhitini yaratadi. Ichki muhit korxona tuzilmaviy bo‘linmalari va unda faoliyat yuritayotgan insonlar o‘rtasidagi texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar to‘plamidan shakllanadi.

Tashkilot doirasida vujudga kelish manbaasiga *ko‘ra tashqi va ichki axborotlardan* tashkil topgan axborot resurslariga ega bo‘ladi.

Odatda, **ichki muhit axborotlari** tashkilot moliya-xo‘jalik faoliyatini to‘liq va aniq ifodalab beradi. Ko‘p hollarda unga ishlov berish standart shakillantirilgan jarayonlarda amalga oshiriladi.

Insonlar, mahsulot, xarajat, imkoniyat, xizmat, texnologik jarayonlar, mahsulotlarni qo‘llash sohalari, savdo, yetkazib berish, ta’midot tarmoq usullari to‘g‘risidagi axborotlar ichki axborotlarni tashkil etadi.

**Tashqi muhit** – korxona tashqarisida harakat qilayotgan iqtisodiy va siyosiy sub‘ektlar hamda ular bilan munosabatlar. Bu korxonani mijozlar, yetkazib beruvchilar, vositachilar, raqiblar va davlat organlari bilan iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, siyosiy va boshqa munosabatlar.

**Tashqi muhit axborotlari** ko‘p hollarda tahminiy aniq va to‘liq bo‘lmagan va ziddiyatli axborotlardir. Ular bunday holatda ishlov berish nostandard usullarni talab etadi.

**Tashqi axborotlar** – bozor, raqiblar, mamlakat tadbirkorlik muhitining o‘zgarishi, halqaro bozorlar holati, xaridorlar, talab, mijoz va raqiblar talabi, qonunchilikni o‘zgarishi to‘g‘risidagi axborotlar.

Axborotlar tavsifiga bog‘liq holda tashkilot tashqi axborotlarini shakllanishidagi bir nechta manbaani keltirish mumkin:

1. **Iqtisodiyot holati to‘g‘risidagi umumiylar axborotlar.** Manbaalari: axborot-analitik materiallar, muvofiqlashtirilgan jurnallar, gazetalar, Internet resurslari

.2. **Muvofiqlashtirilgan iqtisodiy axborotlar.** Manbaalari: banklararo kredit bozori, valyuta bozori, aniq sanaga valyuta kursi, kurs dinamikasi va shu kabilalar.

3. **Mahsulotlilik bahosi darajasiga ko‘ra axborotlar.** Manbaalari:

muvofiqlashtirilgan jurnal va byulletenlar, kataloglar, Internetdagi ma'lumot bazalari. Internetda O'zbekiston qatlamiga tegishli ko'plab ma'lumotlarni olish mumkin.

**4. Mavzuli axborotlar.** Internetni qo'shib hisoblaganda ko'plab turli manbaalarga ega. Mavzuli axborolarni izlashda muvofiqlashtirilgan serverlarni topish murakkab, shuning uchun qidiruv tizimlaridan foydalaniladi. Internetda hujjatlarni qidirish kalit so'zliri orqali amalga oshiriladi. Har qanday qidiruv tizimlari aniq mavzuli guruhlargaa xos serverlar to'g'risidagi axborotlarga ega bo'ladi. Bunday guruhlar: moliya-biznes, ko'chmas mulk, ta'lim va shunga o'xshashlar.

**5. Davlat va boshqaruv organlari axborotlari.** Qonunlar, qarorlar, soliq organlari xabarlari va shu kabilar).

Boshqa resurslarda bo'lgani kabi axborot resurslarini sifat va miqdoriy baholash va ularga bo'lgan talablari bashoratlash uslublari ishlab chiqilmagan bo'lsada axborot resurslarini boshqarish mumkin.

Shuningdek, tashkilot darajasida axborot talablarini, axborot resurslarini rejalashtirish va boshqarishni tadqiq qilish mumkin va zarur.

Axborot resurslarini boshqarish mohiyati quyidagilardan tashkil topadi:

- har bir daraja va har bir boshqarish funksiyasi doirasida axborotlarga talabni baholash;
- tashkilot hujjat aylanishlarini tadqiq etish va takomillashtirish; hujjat turlari va shakllarini tartiblanadirish va standartlashtirish; axborot va ma'lumotlarni turlashtirish;
- ma'lumot turlari qo'shiali emasligi muammolarini bartaraf etish;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini yaratish.

#### **Axborotlar siyosiy resurs sifatida**

Mamlakatning eng muhim quyi tizimlari holati to'g'risidagi ishonchli axborotlarga ega bo'lmadan turib davlatni samarali boshqaruvni yo'lga qo'yishi mumkin emas. Shuning uchun, har qanday davlat hukumati davlatni samarali boshqarish omili sifatida axborot apparatini faoliyat yuritishiga katta e'tibor qaratadi.

**Axborotlar harbiy resurs sifatida.** Ayg'oqchilik harakatni amalga oshirish va qaror qabul qilishi uchun axborotlarni qidirish ifodalaydi. Axborotlarni topish ayg'oqchilikning eng asosiy vazifasidir.

#### **Axborotlar halq ho'jaligi resursi sifatida**

Milliy axborot resurslari – yangi iqtisodiy toifadir. Axborot ham moddiy ne'matlar va energiya kabi asosiy resursga aylanadi va bu resursga nisbatan ham quyidagi muammoli savollar qo'yilishi zarur:

- ularga kim egalik qiladi?
- unga kimlar qiziqish bildirmoqda?
- unga qanchalik kirish mumkin?
- ulardan tjarat sifatida foydalanish mumkinmi?

#### **Axborotlar fan va ishlab chiqarish resursi sifatida**

Dunyo bo'yicha har yili 60 dan ortiq tildagi 100 mingdan ortiq jurnal, ilmiy maqolalar, kitob, 250 ming dissertatsiya va hisobotlar nashr etiladi. Ixtirolarni

yoritib berish butun jahon foni 500 mln. betli matnni tashkil etadi va har yili 350 mingta ixtiolar to‘g‘risidagi axborotlarga ega 1 mln. hujjat to‘ldirib boriladi. Dunyoda hab bir daqiqada 2 ming bet ilmiy matnlar, har 1,5-2 daqiqadi yangi texnik yechimlar nashr etiladi, har bir soatda 15-20 ta kashfiyat ro‘yxatdan o‘tadi. Zamonaviy mutaxassis uchun hozirgi kun darajasidan ortda qolmaslik uchun har kuni 1.5 betlik matnni o‘qishiga to‘g‘ri kelida. Hozirgi kunda axborotlarni ishonchliligi, dolzarbliligi va samaraliligi o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

### **Axborot resurslari iqtisodiy faoliyatni axborotlashtirish asosi**

Hozirgi kunda jamiyat axborotlashtirilgan deb yuritiladi, bunda jamiyatdagi mehnat resurslarining sezilarli qismi axborotlar, shuningdek, uning oliv shakli - bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, ishlov berish va foydalanish bilan band bo‘ladi. Bunday jamiyatning xususiyati uzluksiz axborot almashishdan iborat bo‘ladi.

Axborotlarni muhim turlaridan biri-*iqtisodiy axborotlardir*. Iqtisodiy axbortlar moddiy boylik va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste’mol qilinishiniinsonlar jamoasi tomonidan boshqarilishi bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiy axbortlar mehnat, moddiy va pul resurslari tarkibi hamda aniq vaqt lahzasida boshqarish ob’ektining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Axborotlar iqtisodiy manfaatlar xususiyatlariga ega bo‘ladi va iqtisodiyotda xo‘jalik faoliyati jarayonlarida foydalaniladigan resurs va mahsulot (axborot mahsulotlari va xizmatlari) sifatiga aylanadi.

Axborot resurslaridan, shu jumladan iqtisodiy, inson faoliyatining barcha yo‘nalishlarida avvaldan foydalanib kelingan bo‘lsada, hozirgi vaqtga kelib ularning ahamiyati yanada ortib ketdi. Axborot resurslari korxona, tarmoq va butunlay milliy iqtisodiyotda boshqa resurslar qatorida yanada ahamiyatli o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

Ma’lumotlar bazasi, dasturiy ta’midot, maslahat berish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik ishlari va boshqalar axborot mahsulot va xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mahsulot va xizmatlar axborot bozorida ayrboshlaanadi va ishlab chiqarish bosqichlari hamda muomilaga kirish bosqichlarida boshqa mahsulot va xizmatlardan ko‘plab xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bularning barchasi jamiyatda axborotlashtirish deb nomlanadigan jarayonlar bilan bog‘liqdir.


**Axborotlashtirish** – axborot resurslarini shakllantirish va foydalanish asosida jismoniy shaxs va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning axborot talablarini qondirish uchun sharoitlarni yaratish tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnik jarayonlardir. Bu jarayon avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini yaratishga asoslanadi.

Informatika sohasiga xos axborot resurslari deyilganda avtomatlashtirilgan axbort texnologiyalari yoki servislari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladigan alohida hujjatlar, axborot tizimidagi hujjat va fayllar massivi, kutubxona, arxiv va fondlar sifatida tashkil etilgan ma’lumot va bilim bazalari tushuniladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun mos axborot resurslaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Shu ma’noda bozor

munosabatlarida kirish mumkin bo‘lgan, shu jumladan foydalanishda kattagina pul mablag‘lari to‘lash to‘g‘ri keladigaan turli manbaalar to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin.

Aniq tashkilotda undagi munosabatlar va shakllanish manbaalari ko‘ra axborot resurslarini ichki va tashqi axborot resurslariga ajratish mumkin (1- rasm).



1- rasm. Tashkilotni boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborot resurslar  
Tashkilot holatini majmuaviy baholash va uning istiqbol rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun bevosita tashkilot faoliyatiga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro bog‘liq tashqi ob’ektlar va omillar to‘plami – *tashqi muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘lishi zarur bo‘ladi*. Bu *tashqi axborotlar* turli manbaalardan, shu bilan birga axborot bozoridan ham olinishi mumkin.

Aniq vaqt davrida tashkilot faoliyati to‘g‘risidagi boshqaruv, statistik va buxgalteriya axborotlari to‘plami bo‘lgan hisobotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hisobotlarda mujassam bo‘lgaan ko‘rsatkichlar tahlil, joriy rejalashtirish, bashoratlash, tashkilot holatini tahlil qilish va boshqa shu kabi masalalarni yechish uchun asosiy axborotlar hisoblanadi.

Ammo, tashkilot holatini majmuaviy baholash va uning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun tashkilotdan tashqaridagi mavjud bevosita bog‘liq, tashkilot faoliyatiga ta’sir etadigan yoki etishi mumkin bo‘lgan ob’ekt va omillar to‘plami – *tashqi muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur bo‘ladi*. Bu *tashqi axborotlar* turli manbaalardan, shu jumladan, axborot bozoridan olinishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot uchun tashqi manbaalardan kelib

tushuvchi tadbirkorlik axborotlarining ahamiyati katta bo‘ladi va o‘z rivojlanish strategiyalarini rejalashtirishda ularga asoslanadi (1-jadval).

### 1-jadval. Tadbirkorlik axborotlari tuzilishi

Axborot turlari	Izoh
Makroiqtisodiy	Mamlakat iqtisodiyoti umumiy holatini tavsiflab beradi va davlatning maxsus muassasalari yoki mustaqil institutlar tomonidan taqdim etiladi
Moliyaviy	Tashkilotning joriy va istiqbol moliyaviy holati va kapital, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi bozorida yuzaga kelgan holatlarni tavsiflab beradi, maxsus moliyaviy axborotlar xizmati, brokerlik kompaniyalari, banklar va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladi
Birja	Valyuta kurslar, hisoblash va foiz stavkalari, qimmatli qog‘ozlar kotirovkasi to‘g‘risidagi axborotlar. Banklar, birja va maxsus agentliklar tomonidan taqdim etiladi
Tijorat	Korxonalar (banklar, firmalar, korporatsiyalar), ularni ishlab chiqarish aloqalari, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, asosiy shartnomalari, baholar, texnologiyalar, rahbarlar, aksiyadorlar va shu kabilar to‘g‘risidagi axborotlar. Elektron ma’lumotlar bazasi davriy yangilanadigan nashrlar ko‘rinishida taqdim etiladi
Statistik	Iqtisodiy, moliyaviy, birja, ijtimoiy va boshqa ma’lumtlar dinamik qatorlar va bashoratli baholash ko‘rinishida taqdim etiladi
Tadbirkorlik axborotlari	Axborot agentliklari va ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etiladigan biznes turli sohalari joriy axborotlari

Ommaviy axborot vositalari iqtisodiy va siyosiy tavsifdagi axborotlarni taqdim etadi. Tashqi tadbirkorlik axborotlari manbaasini bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. (2-jadval).

Oliy qonun chiqaruvchi va ijrochi organlar qonunlar va boshqa tartibga soluvchi hujjatlarni qabul qiladi va barcha tashkilotlar o‘z faoliyatlarida bu ko‘rsatmalarga asoslanadi.

Turli darajadagi korporativ forumlar axborotlarni almashish, muammolar hamda ishtirokchilar fikr va nuqtai-nazarlarini muhokama etishga imkon beradi.

Bosma va elektron mahsulotlar turli tashkilot tadqiqot natijalari bilan tanishishga imkon beradi. Elektron mahsulotlar axborot texnologiyalarning markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi va axborotlarni jo‘natish tezligini oshirish muhim vositasi hisoblanadi. Uning uchun chegara, til to‘sqliari mavjud bo‘lmaydi, masofa va axborotlashgan jamiyatda borgan sari yo‘q bo‘lib borayotgan industrial jamiyatga xos bo‘lgan boshqa cheklolvar muhim emas.

Hozirgi kunda iqtisodiy ob‘ektlarni boshqarish sohasida rejalashtirish, tayyorlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot resurslarini shakllantirishda foydalaniladigan kompyuter texnikalari, dasturiy ta’minot, telekomunikatsiyalarni istiqbol takomillashtirishlar bilan bog‘liq sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat axborot resurslari davlat organlarining axborot resurslaridan; yuridik

va jismoniy shaxslarning davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga yaratilgan axborot resurslaridan; yuridik va jismoniy shaxslarning davlat sirlariga va maxfiy axborotlarga ega bo‘lgan axborot resurslaridan; yuridik va jismoniy shaxslarning belgilangan tartibda beriladigan hujjatlashtirilgan axborotlaridan shakllantiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar o‘zlarining mablag‘lari hisobiga yaratilgan, ular tomonidan qonuniy asoslarda sotib olingan, hadya yoki meros tarzida olingan, shaxsiy foydalanish uchun davlat tomonidan berilgan hujjatlar, hujjatlar massivlari egalari hisoblanadi.

Davlat hujjatlashtirilgan axborot davlat siri deb hisoblangan hollarda yoki konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat qiluvchi, urush, zulm va pornografiyani targ‘ib qiluvchi, diniy va milliy nizolarni qo‘zg‘ovchi, inson sha’ni va qadr-qimmatini poymol qiluvchi hamda O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonun hujjatlari bilan tarqatilishi taqiqlangan axborotlarni va boshqa axborotlarni jismoniy va yuridik shaxslardan belgilangan tartibda olib qo‘yish huquqiga egadir.

Davlat siriga kiritilgan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot resurslari egasi ushbu mulkni faqat davlat hokimiyati tegishli organlarining ruxsati bilan tasarruf qilishga haqlidir<sup>13</sup>.

### **O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalı**

O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portalı (Portal)** — Internet tarmog‘idagi O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ochiq ma’lumotlarini joylashtirish uchun mo‘ljallangan, ochiq ma’lumotlarni e’lon qilishda va ulardan foydalanishda Portal operatori, ochiq ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar va foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘zar hamkorlikni ta’minlovchi axborot resursi;

Portal foydalanuvchilarga Internet tarmog‘idagi ochiq ma’lumotlardan foydalanishning yagona nuqtasini taqdim etish va joylashtirilgan ochiq ma’lumotlarning dolzarbli masalalari bo‘yicha foydalanuvchilarning ochiq ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan teskari aloqasini ta’minalash, yangi ochiq ma’lumotlarni e’lon qilish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqish va ochiq ma’lumotlarni olishda foydalanuvchilar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, yetkazib beruvchi faoliyatining ochiq-oshkorligini ta’minalash.

Portal operatori O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining qarori bilan belgilanadi.

### **Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarining axborot tarkibi.** Portalda quyidagi shakldagi birlamchi

ma’lumotlar ochiq ma’lumotlar shaklida majburiy joylashtirilishi lozim:

foydalanuvchilar o‘rtasida yuqori darajada talab qilinadigan ma’lumotlar va axborot;

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикаси ахборот ресурсларини тайёрлаш ва уларни маълумотларни узатиш тармоқларида, шу жумладан, Интернетда тарқатиш тартиби тўғрисида НИЗОМ

yetkazib beruvchi faoliyati to‘g‘risida hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot;

yetkazib beruvchi faoliyatining asosiy sohalari bo‘yicha statistik ma’lumotlar;

davlat axborot tizimlari va axborot resurslarida mavjud bo‘lgan, oshkor etilishi qonun hujjatlari bilan cheklanmagan yetkazib beruvchining ma’lumotlari va axboroti;

yetkazib beruvchi tomonidan yaratilgan yoki o‘z vakolatlarini amalga oshirishda unga kelib tushgan hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot.

Internet tarmog‘ida ochiq ma’lumotlar shaklida joylashtirilishi kerak bo‘lgan axborot hamda ularni joylashtirish muddatlari va yangilash davriyigini aniqlash 2013 — 2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining Ochiq ma’lumotlar to‘plamlari ro‘yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ochiq ma’lumotlar shaklida joylashtiriladigan axborot qo‘l yordamida hamda avtomatlashtirilgan rejimda taqdim etilishi mumkin. Ochiq ma’lumotlarni yetkazib beruvchi Portal operatori bilan kelishgan holda e’lon qilinadigan axborotni yangilash tezkorligini, hajmi va tarkibini belgilaydi. Portalda joylashtirish uchun taqdim etiladigan axborot dolzarb, ishonchli, yaxlit bo‘lishi va davlat sirlarini yoki qonun bilan muhofazalanadigan boshqa sirni o‘z ichiga olmasligi kerak.

Portalda joylashtiriladigan axborot davlat tilida taqdim etilishi kerak. Portal boshqa tillardagi teng ahamiyatli yoki qisqartirilgan versiyalarga ega bo‘lishi mumkin.

**Ochiq ma’lumotlarni shakllantirish, ularni joylashtirish va qayta ishslash reglamenti.** O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Ochiq ma’lumotlarni shakllantirish, ularni joylashtirish va qayta ishslash reglamentini (keyingi o‘rinlarda Reglament deb ataladi) ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

#### **Portal operatorining huquqlari, majburiyatları va javobgarligi.**

Portal operatori foydalanuvchilar tomonidan ochiq ma’lumotlardan foydalanish oqibatlari uchun, shu jumladan Portalda joylashtirilgan ochiq ma’lumotlardan foydalanish natijasida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zarar uchun javob bermaydi.

**Ochiq ma’lumotlarni yetkazib beruvchining huquq va majburiyatları.** Ochiq ma’lumotlarni yetkazib beruvchi:

- ushbu Nizomga, Reglamentga hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlar va Portalda majburiy e’lon qilinishi kerak bo‘lgan ochiq ma’lumotlari to‘plamlarining ro‘yxatiga muvofiq Portal operatori tomonidan ishlab chiqilgan jadvallar (shakllar)ni to‘ldirish yo‘li bilan ochiq ma’lumotlar to‘plamlarini shakllantirishga;

#### **Foydalanuvchi quyidagi huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi:**

- Portaldan foydalangan holda ochiq ma’lumotlarni olishga;

- ochiq ma'lumotlarni qayta tiklash, ulardan nusxa olish, e'lon qilish va uzatishga;
- ochiq ma'lumotlardan erkin, muddatsiz, bepul va foydalanish hududini cheklamasdan foydalanishga (shu jumladan takroran);
- ochiq ma'lumotlarni tarqatish va qaytadan guruhlashga;
- ochiq ma'lumotlarni moslashtirish, o'zgartirish, bir shakldan boshqa shaklga aylantirish va/yoki ular to'plamlaridan axborotni chiqarib olishga;
- ochiq ma'lumotlardan tijorat maqsadlarida, shu jumladan turli xildagi dasturiy mahsulotlar va ilovalarni yaratish uchun foydalanishga;
- Portal operatoriga Portalning dasturiy-texnik vositalaridan foydalangan holda uning faoliyat ko'rsatish masalalari bo'yicha va yetkazib beruvchilarga Portalda joylashtirilgan ochiq ma'lumotlar to'plamlari yuzasidan axborot xabarlarini yuborishga haqlidir.

Ochiq ma'lumotlardan foydalanganda Foydalanuvchi ochiq ma'lumotlardan faqat qonun hujjatlariga zid kelmaydigan maqsadlarda foydalanishga, ochiq ma'lumotlardan foydalanishda axborot manbaiga havolani saqlashga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtiriladigan axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchligi uchun ochiq ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning rahbarlari shaxsan javob beradilar.

## **5-mavzu. DAVLAT XIZMATLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI**

### **Reja:**

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvi.
2. O'zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar.
3. O'zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar

"Elektron hukumat" (Elektron hukumat) tushunchasining bir nechta ta'riflari mavjud. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti "elektron hukumat"ni "Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, xusan, Internetdan foydalanib hukumatni takomillashtirish vositasi sifatida" deb ta'riflaydi.

Gartner Guruhining ta'rifiga ko'ra, "elektron hukumat" bu texnik vositalar, Internet va zamonaviy ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda xizmatlarni ko'rsatish, fuqarolarning siyosiy ishtiroki va boshqaruv jarayonini doimiy optimallashtirish tushunchasidir.

"Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni loyihasida "elektron hukumat" tushunchasi berilgan: "elektron hukumat" - bu davlat funktsiyalarini avtomatlashtirishga asoslangan davlat organlari faoliyatini

tashkil etish shakli, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish, davlat organlarining o'zaro munosabatlari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish "

"Elektron hukumat" atamasi birinchi marta 1993 yil sentyabr oyida AQShda Clinton ma'muriyatining hukumat islohotlari to'g'risidagi hisobotning rasmiy sahifalarida paydo bo'lgan ("Yaxshi ishlaydigan va kam xarajat qiladigan hukumatni yaratish: shiorlardan natijagacha").

"Elektron hukumat" tushunchasi va atamasi yaqin davrda - XX asrning oxirida, ko'pgina davlatlar yuqori xarajatlar, qarorlarni qabul qilishdagi kechikishlar, yomon boshqaruv, korrupsiya va hokazolar bilan namoyon bo'lgan boshqaruvning past samaradorligi muammosiga duch kelganlarida paydo bo'ldi. 90-yillarda ba'zi mamlakatlarda elektron hukumatni joriy etish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish kontseptsiyasi taklif qilindi. Ushbu kontseptsiya tarafдорлари tijorat korporatsiyalari va davlat o'rtasida o'xshashliklar juda ko'p ekanligini ta'kidladilar. Samarali korporatsiyalar pullari bilan ularning mavjudligini ta'minlaydigan foydalanuvchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Korporativ vazifalarga o'xshab, davlatning asosiy vazifasi soliq to'lovchining pulidan foydalangan holda aholiga ma'lum xizmatlarni optimallashtirishdir.

«Elektron hukumat» ni yaratish strategiyasi quyidagi qoidalarga asoslandi:

- markazlashtirmaslik - qarorlarni qabul qilish vakolatini markazlashtirilgan qarorlarni qabul qilish narxini pasaytirish maqsadida mintaqaviy va mahalliy boshqaruv darajasiga o'tkazish;
- qabul qilinayotgan qarorlar uchun davlat sektorining javobgarligini oshirish (korruptsiyaga qarshi kurashni rag'batlantirish mexanizmini yaratish);
- resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish, inson, moliyaviy va boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- xarajatlarni kamaytiradigan va qarorlar qabul qilishni yaxshilaydigan bozor munosabatlari elementlarini joriy etish;
- davlat sektorida axborotning barcha turlarini boshqarish uchun AKTdan foydalanish.

"Elektron hukumat" G2C, G2B va G2G darajalarida o'zaro hamkorlikni avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu darajalarda amalga oshirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqing (1.2-jadval).

1.2<sup>14</sup>-jadval

#### **O'zaro ta'sir turlari bo'yicha "elektron hukumat" modellari**

<b>Elektron hukumat modellari</b>	<b>Manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik</b>
Hukumat -Fuqarolarga	Hukumat tomonidan davlat xizmat va axborotlarini bir tomonlama taqdim etish
Fuqarolar-Hukumatga	Fuqarolar va hukumat o'rtasida axborot ayrboshlash imkoniyati
Hukumat-Biznesga	Biznesga hukumat bilan tranzaksiyalar uchun zarur bo'lgan aniq axborot larni

<sup>14</sup> <http://www.infosistema.kg>

	taqdim etishdagi elektron tranzaksiyalardan tashkil topadi. Elektron xaridlar tizimini misol sifatida keltirish mumkin.
Biznes-Hukumatga	Yanada samarali bo'lishida, masalan, biznes-jarayonlarni boshqarish va elektron hisobga olish tizimlarini yaxshilash, yordam berish uchun hukumatga mahsulot va xizmatlarga taalluqli. Elektron xaridlar tizimi G2B bo'lgani kabi B2Gda ham o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi ilova hisoblanadi.
Hukumat-Xodimlarga	Davlat xizmatlarini boshqarishni yengillatish va davlat xizmatchilari bilan ichki aloqani ta'minlovchi tashabbuslardan tashkil topadi. Masalan, inson resurslarini onlayn-boshqarish tizimi.
Hukumat- Hukumatga	Ma'lumotlar bazasi majmuasi doirasida davlat muassasa va tashkilotlari o'rtasida onlayn axborot almashish va kommunikatsiyalar imkoniyatini beradi.
Hukumat-Notijorat tashkilotlariga	Hukumat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlariga axborotlar taqdim etadi.
Notijorat tashkilotlari-Hukumatga	Notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlariga Hukumat bilan axborot almashishga imkon beradi.

G2B / B2G darajasida «elektron hukumat» ning joriy etilishi tashqi manbalarni jalb qilish texnologiyalaridan maqbul foydalanish orqali davlat organlarining xarajatlarini kamaytiradi va davlat xaridlarining yanada shaffof tizimini (elektron xaridlar) yaratadi.

Elektron davlat xaridlarining yagona tizimi davlat organlari kim oshdi savdolarini va ularni o'tkazish shartlarini e'lon qilishi kerak bo'lgan portalni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu davlat xaridlari sohasida erkin raqobat muammosini hal qiladi va ayrim ishlab chiqaruvchilarga imtiyoz berish natijasida yuzaga keladigan bozor buzilishlaridan qochadi.

Nazorat qiluvchi davlat organlariga hisobot berish uchun nomaqbul uzoq vaqt sarflaydigan tijorat tashkilotlari uchun «elektron hukumat» quyidagi operatsiyalarni onlayn rejimida o'tkazishga imkon beradi:

Employees ishchilar uchun ijtimoiy sug'urta fondlariga to'lovlar;

- QQS to'lash (deklaratsiya, deklaratsiyani tekshirish natijalari to'g'risida

habar berish);

- yangi kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish;
- statistika organlariga ma'lumot taqdim etish;
- bojxona deklaratsiyasini topshirish va boshqalar.

#### Davlat - Davlatga (G2G)

- «elektron hukumat» davlat organlari o'rtasida ichki va tashqi aloqalarni o'rnatish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga imkon beradi, shuningdek:

- davlat idoralari bilan hamkorligini takomillashtirish;
- axborot almashish samaradorligini oshirish;
- mahalliy rejallashtirish va boshqaruvni takomillashtirish;
- jamoatchilik fikri to'g'risida xolis ma'lumot berish;
- hukumatga ma'qul bo'lgan jamoatchilik fikrini shakllantirish.

G2G darajasidagi o'zaro aloqa nafaqat bitta, balki turli davlatlar bo'limlari o'rtasida ham elektron shaklda amalga oshiriladi. Hozirda bir qator xalqaro tashkilotlar davlatlararo hamkorlik uchun hujjatlar formatlarini standartlashtirmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi xalqaro savdo uchun hujjatlar uchun standart - XMLga asoslangan UNeDocsni ishlab chiqdi.

#### Davlat-fuqarolarga (G2C / C2G)

Endi fuqarolarga axborotni etkazish asosan ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi va tartibsizdir. Odamlar kerak bo'lganda kerakli hujjatlar bilan tanishish imkoniga ega emaslar. Elektron hukumat tizimi fuqarolarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- shet elda yashovchi odamlar o'z vatanlari ishlarida qatnasha oladilar. Elektron hukumatning joriy etilishi mavjud onlayn fuqarolar forumlari va elektron murojaatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Saylovlarini tashkil qilish uchun Internet (saylovchilarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish, natijalarni e'lon qilish, ovoz berish jarayonini soddallashtirish uchun Internet tarmog'idan foydalanish) yanada kengroq qo'llaniladi. Onlayn saylovlar odamlar uchun qulay bo'lgan moslamadan foydalangan holda deyarli har qanday joyda ovoz berish imkoniyatini beradi.

Electronic «elektron hukumat» juda keng doiradagi texnologiyalarga asoslanadi (2-rasm).



1-rasm. Elektron hukumat arxitekturasining tarkibiy qismlari

Telekommunikatsiya infratuzilmasi, idoralararo elektron aloqalar muhiti, shuningdek, apparat va dasturiy ta'minot bilan jihozlangan texnologik infratuzilma quyi pog'onalarda joylashgan.

Aholi va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishning amaliy tizimlari va tizimlari yuqori darajalarining asosini tashkil etadi.

Axborot xavfsizligi tizimlari va integratsiya tizimlari federal hokimiyat organlarining samarali ishlashini ta'minlovchi tarkibiy qismlardir.

Elektron hukumat tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan muammolardan biri raqamli tengsizlikdir. Uning mohiyati quyidagicha:

- aholining katta qismi uchun axborot jamiyatidan foydalanish imkoniyati bo'lgan axborot savodxonligi pastligi;

Required Talab qilingan tarkib ona tilida mavjud bo'lmasligi mumkin (vebsaytlarning 75% ingliz tilida yozilgan);

- mavjud ma'lumotlarni qidirish tizimlari boy odamlarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan;

- Internetda aholining kam ta'minlangan qatlamlarining shahar va qishloq aholisining ma'lumot so'rovleri sust taqdim etilgan;

- chekka hududlarda axborot xizmatlariga aloqa kanallari zaif;

- kam ta'minlangan odamlarning madaniyat va fan markazlariga kirish imkoniyati cheklangan;

- kam ta'minlangan aholi uchun apparat va dasturiy ta'minotlar hali ham qimmat;

- Internet xizmatlarining afzallikkari haqidagi ma'lumotlar asosan Internetda taqdim etiladi, ammo ko'pchilik foydalana olmaydi.

Shubhasiz, birinchi navbatda, Internetga kirish jamiyatning yanada ko'proq qatlamlariga ega. Hatto gullab-yashnagan Britaniyada ham Internetga ulangan uylarning 60 foizi badavlat fuqarolarga tegishli.

Hozirgi kunda dunyo aholisining 40% dan ko'prog'i Tarmoq manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatadi tarmoqqa ulangan ko'plab odamlar kerakli manbalardan foydalanishga urinib, til to'sig'iga duch kelishlarini ko'rsatadi. Internet manbalarining aksariyati ingliz tilida so'zlashadigan odamlar uchun mavjud.

Ijtimoiy mavqeい past bo'lgan odamlar kompyuterlardan va shaxsiy kompyuter mashg'ulotlaridan kamroq foydalanishadi. Shuning uchun elektron ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash (e-inclusion) elektron hukumatning asosiy vazifasi bo'lib qolmoqda.

"e-inclusion" tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha fuqarolarni axborot jamiyatiga kiritish;

- barcha fuqarolarga samarali va oshkora xizmatlar ko'rsatish;

- axborot xizmatlaridan foydalanish orqali fuqarolarga yordam ko'rsatish;

- axborotni samarali boshqarish va uni fuqarolarga taqdim etish;

- fuqarolarni axborot jamiyatining yutuqlari bilan tanishtirish;

- ijtimoiy va madaniy tenglikni yaratish.

Jamiyatning turli sohalarida ma'lumotlardan teng foydalana olish imkoniyati

mavjud, bu esa universal elektron ishtirokni oldini oladi.

Raqamli tengsizlik alohida davlatlar darajasida ham, umuman olganda ham namoyon bo'ladi. Masalan, davlat xizmatlari uchun onlayn to'lovlar mamlakatlarni to'liq qamrab olmagan.

Elektron hukumatni joriy etish bu katta moliyaviy xarajatlar va ma'muriy harakatlar talab qiladigan murakkab tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jarayondir. Milliy loyihalarni amalga oshirish uchun katta xarajatlarni hisobga olgan holda, elektron hukumatni rivojlantirish strategiyasini to'g'ri aniqlash muhimdir. Ushbu sohadagi qiziqarli izlanishlardan biri bu 2010 yilgacha Evropa Ittifoqida elektron hukumatni rivojlantirish siyosatini belgilash bo'yicha mutaxassislarining so'rovlariga asoslangan holda (33 mamlakatdan 403 kishi) onlayn ravishda "Elektron hukumat bo'yicha sizning ovozingiz, onlayn jamoat konsultatsiyasi" ma'ruzasi. So'ralganlarning 48 foizi davlat organlari, 25 foizi tadbirkorlik sub'ektlari, 13 foizi akademiklar (universitetlar, institutlar) va 6 foizi nodavlat tashkilotlari.

Gartnerning xalqaro tajribasi va ekspert baholari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda hukumat "bir darcha" tamoyili asosida ishlaydigan Internet-portallarni yaratishda katta miqdordagi mablag'ni sarflashi shart emas. Fuqarolar davlat ma'lumotlari va xizmatlariga to'g'ridan-to'g'ri biznes sahifalariga tegishli bo'lgan va juda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardagi o'zlarining sahifalaridan kirishni xohlashadi. Hukumat faqat ushbu tarmoqlarni ulashi va ulardan xizmatlarni taqdim etishda vositachilar sifatida foydalanishi kerak, bunda asosiy faoliyati jamoat foydalanishi va sharhlari uchun dastlabki hukumat ma'lumotlarini ochib beradigan infratuzilmani yaratishga qaratiladi. Hamkorlikning bunday shakllari juda foydalii bo'lishi mumkin va elektron hukumatni yaratish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

### **O'zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar**

O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat boshqaruvin organlarida samarali foydalanish, jamiyatning barcha qatlamlariga keng qamrovli elektron xizmatlarni ko'rsatish va sharoitlar yaratish, «Elektron hukumat»ni samarali joriy etish borasida istiqbolli islohotlar olib borilmoqda. Bularga O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida», «Elektron raqamli imzo to'g'risida», «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida», «Elektron tijorat to'g'risida», «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Elektron hukumat to'g'risida» Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydag'i «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi PF-3080 sonli va 2015 yil 4 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-4702 sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdag'i «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1730 sonli, 2013 yil 27 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-

*tadbirlari to‘g‘risida» PQ-1989-son va 2013 yil 20 sentyabrdagi «Mamlakatimizning dasturiy ta‘minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2042-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish» markazi hamda «Axborot xavfsizligini ta‘minlash» markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 250-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 355-son Qarori, va boshqa huquqiy hujjatlar kiradi.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri xisoblanadi.

Ayniqsa, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish O‘zbekistonning istiqboldagi taraqqiètini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda milliy axborot tizimini shakllantirish, iqtisodièt va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, elektron xukumatini shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Elektron xukumatni shakllantirishning xuquqiy asoslarini mustaxkamlash maqsadida "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida"gi, "Axborotlashtirish to‘g‘risida"gi, "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi, "Elektron xujjat aylanishi to‘g‘risida"gi, "Elektron to‘lovlar to‘g‘risida"gi, "Elektron tijorat to‘g‘risida"gi, "Davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida"gi qonunlar qabul qilindi.

2013 yil 1 iyulda joriy qilingan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali qanchadan-qancha aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qiluvchi 267 dan ortiq interaktiv davlat xizmatlari elektron shaklda ko‘rsatila boshlandi. Ushbu xizmatlar ahamiyatini o‘tgan davr mobaynida foydalanuvchilar tomonidan portalga 564 ming murojaat qilinganidan ham ko‘rshimiz mumkin.

Ta’lim, bank-moliya, bojxona, soliq va sud-xuquq tizimlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi bugungi kunda yuqori samara bermoqda.

Elektron xukumat ishtirokchilarining munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik, davlat xizmatlarini sifatlari ko‘rsatilishiga xizmat qiluvchi markazlashgan ma’lumot bazalarini to‘liq shakllantirish, davlat organlarining o‘z ishida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yetarli darajada joriy qilish, aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda "bir darcha" tamoyilidan to‘liq foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish uchun "Elektron xukumat to‘g‘risida"gi O‘zbekistan Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunning asosiy maqsadi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlash, ularga keng qulayliklar yaratish, ularning vaqtlarini tejash, bexuda ovoragarchiliklar va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish, davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Qonun elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, shu jumladan, idoralararo elektron

xamkorlik doirasida davlat organlarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Qonun 5 ta bob va 34 ta moddadan iborat. Qonunda uning maqsadi va vazifalari, asosiy tushunchalari, elektron xukumatning asosiy prinsiplari, uning ishini tashkillashtirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishga qo‘yiladigan talablarga oid normalar belgilangan. Shuningdek, Qonunda elektron xukumat infratuzilmasi, bu sohadagi davlat boshqaruvi, davlat organlarining elektron xukumat doirasidagi o‘zaro xamkorligiga oid munosabatlar tartibga solingan.

Elektron xukumat, davlat xizmati, idoralararo elektron xamkorlik qilish, elektron davlat xizmati, elektron davlat xizmatining reglamenti, elektron xukumatning yagona identifikatorlari kabi tushunchalar qonunchilikka ilk bor kiritilmoqda va ularga tegishli ta’rif berilmoqda.

Qonunda elektron xukumat tizimining asosiy prinsiplari mustaxkamlangan. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, "bir darchal prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish, axborot xavfsizligini ta’minalash kabi prinsiplar shular jumlasidandir.

Qonunda elektron xukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solish normalari belgilangan. Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasiga elektron xukumat soxasidagi yagona davlat sièsati amalga oshirilishini ta’minalash, ushbu soxadagi davlat dasturlarini tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish vazifalari yuklangan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi elektron xukumat soxasidagi vakolatli organ sifatida elektron xukumat prinsiplariga muvofiq elektron xukumat soxasidagi yagona davlat sièsatini amalga oshiradi. Davlat organlarining elektron Xukumat soxasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Davlat organlari esa elektron xukumat soxasida yagona davlat sièsatini amalga oshirishda ishtirok etadilar, axborot resurslari va tizimlarini, shuningdek, elektron davlat xizmatlarini joriy qilish, rivojlantirish va integratsiyalashuvini ta’minalaydi.

Qonunga muvofiq foydalanuvchilar davlat organlari faoliyati to‘g‘risida axborot olishlari eki ularga interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatilishi mumkin. Qonunda ushbu elektron davlat xizmatlari turlariga talablar, ulardan foydalanish uchun so‘rovlар yuborish tartibi, foydalanuvchilarning xuquqlari belgilab berilgan.

Qonunda belgilanganidek, axborot davlat xizmati aholining axborotga bo‘lgan extièjlarini qanoatlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda davlat organlari o‘z faoliyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib boradi.

Interaktiv davlat xizmatining joriy qilinishi esa, aholi va davlat organlari o‘rtasidagi ikki tomonlama xamkorlik sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Qonunda elektron davlat xizmatlarining sifatini baxolash tartibi hamda baholash natijalarini xisobga olgan holda davlat organlarining elektron davlat xizmatlarining sifatini oshirish choralarini ko‘rish uchun majburligi belgilangan. Bu esa davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirish prinsipiga mos keladi

Qonunning ko‘chga kirishi orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

Birinchidan, mamlakatimizda "Elektron xukumat" tizimini joriy etish va rivojlantirishning qonuniy asoslari yaratilib, ushbu tizimni shakllantirish, to'laqonli ishlashini ta'minlash va tizimli rivojlantirishga zamin yaratiladi;

Ikkinchidan, mamlakatimizda demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan demokratik bozor isloxoatlarini yanada chuqurlashtirish ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan taqiqlash, tadbirkorlik faoliyatini erkinligini kafolatlash kabi vazifalar ijrosi ta'minlanishiga asos bo'ladi;

Uchinchidan, davlat xokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, jumladan boshqaruv va ma'muriy ish unumдорligi oshib, ularning jamiyat oldidagi xisobdorligi, ochiqligi ta'minlanadi. Pirovardida xalqning davlat organlariga ishonchi yanada ortadi.

To'rtinchidan, aholi va tadbirkorlik sub'ektlari uchun davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish qulayliklari oshadi. Binobarin, davlat organlari faoliyatiga innovatsiya g'oyalari izchil joriy qilinadi, biznes soxasi, xujjat aylanish mexanizmlari takomillashtiriladi, fuqarolarga uyi èki ish xonasidan turib elektron shaklda murojaat qilish, ma'lumotnomma va boshqa xujjatlarni olish èki tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish imkoniyatini beradigan interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi.

"Elektron xukumat to'g'risida"gi Qonunning kuchga kirishi yuqorida sanab o'tilgan natijalar bilan birgalikda mamlakatimizda demokratik isloxoatlarni yanada chuqurlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash yo'li bilan chet el investorlarini jalb qilishga, xalq farovonligini, yurt ravnaqini yanada oshirishga, mamlakatimizda barqkapop iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi hamda xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslar orasida tezkor muloqat va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, taqdim etiladigan xizmatlardan keng qamrovli foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustidagi «*Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi 181–sonli Qarori asosida «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari haqidagi Nizom*» va «*Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri*» tasdiqlangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi «*Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*»gi 378–sonli Qarori bilan, elektron hukumatni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko'maklashish maqsadida, Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalni

(Yagona portal) tashkil etish va uning texnik va texnologik asoslari bayon qilingan Nizom qabul qilindi.

## **6-mavzu. ELEKTRON HUKUMATNI TASNIFFLASHDA ASOSIY YONDOSHUVLAR**

**Reja:**

1. Davlat xizmatining asosiy prinsiplari.
2. Elektron hukumat tushunchsini ta'riflashdagi turli yondashuvlar
- 3. Maqsad va vazifalar**
- 4.

### **Davlat xizmatining asosiy prinsiplari**

Davlat xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini uning prinsiplarida ko'rishimiz mumkin. Har qanday davlat faoliyati singari davlat xizmati ham ma'lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Prinsiplarga bo'ysunishlik xosdir. Prinsiplar ob'ektiv qonuniylikni aniqlash va undan aql-idrok bilan foydalanish shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Prinsiplarga so'zsiz rioya qilish lozim. Agar prinsiplar buzilsa, u bevosita amaliy vazifalarni hal etishga to'sqinlik qiladi.

Davlat xizmati prinsiplari turli-tuman bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Prinsiplarning ba'zilariga rioya qilish boshqalarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi va aksincha, ma'lum bir prinsipga rioya etmaslik boshqalarining buzilishiga olib keladi.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda davlat xizmati prinsiplari shartli ravishda uch guruhga bo'linadi:

**1)** davlat xizmatining konstitutsiyaviy-huquqiy prinsiplari. Mazkur guruhga davlatning asosiy qonun hujjatida mustahkamlangan hamda davlat xizmatining maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari va ob'ektiv qonuniyatlarini ifodalaydigan qoidalar kiritilgan. Konstitutsiyaviy-huquqiy prinsiplar quyidagilardir:

- a)** davlat xizmati sohasida qonunlarning ustunligi prinsipi;
- b)** inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklarining ustunligi prinsipi;
- v)** davlat xizmatiga kirishda fuqarolarga teng imkoniyatlarning yaratib berilishi prinsipi;

2) davlat xizmatining tashkiliy-funksional prinsiplari. Mazkur guruh prinsiplari amaldagi qonunlar va boshqa qonun hujjatlari asosida o'rnatilib, konstitutsiyaviy-huquqiy prinsiplarni amalda ro'yobga chiqarishga bevosita xizmat qiladi. Tashkiliy-funksional prinsiplar davlat xizmatini tashkil etish, davlat xizmati sohasida funksional vazifalarni taqsimlash, davlat xizmatchilari ijtimoiy himoyasi, javobgarligi va boshqa muhim holatlarni belgilab beradi.

Tashkiliy-funksional prinsiplarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a)** davlat organlari va davlat xizmatchilari faoliyatining hisobdorlik va nazorat ostida bo'lish prinsipi;

**b)** yuqori turuvchi davlat organi (davlat xizmatchisi) tomonidan chiqarilgan qarorlarning quyi turuvchi davlat organi (davlat xizmatchisi) uchun majburiyligi prinsipi;

v) davlat xizmatchilariga qo‘yiladigan umumiy talablarning yagonaligi prinsipi;

g) davlat xizmatida oshkorlik prinsipi;

d) qabul qilingan qarorlar va funksional vazifalarni bajarish yuzasidan davlat xizmatchilarining javobgarligi prinsipi;

ye) davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyalanganligi pritsipi va h.k.lar.

3) sohaviylik yoki aniq institutsional prinsipler. Mazkur guruh prinsipleri barcha davlat xizmatchilariga emas, balki ayrim soha xizmatchilariga taalluqli bo‘lishi yoki ma’lum bir davrga qaratilgan bo‘lishi yoxud ma’lum bir holat va vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, attestatsiya jarayonida davlat xizmatchilari faoliyatini xolisona baholash prinsipi va h.k.lar. Sohaviylik yoki aniq institutsional prinsipler qonunosti hujjatlarida o‘z ifodasini topadi va aniq sub’ektlar doirasiga qaratiladi.

Qonuniylik – davlat mexanizmining barcha bo‘g‘inlari (davlat organlari, davlat tashkilotlari, davlat xizmatchilari), fuqarolik jamiyati (jamoat, diniy va boshqa birlashmalar), shuningdek, fuqarolar uchun majburiydir.

Qonuniylik – bu yuqori sifatli huquqiy normalarning yetarlicha mavjud bo‘lishi va barcha huquq sub’ektlari tomonidan unga qat’iy rioya etishidir.

Konstitutsiya va qonunlarning pirovard maqsadi inson, uning huquq va erkinliklarini ta’minalashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Zotan ulug‘ bobokalonimiz Amir Temur ta’kidlaganidek, “Qaerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo‘ladi”.

Qonuniylik aholi madaniy darajasi bilan, davlat organlari, jamoat birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Insonlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati qancha yuqori bo‘lsa, qonuniylik va huquq tartibot ta’milanadi, qonun buzilishi shunchalik kam bo‘ladi.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 29 avgustda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”<sup>15</sup> to‘g‘risidagi qarori ham qabul qilindi. Milliy dasturning asosiy vazifasi sifatida – huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirib, keng xalq o‘rtasida huquqiy tarbiyani mustahkamlab, aholi madaniy darajasini ko‘tarish vazifasi belgilab qo‘yildi;

2) qonuniylikning yagonaligi prinsipi. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlar bir xilda qo‘llanilishini, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan esa, har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Demak,

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1997, №9.

fugorolarning siyosiy faolligi davlat organlariga, ularning mansabdor shaxslariga murojaat qilishi orqali ham amalga oshiriladi;

**5)** davlat xizmatining demokratik jarayonlar bilan bog‘langanligi prinsipi. Davlat xizmati demokratiya bilan uzviy bog‘liqdir. Xalq davlat hokimiyatini o‘zi ishonch bildirib saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hokimiyat organlari orqali amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

**8)** javobgarlik prinsipi. Qonunchilikda davlat organlarining, uning mansabdor shaxslarining va fugorolarning qonun talablariga rioya etilishini ta‘minlash maqsadida, majburlov choralar ham o‘rnatalidi. Bu nafaqat davlatning, balki jamiyatning ham, alohida shaxslarning ham huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Ushbu prinsip davlat organlari, ularning mansabdor shaxslarining berilgan vakolat doirasida javobgarlikka tortilishi mumkinligini nazarda tutadi;

**9)** kollegiallik prinsipi. Amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, davlat organlarida yakka tartibda amalga oshiriladigan boshqaruv bilan bir vaqtda, kollegial boshqaruv ham mavjuddir. Davlat organlarining deyarli barchasida turli ko‘rinishdagi kengash va hay’atlar tashkil etilgan. Kengash va hay’atlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv kollegial boshqaruv hisoblanadi.

### **Elektron hukumat ta’riflari**

Dunyoning ko‘plab mamlakatlari hukumatlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan intensiv foydalanish. Ingliz tilidagi elektron hukumat so‘zida ushbu faoliyatning sub'ekti bo‘lgan davlatga emas, balki davlat hokimiyati organlari faoliyatining shakllari va usullariga ko‘proq murojaat qilinadi.

“Elektron hukumat” – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llash hisobiga tashkilotlar va fugorolar tomonidan davlat xizmatlari hamda davlat organlarining faoliyati natijalari to‘g‘risida axborot olish tezkorligi va qulayligining sifat jihatdan yangi darajasini ta‘minlovchi davlat loyihasi.

“Elektron hukumat” tizimi doirasida o‘zaro munosobatning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat organlarining aholi bilan o‘zaro axborot munosoboti;
- davlat organlarining tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro axborot munisabati;
- davlat organlarining o‘zaro axborot munosabati.

“Elektron hukumat” tizimini shakllantirish samaradorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish va ulardan foydalanish huquqini ta‘minlash tartibiga muvofiq elektron ko‘rinishdagi ustuvor davlat xizmatlarini joriy etish hisoblanadi.

“Elektron hukumat” tizimi orqali amalga oshiriladigan interaktiv davlat xizmatlari, yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlarga muvofiq guruhlangan bo‘lishi lozim.

Axborot texnologiyalari bo‘yicha davlat dasturlarini o‘rganish.

## Elektron hukumat ta'riflari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti	Elektron hukumat fuqarolarga davlat organlari tomonidan Axborot va xizmatlarini etkazib berish uchun Internetdan foydalanish deb ta'riflangan.
Jahon banki	<p>Elektron hukumat davlat organlari axborot texnologiyalaridan foydalanib fuqarolar, tadbirkorlik sub'ektlari va boshqa davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashni nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalar turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkin:</p> <p>fuqarolarga davlat xizmatlarini yaxshiroq yetkazib berish, biznes va ishlab chiqarish bilan o'zaro muloqotni takomillashtirish, kerakli ma'lumotlarni olish orqali fuqaro huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, eki yanada samarali davlat boshqaruvini amalga oshirish.</p>
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqièt tashkiloti	<p>Elektron hukumat termini xukumat tomonidan AKTdan foydalanib, bir qator amaliy funksiyalarini to'laqonli bajarishi nazarda tutadi.</p> <p>Xususan, Internet va tegishli texnologiyalar tomonidan Taklif etilgan tarmoq salohiyati tuzilmalari va Hukumatning ishlash jaraènini transformatsiyasi tushuniladi.</p>

**«Elektron hukumat» tushunchasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsifi<sup>4</sup>:**

*Elektron hukumat – axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z ichki va tashqi islohotlarini amalga oshirishda foydalanadigan hukumatdir.*

**Elektron hukumat tushunchasiga Yevropa Ittifoqining tavsifi<sup>5</sup>:**

*Elektron hukumat bu – axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi organlarida qo'llash bo'lib, tashkiliy o'zgarishlar hamda yangicha malakalarning joriy etilishi bilan uyg'un holda, davlat xizmatlarini va demokratik jarayonlarni takomillashtirish hamda, davlat siyosati institutlarini qo'llab quvvatlashga aytildi.*

### **Elektron hukumat tushunchasiga Jahon Bankining tavsifi<sup>1</sup>:**

«Elektron hukumat» atamasi - fuqarolar, biznes va hukumatning turli tarmoqlari bilan munosabatlarni isloh qilishga qodir axborot texnologiyalarining Davlat organlari tomonidan, qo'llanishiga aytildi. Bu texnologiyalar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning takomillashtirilishi; ishlab chiqarish va biznes bilan o'zaro munosabatlarning yaxshilanishi va yanada samarali davlat boshqaruvi. Natijada, korrupsiyaning qisqarishi, shaffoflikning ortishi, foydalanuvchilarga keng qulayliklar, daromadlarning ortishi va / yoki xarajatlarning kamayishi kabi afzalliklarning amalga oshishi mumkin.

Ko'rinish, turibdiki, «Elektron hukumat» tushunchasiga nisbatan nufuzli xalqaro tashkilotlarning yondoshuvida, ham umumiylik jihatlari, ham farqlar mavjud. Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining ko'pchiligidagi «Elektron hukumat» tushunchasi jamoatchilik orasida munozaralarga sabab bo'layotganini ta'kidlash joiz. Xususan, «Elektron hukumat» so'zining ingliz tilidagi muqobili – «Electronic government» so'zi, ko'pchilik o'ylagani singari, hukumat, ya'ni, davlat boshqaruvining, ijro etuvchi markaziy hokimiyati tushunchasinigina taalluqli emas, balki kengroq ma'noda bo'lib, ya'ni, u – davlat boshqaruvi organlarining o'z funksiyalarini amalga oshirishda elektron axborot kommunikatsiya vositalari potensialidan keng foydalanishini nazarda tutadi. Shu tufayli, mutaxassislar orasida **«elektron hukumat»** dan ko'ra, **«elektron boshqaruv»** tushunchasini kiritish haqida g'oyalar ham mavjud.

#### **Maqsad va vazifalar**

Ilm-fan va texnikaning barcha yo'nalishi kabi axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi ham tinimsiz rivojlanishda ekanligini nazarda tutsak, elektron hukumat tizimi ham mazkur sohaning keyingi yangi yutuqlarini o'zida joriy etish orqali yanada takomillashib, mukammallahib borishi tabiiy. Shunga ko'ra kelajakda, elektron hukumat bizning maqolamizda nazardan chetda qolgan yoki, tasavvurimizga sig'magan yangicha qulayliklar va foydali xususiyatlarga ega bo'lsa ajab emas. Umuman olganda esa, xorijiy davlatlarning ayrimlarida, zamonaviy elektron hukumat rivojlanishi tendensiyalari, vaqt kelib, hattoki saylovlar tizimini ham interaktiv, on-layn ko'rinishga kelishini bashorat qilishmoqda. Balki bu tasavvur haqiqatdan yiroqdir, lekin, elektron hukumatni joriy qilish va uni takomillashtirish borasida, o'sha xorijiy davlatlarning ayrimlaridagi ilg'or tajribalarni, va uning rivojlanish bosqichlari bilan tanishib chiqsak foydadan holi bo'lmaydi.

So'nggi paytlarda dunyoning ko'plab mamlakatlari hukumatlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jadal foydalanilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi o'z ishimizning samaradorligi va sifatini oshirishdir. Ushbu dasturlar va jarayonlar elektron hukumat sifatida ma'lum bo'ldi. Zamonaviy dunyoda ushbu atama keng qo'llaniladi va davlat boshqaruvida AKT sohasini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Biroq, Rossiya elektron hukumat uchun yagona talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjalarni hali qabul qilmagan. Dunyoning qolgan qismida elektron davlat tushunchasining umume'tirof etilgan

ta'rifi mavjud emas. Davlat boshqaruvi va axborot texnologiyalari sohasidagi turli mutaxassislar, shuningdek, turli mamlakatlar qonunlari ushbu kontseptsianing turli xil ta'riflaridan foydalanadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, "elektron hukumat" atamasi o'zbek tilida inglizcha electronic government yoki e-government so'zining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi natijasida paydo bo'lgan. Ingliz tilida "electronic government" nafaqat hukumatning markaziy ijro etuvchi hokimiyati, balki umuman davlatga ham tegishlidir va elektron hukumat bu faoliyat sub'ekti sifatida hukumatga emas, balki davlat hokimiyati organlari faoliyatining shakllari va usullariga ko'proq murojaat qiladi. Bu tom ma'noda "elektron boshqaruv" yoki "elektron davlat boshqaruv" [8]<sup>16</sup>.

E'tibor bering, amalda "elektron hukumat" va "elektron davlat" atamalari ko'pincha sinonim sifatida ishlataladi.

Hozirgi vaqtida axborot jamiyatini qurish turli shaxslarning irodasiga bog'liq emas. Davlat organlari o'zlarining byurokratikligi, sustligi, samarasizligi va ba'zi bir harakatsizliklari sababli axborotlashtirish sohasida biznesdan orqada qolishlari mumkin, ammo ertami-kechmi ular ba'zi shaxslarning xohish-istiklaridan qat'i nazar, eng so'nggi texnologik echimlardan foydalanishlariga to'g'ri keladi.

Elektron hukumatni aniqlash variantlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Ilmiy hamjamiyatda elektron hukumat atamasi davlat boshqaruv vazifalarini hal qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishning muhimligini anglashga javob sifatida paydo bo'ldi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu atama paydo bo'lganidan beri, olimlar uning ta'rifini turli yo'llar bilan topdilar va turli xil printsiplardan foydalanadilar. Ba'zi bir mualliflarda biz elektron hukumatni joriy etishda jamiyatda va uning alohida tuzilmalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlovchi tavsifyi ta'riflarni topamiz. Boshqalar elektron hukumatning tabiatini va uning individual vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar. Texnik xarakterga ega bo'lган va faqat qo'llaniladigan texnologik echimlar va muayyan dasturiy mahsulotlarga qaratilgan ta'riflar mavjud. Yuqoridagilardan tashqari, sifat menejmenti kontseptsiyasiga va davlat boshqaruvining maksimal samaradorligiga qaratilgan iqtisodiy ta'riflar mavjud. Ushbu yondashuvlarning barchasi elektron hukumat faoliyatining ayrim jihatlarini aks ettiradi.

"Elektron hukumat" atamasi umum e'tirof etilgan va xalqaro munosabatlarda va milliy hukumatlar tomonidan keng qo'llaniladi. 1997 yilda "Raqamli Hukumat" tushunchasi AQShda Milliy Ilmiy Jamg'arma tomonidan joriy qilindi. Keyinchalik "elektron hukumat" (Elektron hukumat) tushunchasi keng ilmiy doiraga kirdi.

Elektron hukumat - bu boshqaruvning samaradorligini oshirish va takomillashtirish maqsadida, davlatning turli darajalarida, shuningdek biznes va jamoat hayotida axborot va AKTdan foydalanish. R.O ta'kidlaganidek. Cohan va D.S. Nae, elektron hukumat nafaqat turli xil xo'jalik subyektlarini, balki xususiy sektorni birlashtiradi. Xususiy firmalar, ularning birlashmalari, nodavlat tashkilotlari va ularning birlashmalari yagona tizimni yaratib, hukumat bilan o'zaro

<sup>16</sup> Григорьев П. В. Основные подходы к понятию «электронного правительства» [Электронный ресурс] / П. В. Григорьев // eGOV 2.0. – Режим доступа: <http://open-gov.ru/2010/09/19/poghad-egov>.

hamkorlik qiladilar.

Jahon banki materiallarida elektron hukumat davlat organlari tomonidan fuqarolar, korxonalar va boshqalar bilan munosabatlarni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan axborot texnologiyalaridan (masalan, tarmoqlar, shu jumladan global, mobil aloqa moslamalari va kompyuterlar va boshqalar) foydalanish jarayoni sifatida izohlanadi. hukumatning boshqa tarmoqlari. Ushbu texnologiyalar turli maqsadlarga xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini oshirish; axborot olishning yangi imkoniyatlari orqali biznes, sanoat va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirish; umuman davlat boshqaruvining samaraliroq natijasi sifatida quyidagi umumiyl iqtisodiy foyda olish mumkin: korruptsiyani kamaytirish, davlat tomonidan tartibga solishning shaffofligini oshirish, xususiy va davlat sektorlari o'rtaсидаги axborot to'siqlarini kamaytirish, daromadlarni ko'paytirish va / yoki xarajatlarni kamaytirish.

YuNESKOning xalqaro tashkiloti "elektron kuch (etakchilik)" tushunchasidan foydalanadi. YUNESKO metodologiyasiga ko'ra, elektron hukumat - bu jamiyatda axborot almashish jarayonini takomillashtirish va taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, qarorlarni qabul qilishda fuqarolarning ishtirokini rag'batlantrish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi va oshkoralligini ta'minlash maqsadida AKTdan foydalanish. Elektron hokimiyat yangi etakchilik uslubini, muammolarni muhokama qilish va siyosiy va investitsiyaviy qarorlarni qabul qilishning yangi usullarini, ta'limga kirishning yangi usullarini, fuqarolar fikrini o'rganishning yangi usullarini, shuningdek, davlat xizmatlarini tashkil qilish va taqdim etishning yangi texnologiyalarini anglatadi [14].

Endi, AQSh qonunchiligidagi elektron hukumat "fuqarolarning, boshqa davlat tashkilotlarining davlat ma'lumotlari va xizmatlariga kirish va tarqatishni yaxshilash maqsadida Internet texnologiyalaridan va ushbu texnologiyalardan foydalanadigan jarayonlar bilan integratsiyalashgan boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha hokimiyat organlari faoliyati" deb belgilangan. Hokimiyat organlari faoliyatining yaxshilanishi, xususan, xizmatlarning samaradorligi, xizmatlarning sifati va o'zgartirilishi".

Evropa hamjamiyati komissiyasi elektron hukumatni boshqacha tarzda belgilaydi: "davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish, xizmatlar va demokratik jarayonlarni takomillashtirish va davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun tashkiliy o'zgarishlar va yangi ko'nikmalar bilan birgalikda".

Rossiyada, birinchi marta, "elektron hukumat" tushunchasi hukumat idorasining axborot xizmati tomonidan 2000 yilda bo'lib o'tgan konferentsiyada muhokama qilindi. Internetda davlat sifatida elektron hukumat ta'rifi, ya'ni. Davlat organlarining turli xil portallarining majburiy mavjudligi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, elektron hukumat fuqarolarga, korxonalarga, davlatning boshqa tarmoqlariga va davlat organlarining mansabdor shaxslariga axborot va o'rnatilgan davlat xizmatlarini taqdim etish usuli bo'lib, bunda davlat va ariza beruvchining shaxsiy o'zaro munosabatlari minimallashtiriladi va axborot texnologiyalaridan iloji boricha ko'proq foydalaniladi.

Shunday qilib, 1998–2012 yillarda o'tkazilgan "Internet va zamonaviy

"jamiyat" konferentsiyalaridagi mahalliy nashrlarning tahliliga ko'ra, etuklik va kenglik darjasini bo'yicha turli xil elektron hukumat kontseptsiyasini tavsiflash mumkin.

yondashuv, aniqrog'i:

- Internet texnologiyalaridan foydalanuvchi tashkilotlar va aholiga xizmatlarni taqdim etish;
- davlat organlarining veb-saytlarini yaratish va ular orqali aholi va tashkilotlar bilan o'zaro aloqa qilish;
- davlat faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan davlat organlarining bir-biri bilan, tashkilotlar va fuqarolar bilan o'zaro aloqalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish (ba'zi hollarda bu ta'rif faqat ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatiga taalluqlidir; boshqa hollarda barcha hokimiyat tarmoqlari, shuningdek davlat sektori faoliyati qamrab olinadi). davlat boshqaruvining muayyan vazifalarini hal qiladigan iqtisodiyotlar va hatto nodavlat tashkilotlari - masalan, shartnomalar, funktsiyalar, autsorsing, va boshqalar) Pass;
- AKT ushbu o'zgarishlarning asosiy katalizatori bo'lgan davlat boshqaruvini o'zgartirish. Yangi texnologiyalar biznes faoliyatining mohiyatini, odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartira boshladi. Bunday sharoitda, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilmaslik va uning xavfsizligiga tahdid solmaslik uchun, davlat ham o'zgarishi kerak.

Deyarli o'n besh yil ichida qilingan hisobotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, vaqt o'tishi bilan va "elektron hukumat" tushunchalarini hayotga tatbiq etish bilan ushbu kontseptsiya doimo rivojlanib va chuqurlashib bordi. U "shunchaki Internet saytlari" dan butun davlat boshqaruv tizimini global o'zgartirish kontseptsiyasiga o'tdi.

Jahon amaliyotida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatining maqsadli holatini belgilash uchun nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, balki nafaqat ijro etuvchi hokimiyatlarga murojaat qilinadigan "elektron davlat" tushunchasi qo'llaniladi. Shunday qilib, "elektron hukumat" tushunchasi "elektron hukumat" degan ma'noni anglatadi va davlatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlarida AKTdan foydalanishni tavsiflaydi.

## **7-mavzu. O'ZBEKISTONDA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRILISHI**

**Reja:**

1. Interaktiv davlat xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari
2. Elektron hukumat o'zaro munosabat shakllari
- 3. Elektron hukumat o'zaro munosabat shakllari**

Jamiyat rivojlanishining yangi, axborotli bosqichga o'tishi ijtimoiy hayotning turli sohalarida turli ko'rinishdagi o'zgartirishlar kiritish zaruriyatini

keltirib chiqaradi. Innovatsion rivojlanish, kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi natijasida hozirgi kunda yangi shakldagi davlat boshqaruvi, faol takomillashtirib borilayotgan «elektron hukumat» konsepsiysi hayotga keng tadbiq etib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunida “Elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir<sup>17</sup>” deb ta’rif beriladi.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda davlat hokimiysi va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jismoniy va yuridik shahslaring huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish respublikamizda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi<sup>18</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunida “Elektron hukumat” – davlat organlari faoliyatini tashkil etishning yangi innovatsion shakli bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish hisobiga tezkorlikning sifat jihatdan yangi darajasini va tashkilot, fuqarolar tomonidan davlat xizmatlaridan foydalanishda qulaylikni, shuningdek, davlat organlari faoliyati natijalari to‘g‘risidagi axborotni olishni ta’minlaydi” deb tavsif beriladi.

Iqtisodiyot va jamiyatimiz hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati e’tiborga olingan holda 2013-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilinib, 2013 yildan interaktiv davlat xizmatlari yagona portalı ishga tushirildi. Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo‘mitasi qoshida Elektron hukumatni rivojlantirish hamda Axborot xavfsizligini ta’minlash markazlari tashkil etildi.

Ushbu chora-tadbirlarning amaliyotga izchil joriy etib borilishi, jamiyatni axborot-kommunikatsiya mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talab hamda ehtiyojlarini to‘la ta’minlash, jamiyatning barcha a’zolarini uning imkoniyatlaridan keng foydalanishiga zamin yaratishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, dastur doirasida 2013-2020 yillarda axborot-kommunikatsiya tenxnologiyalari, tarmoq va butunlay infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dastur telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish bo‘yicha umumiyligi qiymati 2,1 trillion so‘m bo‘lgan 17 ta loyiha, shuningdek, “elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini tashkil etishga doir 28 ta tadbir va


<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Электрон хукумат тўғрисида” ги Қонуни

<sup>18</sup> 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси: биринчи йўналиш - Давлат ва жамият курилиши тизимини такомillashtiriшнинг устувор йўналишлари

loyihani amalga oshirish jarayoni rejalahtirilgan. Buning natijasida yaqin istiqbolda davlat va jamiyatning samarali axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga bo‘lgan ehtiyojni ta’minlanishiga zamin yaratiladi.

O‘z navbatida, bu sohani mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi bosh mezonlardan biriga aylantirish yo‘lida salmoqli modernizatsiyalash ishlari ro‘yogda chiqarildi.

O‘tgan qisqa davr ichida mazkur yo‘nalishda bosqichma-bosqich ijroi yoki hokimiyatning axborotlashtirishga mas’ul bo‘lgan yangi vertikal organlari, mos muvofiqlashtiruvchi organlari tashkil etilib, axborotlashtirishning muassasalararo darajada loyiha hamda dasturlarini muvofiqlashtirish tizimi asoslari shakllantirildi. Elektron hukumat tizimida ichki va tashqi aloqa hamda jarayonlar tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida ta’minlanadi va quvvatlab turiladi. Shuning bilan birga, «elektron hukumat» tizimini yaratilishi davlat hokimiyati turli organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yishga imkon beruvchi davlat boshqaruvidagi organ va muassasalarida ichki axborot tarmog‘i, ma’lumotlar bazasi hamda elektron hujjat aylanish tizimini yaratishdangina iborat bo‘lib qolmasdan, aholini axborot tarmoqlari orqali davlat muassasalari va jamoatchilik sektorlari xizmatlariga kirish imkoniyati taqdim etilishini ham



1-rasm. Xalqaro axborot tarmoqlari(Internet)ga ulanish tezligi (Gbit/s)<sup>19</sup>

Mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar soni yil sayin ko‘payib bormoqda. Hozirda 15 million 500 mingdan ortiq fuqaro, ya’ni yurtimiz aholisining teng yarim qismi global tarmoq imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Internet xizmatlarini ko‘rsatish sifati kundan-kun ortib bormoqda. Agarda 2016 yil boshida 626 ta litsenziyaga ega internet-provayder xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2017 yil yanvar holatiga ularni soni 28taga oshib 654 tani tashkil etgan (2-rasm).


Oxirgi 20 yilda respublikamizning ko‘plab hududlarida video-telefoniya, yuqori tezlikdagi Internet, HDTV-kanal va boshqalar bo‘yicha konvergent xizmatlar taqdim etish bilan birga zamonaviy texnologiyalarga keng polosali kirish uchun 2000 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa kabeli tortildi.

<sup>19</sup> Диаграммаларни ишлаб чиқишида Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги ахборот хизматининг маълумотларидан фойдаланилди



2-rasm. Xalqaro axborot tarmoqlariga (Internet) kirish xizmatlarini ko'rsatuvchi operator va provayderlar soni (dona)


Internet tarmog'i milliy segmentini yuqori tezlikda rivojlanganligini alohida ta'kidlash joizdir. O'zbekistonda 10 million 200 mingdan ortiq veb-foydalanuvchi mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi kommunikatsiya va axborot texnologiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra WWW.UZ zonasida 2017 yilning yanvar oyi holati veb-saytlar soni 11,3 mingtani tashkil etdi, ya'ni, 2016 yilning yanvar oyiga nisbatan 300dan ziyod yangi veb-saytlar ishga tushirildi (3-rasm).



3-rasm. WWW.UZ da ro'yxatdan o'tgan saytlarning o'sish ko'rsatkichi (ming)


.UZ domen zonasida ayni kunda 30,8 ming domen ro'yxatdan o'tib, o'sish o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 76,32 foizni tashkil etgan (4-rasm), albatta, bu raqamlar hukumat tomonidan olib borilgan sa'yi-harakatlar va ko'rilmagan chora-

tadbirlar samarasida natijasida internet tarmog‘idagi milliy hududning jadal rivojlanayotganligini ko‘rsatib beradi.




4-rasm. WWW.UZ da ro‘yxatdan o’tgan domenlarning o’sish ko’rsatkichi (ming)

Iqtisodiyot tarmoqlari va mahalliy sanoatni rivojlanishida boshqaruv hamda ishlab chiqarish jarayonlarida AKT va dasturiy mahsulotlardan foydalanish katta o‘rin tutadi. Bu yo‘nalishda yirik aksiyadorlik kompaniyalari, assotsiatsiya va birlashmalarda maxsus davlat dasturlari doirasida umumiy qiymati 330 milliard bo‘lgan 86 ta loyiha amalga oshirildi. Bugungi kunda davlat organlari veb-saytlari hamda elektron resurslari orqali 685 turdag‘ interaktiv xizmatlar ko‘rsatilmoqda. Aholi va tadbirdorlik sub’ektlariga elektron xizmatlar taqdim etishning muhim omili hisoblangan davlat axborot resurslari soni 295 ta, davlat organlari axborot tizimlari soni 499 taga yetdi (5-6-rasm).




5-rasm. Davlat axborot resurslarini yillar kesimida o‘zgarishi (dona)  
 2015 yil 20 martda internet tarmog‘ida ochiq ma’lumotlarni yuklab olish  
 uchun yagona nuqta vazifasini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat  
 ochiq ma’lumotlari portali ishga tushirildi.



6-rasm. Davlat axborot tizimlarini rivojlanib borish ko‘rsatkichlari (dona)  
 Axborotlashtirish va AKTni joriy etishda boshqaruv jarayonlari  
 avtomatlashtirish darajasi uzlucksiz rivojlantirilmoqda. Axborotlashtirish jarayoni  
 monitoringini olib borish maqsadida nis.uz tizimi ishga tushirilib, tizimda 45  
 davlat organi ro‘yxatdan o‘tgan.

Mamlakatda milliy dasturiy mahsulotlar bozorini rivojlantirish jarayonida  
 mahalliy dasturchilarni rag‘batlantirish maqsadida dasturiy ta’milot ishlab  
 chiquvchilarning milliy reestri yaratilib, fuqaro va biznesga zaruriy ma’lumotlarni  
 taqdim etuvchi Software.uz – dasturiy mahsulot ishlab chiquvchilar katalogi ishlab  
 chiqildi. 2017 yil yanvar holatiga ko‘ra dasturiy mahsulot ishlab chiquvchi 360  
 kompaniya o‘z mahsulotlarini taklif etib kelmoqda (7-rasm).



7-rasm. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish sohasida faoliyat olib  
 borayotgan xo‘jalik sub’ektlari sonidagi o‘zgarishlar (dona)

Respublikamizda “Elektron hukumat” tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun uzlusiz ishlar olib borilmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz) va Internet tarmog‘ida my.gov.uz manzilida joylashtirilgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yo‘lga qo‘yilgandan buyon bu tizimlar ustuvor yo‘nalishlar qatorida uzlusiz rivojlantirish bilan birga takomillashtirib borilmoqda va bu jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Xusan, elektron hukumatni rivojlantirish va elektron ishtiroki reytingida O‘zbekiston 2016 yilda 2014 yilga nisbatan mos ravishda 20 pog‘ona ilgarilab, 193 Davlat ichida 80- o‘rinni egalladi va Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index, EPART)dagi o‘rnini 24 punktga yaxshilab 71- o‘rindan 47- o‘ringa qadar ko‘tarildi (1-jadval).

### **1-jadval ye-hukumat va ye-ishtirokni rivojlantirish MDH davlatlari reyting ko‘rsatkichlari**

<b>Davlat</b>	<b>e-hukumat bo‘yicha reyting- 2014</b>	<b>e-hukumat bo‘yicha reyting- 2016</b>	<b>e-hukumat bo‘yicha o‘zgarish</b>	<b>Davlat</b>	<b>e-ishtirok bo‘yicha reyting- 2014</b>	<b>e-ishti- rok bo‘yicha reyting- 2016</b>	<b>e-ishti- rok bo‘yich a</b>
Qozog‘iston	28	33	-5	Rossiya	30	32	-2
Rossiya	27	35	-8	Ukraina	77	32	+45
Belarus	55	49	+6	Ozarbajon	77	47	+30
Ozarbajon	68	56	+12	<b>O‘zbekiston</b>	<b>71</b>	<b>47</b>	<b>+24</b>
Ukraina	87	62	+25	Moldova	40	50	-10
Moldova	66	65	+1	Qozog‘iston	22	67	-45
<b>O‘zbekiston</b>	<b>100</b>	<b>80</b>	<b>+20</b>	Qirg‘izston	81	67	+14
Armaniya	61	87	-26	Belarus	92	76	+16
Qirg‘izston	101	97	+4	Armaniya	59	84	-25
Tojikiston	129	139	-10	Tojikiston	158	149	+9
Turkmanis-ton	128	140	-12	Turkmanis-ton	158	179	-21

Ma’lumki, interaktiv davlat xizmatlari inson manfaatlarini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Zero, shu asosda odamlarning uzog‘i yaqin, mushkuli oson bo‘lmoqda, vaqtি, sarf-xarajati tejalayapti. Boshqacha aytganda, “Elektron hukumat” tizimi aholi va biznes sub’ektlarining masalalarini xal etishda katta qulaylik yaratmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) to‘g‘risidagi Nizomga asosan Yagona portalning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratligi ko‘rsatib berilgan:

- foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish;
- foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash; foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish;
- davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to‘sirlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish;


- «elektron hukumat»ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko‘maklashish<sup>20</sup>.

“Elektron hukumat” tizimining takomillashuvi davlat interaktiv xizmatlari sonini ortib borishida muhim omil hisoblanadi. YайдХРning funksiyalari dinamik ravishda kengayib bormoqda va hozirgi kunda 301 turdagи interaktiv xizmatlarni ko‘rsatadi. Xususan, Yagona portaldagi davlat idoralari rahbarlari qabuliga onlayn yozilish, sudlanganlik yoki sudlanmaganlik holati to‘g‘risida ma’lumot olish, mehnat staji to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotnomasini olish, murojaat yo’llash kabi xizmatlar ommalashuv xususiyatiga ega bo‘ldi.

2015 yil yanvar oyida portalda tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir etuvchi ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish va qabul qilingan normativ hujjatlarni baholash bo‘yicha yangi tizim ishga tushirildi. 2017 yil yanvar oyiga qadar bu tizimda 80 ta qonun hujjat loyihalari muhokama qilinib, ulardan 9 tasi internet foydalanuvchilari fikr-mulohazalari asosida, fuqarolar fikrini e’tiborga olgan holda takomillashtirildi. Ayni damda 20 dan ortiq qonun hujjatlari muhokamasi davom etmoqda.

Respublikadagi barcha ta’lim muassasalari 2005 yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan ZiyoNET tarmog‘iga ulangan. Portalning 2014 yilda yangilangan hozirgi kundagi kutubxonasida o‘quv qo’llanma, dissertatsiya ishlari, ilmiy maqola va shu kabilar bilan birga 130 mingdan ortiq birlikdagi axborot-ta’lim resurslari mavjud (8-rasm).

Shuningdek, 2012 yil 10 dekabrdagi “Xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ijrosi doirasida ZiyoNET portalida 4 mingdan ortiq qo’llanma, interaktiv darslik, o‘yin, video- va audiosyujet materiallariga ega “Horijiy tillar” bo‘limi yaratildi.




<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисида Низом

## 8-rasm. ZiyoNET portalı kutubxonasiidagi ta’lim axborot resurslarining o’sib borish tendensiyalari (ming)

Yangi tartib 2017 yilning 1- apreldidan amaliyotga kiritilib, endi yangi biznesni onlayn tartibda ro‘yxatdan o’tkazish imkoniyati yaratildi va ro‘yxatga olish uchun respublikamizda “yagona darcha” tamoyilida faoliyat yuritadigan 194 ta markaz tashkil etildi. Ro‘yxatga olish jarayonlarini soddallashtirilishi va tezlashtirilishi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirishning ustuvor yo‘nalisharidan biri bo‘lgan “milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minalash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirdorlik ulushini ko‘paytirish”<sup>21</sup> harakatlar strategiyasini amalga oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2005 yildan boshlab davlat bilan fuqarolar o‘zaro hamkorligini amalga oshirishni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadlarida elektron raqamli imzo (ERI) milliy infratuzilmasi yaratildi. Olib borilgan chora-tadbirlar natijasida ERI kalit va kalitlar sertifikati soni 01.01.2017 holatiga ko‘ra 1626,1 birlikni tashkil etdi (9-rasm) va bu tizim uzlucksiz takomillashtirilib borilmoqda.

Elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qog‘ozli tashuvchidagi hujjatda qo‘lda qo‘yilgan imzo bilan bir hil huquqga ega bo‘lib, elektron hujjatni imzolovchi shaxsni aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Elektron raqamli imzo elektron shakldagi fuqarolik ishlari bitimlarini amalga oshirishda, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, davlat funksiyalarini ijro etishda, turli yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladi.



<sup>21</sup> 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича харакатлар стратегияси - III. Иктисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари

## 9-rasm. ERI kalit va kalit sertifikatlarining yillar kesimidagi o'sish dinamikasi (dona)

Bugungi kunda barqaror taraqqiyotga erishishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini uzlusiz takomillashtirib borish jahon hamjamiyati tomonidan tan olingen jarayondir. Ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining ulushi 5,5 foizni tashkil etadi, 2020 yilga kelib bu ko'rsatkichni 9 foizdan ortiq bo'lishi kutilmoqda.

AKT taraqqiyoti har qanday mamlakatning nufuzi va raqobatdoshlik darajasini oshirib, boshqaruvni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining demokratik rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlar qatorida tengma-teng yurishida hamda fuqarolar dunyoqarashini o'zgartirishda muhim ahamiyat kasb etib, yangicha tafakkurga yo'l ochadi.

Xulosa o'rnida aytganda, respublikamiz iqtisodiyoti barcha tarmoqlarida va barcha hududida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, raqamli sanoatni rivojlantirish barobarida interaktiv xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish va sifatini oshirish asnosida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasining ustuvor maqsadlaridan biri bo'lib qolaveradi.

### **Elektron hukumat o'zaro munosabat shakllari**

—Elektron hukumat tizimi fuqarolar bilan hokimiyat, turli ijtimoiy xizmatlar, qo'mitalar, tashkilotlar, umuman olganda, istalgan darajadagi rahbar xodim bilan ochiq interfaol rejimda muloqot qila olish imkoniyatini yaratadi.

## **8-mavzu. ELEKTRON HUKUMAT RAQAMLI IQTISODIYOT ELEMENTI SIFATIDA**

**Reja:**

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvi.
2. Interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish jahon tajribasi

Dunyo taraqqiyotining hozirgi bosqichida jahon iqtisodiyotining rivojlanishi takomillashuvning raqamlashtirish bosqichga o'tib, "Uchinchi sanoat inqilobi", "Industriya 4.0" konsepsiya va boshqa shu kabi ishlanmalar davlat, shuningdek, korporativ darajada ham katta tezlik bilan davlat dasturlari va biznes strategiyalarga kiritilmoqda. Buning natijasida nazariy ishlanmalar va ularni amaliy qamrab olinishi o'rtaсидаги farq ham shunday tezlikda kamayib bormoqda.

Tarixdan ma'lumki, bunday vaziyatlar odatda yangi texnika-iqtisodiy to'lqinning yuqori bosqichida paydo bo'ladi va rivojiana borib, tadqiqot tashkilotlari, innovatsion kompaniyalar yangi tarmoqlar chegarasidan tashqariga chiqa boshlaydi, iqtisodiyotning an'anaviy sohalari va oxir-oqibat jamiyat va davlat institutlarini qamrab oladi. Nazariy iqtisodchilar tomonidan hozircha

raqamlashtirishning mehnat samaradorligi o'sishiga ta'sirining qanchalik sezilarli ekanligi, tarmoqlararo ta'sirlari qanday bo'lishi mumkinligi, yalpi ichki mahsulotning o'sishiga qanchalik hissa qo'shishi to'g'risida aniq g'oyalar ishlab chiqilmagan. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tadbirkorlar va idoraviy ekspertlar, o'z bozorlaridagi va mas'uliyat sohalarida o'zgarishlar muqarrarligini xis qilib bormoqda.

Tadbirkorlik, xususan, kichik va o'rta biznes turli o'zgarishlarga ta'sirchan xususiyatiga ega, shuning uchun kuchli texnik-iqtisodiy to'lqinning navbatdagi yo'nalihsining noaniqlik sharoiti yetakchi omil vazifasini bajaradi. Texnologik jihatdan ilg'or davlatlarning hozirgi inqilobiy holatdan ta'sirlanish - ekspertlari xatolar, raqamlashtirish bilan bog'liq ishga tushirgan dastur va tashabbuslariga oid tajribasini o'rganish juda muhimdir. Bu o'z dasturini yaratish va resurslarni tejashta yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar oldini olishga yordam beradi.

Nihoyat, raqamlashtirish tufayli tubdan o'zgaradigan iqtisodiyot va davlat boshqaruvining xususiy institutsional maydonini tahlil va tadqiq qilish alohida ahamiyatga molik bo'ladi. Shubhasiz, yetaricha qisqa muddatda va ayni paytda raqamli transformatsiyalarga mos kelmaydigan huquqiy-me'riy bazaviy tizimida o'zgarishlar amalga oshirish zarur bo'ladi. Albatta, ushbu tadqiqot yakuniy yechim taklif qilishdan ko'ra ko'proq muammoli vaziyatlarni aniqlaydi, vazifalarni belgilaydi. Bu raqamli muammoning ko'lami va murakkabligini aniqlaydigan bir zumda dinamik rivojlanayotgan bu vaziyat, turli o'yinchilar tutgan o'rnini ko'rib chiqadi va o'yinning yangi qoidalarini belgilab olishga imkon beradi.

Dastlabki qadamda raqamlashtirish mavzusi xorijiy mualliflar tomonidan qanday yoritilgani, xorijiy kompaniyalar va mamlakatlardagi raqobatdosh hamkorlar bu yo'nalihsda qanday ishlarni amalga oshirayotganligini o'rganish zarur bo'ladi.

Mazkur sohada olib borilayotgan davlat siyosati va mamlakatimizdagи yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlardan milliy biznes "raqamli poygada" ishtirok etish uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda deb umumiy xulosa qilish mumkin. Mutaxassislar va kompaniya rahbarlari hozirgi davrda raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobat qila olmasliklarini tushunib yetmoqda.

Iqtisodiyot va jamiyatni "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida - digitization, ba'zan esa digitalization) to'g'risida fikr bildirishdan avval, birinchi navbatda, terminga aniqlik kiritish zarur bo'ladi. Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni ommaviy joriy etish va ishslash ko'nikmalarini olish, ya'ni, axborotni yaratish, qayta ishslash, almashish va uzatish texnologiyalari bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sifatida tushuniladi<sup>22</sup>.

Qanday texnologiyalarni "raqamli"ga (digital technology - RT) kiritish yoki kiritmaslik, sinonim bo'lgan "raqamli yechimlar" tushunchasida nimani tushunish kerakligi aniq ta'riflash kabi murakkabdir. Tadqiqotchilar muhitida hozirgi kunda

<sup>22</sup> Бундай таъриф, хусусан, UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology, [http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09\\_Katz\\_en.pdf](http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf)) эксперлари томонидан келтирилган

ham bu mavzu yuzasidan tinimsiz faol nazariy bahs-munozaralar davom etmoqda: misol tariqasida, 2017 yil 12-25 yanvar kunlari Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Analitik markaz tomonidan o'tkazilgan "Raqamli iqtisod - uzoq muddatli strategiyaga yo'lida" mavzusida o'tkazilgan onlayso'rovda ishtirokchilarga "raqamli iqtisod" bazaviy atamasini yettita muqobil ta'rifini tanlash taklif etildi (OECD, Jahon banki, Buyuk Britaniya, Avstraliya hukumatlari va boshqalar).

Bundan tashqari, bu turli qarashlar ekspertlar va tahlilchilar tomonidan hozirgi vaqtida insoniyatga qaysi texnik-iqtisodiy bosqich kirib keldi va qanday texnologiyalar (yoki texnologiyalar guruhi) yaqin istiqbolda iqtisodiy o'sishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishiga keng sharh berilishi bilan yanada chuqurlashib bormoqda. Jumladan, asosiy g'oyachisi bo'lgan Amerikalik tadqiqotchilar Jeremy Rifkin (Jeremy Rifkin) va Reymond Kursveyl (Raymond Kurzweil) bo'lgan "Uchinchi sanoat inqilobi" (Third Industrial Revolution, TIR) deb ataladigan universal atama mashhurlikka erishdi. TIR konsepsiyasining tarafdorlari, xususan, birinchi sanoat inqilobi o'z asosida ko'mir, ikkinchi – uglevodorod resurslaridan foydalanishga asoslanganligi e'tirof etishadi va faqatgina uchinchi bosqich, o'z navbatida, raqamli/axborot texnologiyalaridan foydalanish va istiqbol takomillashtirilishiga ahamiyatli darajada tayanadigan yangi texnologik yechimlar butun bir majmuasini (jumladan, qayta tiklanadigan/toza yenergiya, kompozit va nanomateriallar, biomedikal innovatsiyalar manbalari, 3D bosib chiqarish texnologiyalari, transportni ommaviy elektrlashtirish va boshqalar) sekin-asta joriy etishni e'tiborga oladi. Shuningdek, bir qator tadqiqotchilar "uchinchi texnologik AKT-platforma" gibrid variantdan foydalanadi. Shu bilan bir vaqtida, "to'rtinchchi sanoat inqilobi" yoki "industriya 4.0" muqobil konsepsiyasining tarafdorlari, Rifkin, Kursveyl va ularning izdoshlari tomonidan muhokama etilayotgan TIR yechimlari va ko'plab elementlarni uning eng muhim tashkil etuvchi qismlar sifatida ko'rib chiqadi.

Microsoft tahlilchilarining fikriga ko'ra, jahon AT-industriyasini keyingi yanada rivojlantirishda "Texnologik platforma" - qo'shma texnologiyalar, mahsulotlar va ularni tarqatish kanallari to'plamlari, shuningdek, ulardan foydalanish va taqsimlash ekotizimlarini ommaviy joriy etish muhim rol o'ynashi kerak. Hozirgi kunda yangi texnologik platformalarning asosiy elementlari bulutli hisoblash, mobillik, buyumlar Interneti, katta ma'lumot texnologiyalari, biznes-analitika va kompyuterli o'rgatish hisoblanadi<sup>23</sup>. Mazkur ilg'or platforma texnologiyalarining kumulyativ ta'siri tufayli, "mahsulotni xizmatlarga aylanishi", qiymat yaratish, mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlarini kengaytirish, shuningdek, "inson kapitalini yetkazib berish zanjirini qisqaarishi" bosqichma-bosqich amalga oshib boradi<sup>24</sup>.

2015 yilda jahon ishbilarmonlik faolligi markazlaridan biri hisoblanadigan Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) maxsus uzoq muddatli Digital Transformation

<sup>23</sup> Цифровая трансформация: технологии и примеры индустриального применения, Microsoft Corporation, 2017

<sup>24</sup> Термин, используемый главным экономистом Microsoft Престоном Макафи, см. <http://tass.ru/pmef-2017/articles/4300601>

Initiative (DTI) ("Raqamli ishlab chiqarishni tashkillashtirish tashabbusi") dasturi ishga tushirilganligini e'lon qildi. Yaratuvchilarining fikriga ko'ra, mazkur dastur "biznes va jamiyatni kelgusi raqamlashtirishda yangi yo'nalish va imkoniyatlarni aniqlash uchun fokal nuqta (focalpoint) bo'lishi kerak".

Bunda, boshidanoq DTI "To'rtinchi sanoat inqilobi mavzusi"ning yanada keng muhim tarkibiy qismi sifatida muhim o'ringa ega. WEF ekspertlarining so'nggi hisobotida (yanvar, 2017), bu nodavlat tashkilot rahbari Klaus Shvab (Klaus Schwab) uning kirib kelishini birinchi marta e'lon qilganiga oz muddat o'tganiga qaramasdan (Davos Forumi -2016), "To'rtinchi sanoat inqilobi to'liq kuch bilan davom etayotganligi" (allaqachon "is underway") qat'iy keltiriladi.

"e-government" atamasi davlat organlari, shaxslar va tashkilotlar o'rtasidagi elektron o'zaro bog'liqlikni, shuningdek davlat apparati ichidagi o'zaro bog'liqlikni (davlat organlari, davlat organlarining tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni) anglatadi.

*2-jadval.*

### **Raqamli iqtisodiyotni yaratish shartlari va ularning namoyon bo'lishi**

Table 2. Prerequisites of creation of digital economy and their manifestation

Predposilki perexoda k sifrovoy ekonomike	Period vremeni
Texnologik asos	
telekommunikatsiyalarning rivojlanishi	1900 yillar
Ommaviy iste'mol mahsuloti sifatida apparat vositalarining rivojlanishi	60-yillardan boshlabi
Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ommaviy iste'mol bozoriga yo'naltirilgan axborot mahsulotlarini yaratilishi	1980 yildan boshlab
Internetning elektron iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro hamkorligi uchun axborot-kommunikatsiya muhitni sifatida rivojlanishi	1990 yildan boshlab
<b>Elektron iqtisodiyotning shakllanishi</b>	
Birinchi elektron biznes sub'ektlarini yaratilishi	1995 yildan boshlab
Elektron iqtisodiyot sub'ektlarini "qayta moliyalashtirish" bilan bog'liq inqiroz	2000 yildan boshlab
Xalqaro axborot-kommunikatsiya infratuzilmaning shakllanishi	2000–2005 yillar
Internet tarmog'i kommunikatsiyalari va ishtirok etish texnologik standartlarni rivojlantirish	2000 yildan boshlab
Elektron to'lov tizimlarini yaratish va rivojlantirish	2000 yildan boshlab
Tovarlar va Internetning yaqinlashuvi	2005 yildan boshlab
Internet xizmatlari bozorini yaratish va rivojlantirilishi	2000 yildan boshlab
Mobil kirishni rivojlantirilishi	2005 yildan boshlab
Mobil aloqa va bulut ilovalarni rivojlantirilishi	2010 yildan boshlab
jismoniy ob'ektlarning Internetga ulanishiga asoslangan maishiy aqlii texnologiyalar bozorlarini rivojlantirilishi	2009 yildan boshlab

EP bo'yicha davlatlarning ham siyosiy, ham huquqiy hujjatlari tuzilgan; Shu bilan birga, siyosiy hujjatlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda "elektron hukumat" tushunchasini aniqlashga va ikki tomonlama yondashuv shakllantirildi. Yomg'ir birinchi, tor yondashuvga qarash, davlat hokimiyyati ijro etuvchi mutaxassis

tomonidan tayinlangan jismoniy shaxslarga ma'lumot va kommunal xizmatlarni o'tkazish uchun AKTdan boshqa narsalar. Umumiylashtirishning yondashuvga muvofiq, ES bu murakkab hodisadir, bu nafaqat elektron shaklda xizmatlarni taqdim etish va ijro hokimiyati organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlash, Balki ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar, ijroiya hokimiyati organlari va xodimlarning ish haqi bo'yicha ish yuritish va bunday organlarning ochiqligi oshishi bilan birga keladi. elektron demokratiya vositalariga o'tish.

Elektron imzolar to'g'risida Keng tushunchaning Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ta'riflarda tarqalishi, shubhasiz, bunday tashkilotlar elektron imzolarni rivojlantirish foydasini nafaqat elektron xizmatlarni ko'rsatish, Balki umuman davlat hokimiyati ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimini o'zgartirish imkoniyatlari Bilan son ko "rish rivojlanmoqda. Masala, Evropa Komissiyasi EPni davlatga kirish uchun ma'lumot-kommunikatsiya tizimlari, tashkiliy va davlat xizmatlari va demokratik proseduralarni uzatish uchun ish olib boriladigan joy emas.

Janubiy Koreya elektron hukumatni rivojlantirishda ulkan muvaffaqiyatga erishgan davlat hisoblanadi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining elektron hukumat institutlarining hamda aholining davlat boshqaruvidagi elektron ishtirokining rivojlanganlik darajasi bo'yicha reytingida birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham uning tajribasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Janubiy Koreyada elektron hukumatni shakllantirish bo'yicha tashabbus 2001-yilda yuridik kuchga ega bo'ldi. Mamlakatda elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur hukumat organlarining ishida samardorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, u uch bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan.

Birinchi bosqichda (2001-2003) kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning natijasida Koreyaning hukumat organlari tashqi dunè bilan Internet orqali uchta asosiy yo'nalishda -G2C (davlatdan-fuqaroga), G2B (davlatdan-biznesga) va G2G (davlatdan-davlatga) sxemalari bo'yicha aloqa qila boshladи.

Bundan tashqari, davlat boshqaruvi tizimida idoralararo elektron aloqalarni ta'minlashga qaratilgan axborot-texnologik arxitektura ham ishlab chiqilgan. Unda, xusan, elektron hujjat aylanishi, elektron raqamli imzo va boshqa texnologiyalar faol qo'llanilgan. Umumiylashtirishning milliy asoslari va tamoyillari nomli dasturiga muvofiq to'rtta sohaga oid loyihalar ishga tushirilgan:

- davlat boshqaruvi organlarining faoliyat ko'rsatishi
- davlat xizmatlarini ko'rsatish

- axborot resurslarini boshqarish
- qonun ijodkorligi tizimi

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun jami 981 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ sarflangan. Natijalar kutilganidan ham a’lo darajada bo‘lgan.

2007-yilga kelib Koreyada markaziy boshqaruv organlarining 55 foizida davlat apparatining 96,6 foiz xodimlari axborotlarni qayta ishlashning milliy elektron tizimi - —On-Naral (koreyscha, onlays-mamlakat) tizimidan foydalanishga o’tgan. Buning natijasi o’laroq, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati 30-44 kundan 7-13 kungacha qisqargan.

Davlat tuzilmalarida ma’lumotlarni qayta ishlashning innovatsion tizimi - —On-Naral 2007-yildan to‘liq ishga tushgan bo‘lib, uning oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- ma’lumotlarni qayta ishlash va almashish doirasida barcha boshqaruv jaraenlarini standartlashtirish;
- davlat organlarining markazlashmagan operatsiyalarini boshqarishni yagona tizimga solish;
- tizim ishtirokchilari o‘rtasida axborotlarni almashish va tarqatishni ta’minlovchi turli jaraenlarni o‘zaro bog‘lash va bir-biriga integratsiya qilish.

2008-yildan uchinchi bosqich boshlangan. Bu bosqichda asosiy e’tibor barcha mavjud tizimlar va turli darajadagi elektron hukumatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va ularni bir-biriga integratsiyasini ta’minalashga qaratilgan. Bu fuqarolarga va kompaniyalarga kompleks davlat xizmatlarini taqdim qilish imkonini beradi.

Ushbu bosqichda Koreya Respublikasi boshqa davlatlarga (jumladan, Ekvador, Indoneziya, Bangladesh, Shri-Lanka, Mali) elektron hukumatni shakllantirish uchun texnologik yechimlarni yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar ham tuzgan. Bungacha, 2004-yildan boshlab Janubiy Koreyada elektron hukumat uchun ishlab chiqilgan texnologiyalarni import qiluvchi asosiy davlat Yaponiya bo‘lgan.

Janubiy Koreya hukumati turli sohalarda axborot texnologiyalarni qo‘llash borasida ilg‘or davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatda, bir so‘z bilan aytganda, bojxona ishidan tortib to intellektual mulk masalalarigacha avtomatlashtirilgan tizimga o’tgan. Shuning uchun ham u hozirda duneda elektron hukumatning rivojlanish darajasi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi.

## **Nazorat savollvari**

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvi.
2. Interaktiv davlat xizmatlarini jahon tajribasida ko'rsatish ko'rsating

## **9-mavzu. O'ZBEKISTONDA TAQDIM ETILAYOTGAN INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI**

### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy maqsadi
2. Interaktiv Davlat xizmatlarini yagona portalı
3. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalı – [data.gov.uz](http://data.gov.uz)
4. Portalning foydalanuvchilar uchun ijtimoiy ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı [www.gov.uz](http://www.gov.uz) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Internet tarmog'idagi rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalining tashkil etilishi va qo'llab-quvvatlanishi, O'zbekiston Respublikasining «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi va «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunlari, Kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashning O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari rejasiga muvofiq amalga oshirilamoqda.

O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı davlat hokimiyati organlari faoliyatining funksional jarayon va tartibini qo'llab-quvvatlovchi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining elektron hamjihatlik infratuzilmasining tizimini tashkil etuvchi qism hisoblanadi.

#### **O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy maqsadi:**

- Fuqarolar va xo'jalik sub'ektlariga hokimiyat va boshqaruvi organlari tomonidan taqdim etiladigan axborot resurslari va xizmatlarining hajmini oshirishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan axborot tizimini yaratish;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalı maqsadli auditoriyasini zarur muassasalar bilan o'zaro aloqa qilish jarayonlari va imkoniyatlari to'g'risida, fuqarolarning majburiyatları va huquqlarining kelib chiqishi to'g'risida, davlat hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotlardan to'liq, tezkor va foydalanishda qulayligi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvining rasmiy pozitsiyasini aks ettiruvchi keng ko'lamdagi axborotlar bilan ta'minlash;
- Cheklangan xizmatlanishga mo'ljallangan axborotga kiritilgan ma'lumotlardan tashqari, tegishli axborot resurslarini joylashtirish va tashkil etish yo'li bilan fuqaro va tashkilotlarni davlat ijro hokimiyati organlarining faoliyati to'g'risidagi rasmiy axborotga kirishini ta'minlash;
  - Davlatlararo axborotlar almashinuvining intensifikatsiyasi;
  - O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini oshirish va milliy

iqtisodiyotimizga investitsiyalarni jalg etish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

**O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy**

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot;
- ma’lumotlarni belgilangan formatdagi taqdimida davlat muassasalari o‘rtasida «hukumat» darajasida axborotlarni gorizontal almashinuvi;
- ma’lumotlarning markazlashtirilgan bazasiga kirish asosida yagona axborot resurslaridan birgalikda foydalanish;
- iqtisodiy, huquqiy, statistik, elektoral axborotlar bilan vertikal axbrot almashinuvi;
- davlat-jamiyat hamjihatligini ta’minlash;
- davlat-fuqaro;
- davlat-iqtisodiy munosabatlar sub’ektlari;
- davlat-jamoat institutlari (siyosiy, diniy, milliy, madaniy, notijorat va hkz. tashkilotlar va birlashmalar);
- tashqi auditoriyaga mo‘ljallangan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ko‘p sonli axborot resurslariga, idoralarning «yo‘yilgan» serveriga kirishning yagona nuqtasini yaratish;
- davlat institutlarining faoliyati to‘g‘risida axborotlarni taqdim etish;
- huquqiy axborotga kirishni ta’minlash (respublika, mintaqaviy qonunchilik, vazirlik va idoralarning me’yoriy aktlari);
- davlatda «Global axborotlashgan jamiyat»ga mos munosabatlarni bunyod etish va shakllantirishga ko‘maklashish;
- davlat institutlarining ishlash samaradorligini oshirish;
- idoraviy va byurokratik to‘siqlarni yengib o‘tishga ko‘maklashish;
- davlat xizmatining obro‘sisi va nufuzini oshirish.

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – my.gov.uz va uning yangicha talqini – my2.gov.uz**

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda Yagona portal deb ataladi) Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan «bir darcha» rejimida faoliyat ko‘rsatadi.

**Interaktiv Davlat xizmatlarini yagona portali** 2013 yil 1 iyulda ishga tushirildi. 2017 yilning mart oyiga kelib, ushbu portalda 308 ta elektron xizmat joriy etildi. Bunda xizmatlar axborot (offlays), yarim avtomat, avtomatlashtirilgan va interaktiv ko‘rinishlarda taqdim qilinadi.

Davlat bojxona qo‘mitasi saytida elektron yuk bojxona deklaratsiyalari qabul qilinmoqda. 2015 yilda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali ishga tushirildi va elektron savdo shakli amaliyotga tatbiq etildi. Masofaviy bank xizmatlari joriy qilinishi bilan 2016 yilda 1847569 nafar foydalanuvchi kredit olish uchun elektron ariza bilan murojaat etdi.



## Davlat interaktiv xizmatlarini taqdim etuvchi tizimning tashkiliy tuzilmasi



Portalda joriy etilgan imkoniyatlar:

Ягона порталга 600дан зиёд ташкилотлар уланган

1121864дан зиёд мурожаатлар давлат органларига юборилган (мурожаатларнинг 98 фоизи кўриб чиқилган)

**MY.GOV.UZ**

300дан зиёд интерактив давлат хизматлари тақдим этилмоқда

ID.UZ тизими орқали; ЭРИдан фойдаланган ҳолда; СМС-тасдиқлаш ёрдамида Банк картаси ёрдамида фойдаланувчиларни идентификация қилиш

«**Statistika**» moduli fuqarolar tomonidan davlat tashkilotlariga yuborilgan murojaatlarni ko‘rib chiqilishi xolati bo‘yicha muhim ma’lumotlarni o‘zida aks etadi

#### «Murojaatlarni ko‘rib chiqish» modulining imkoniyatlari:

- 500 dan ortiq davlat tashkilotlariga murojaat yuborish;
- 5ta davlat tashkilotiga bir vaqtda murojaat yuborish;
  - oldingi murojaatlarni va qoralamalarni saqlash;
  - murojaatlarni ko‘rib chiqish xolatini kuzatish;
- davlat tashkiloti faoliyatidan qoniqish darajasini baxolash;
  - murojaatni bekor qilish;
  - davlat tashkilotining javobiga izoh qoldirish

#### «O‘zarxiv» Agentligi xizmatlari

- oylik maoshini tasdiqlash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish uchun ariza berish;
- mehnat faoliyatini tasdiqlash to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotlarini olish uchun ariza berish;
- o‘qiganligini tasdiqlash to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotlarini olish uchun ariza berish;
- taqdirlanganligini tasdiqlash to‘g‘risidagi arxiv ma’lumotlarini olish uchun ariza berish.


#### «Davlat organi rahbariyati qabuliga yozilish»

Mazkur xizmat fuqarolarga rahbariyat qabuliga onlayn tarzda yozilish imkoniyatini beradi. Davlat organlari, korxonalar, muassasalari va tashkilotlarida fuqarolarni qabul qilish tartibi ularning ichki tartibi bilan belgilanadi.

#### «Bo‘sh ish o‘rinlari»

Yagona portal foydalanuvchilari taqdim etilgan bo‘sh ish o‘rinlari uchun o‘zlarining rezyumelarini yuborishlari mumkin. Yagona portalda davlat organlari tomonidan mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi ma’lumotlar joylashtiriladi.


#### Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish xizmati



## **«O‘lchov vositalarining davlat metrologik tekshiruvini o‘tkazishga ariza berish»**

Gaz, elektr energiyasi, issiq va sovuq suv hisoblagichlarini davlat metrologik tekshiruvidan o‘tkazishga arizani Yagona portal orqali berish Ariza taqdim etilganidan keyin 24 soat ichida (ish kunlarida), ariza beruvchining Yagona

portaldagi shaxsiy kabinetiga, metrologik tekshiruvini o‘tkazishga shartnoma va o‘lchov vositasini topshirish manzili va vaqtি haqida ma’lumot keladi.



## **«Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun arizalarni rasmiylashtirish»**

Barcha kerakli hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda (mahalliy davlat organlari qarorlari, notariat organlari tomonidan tasdiqlangan shartnomalar va boshqalar), arizachilar o‘z huquqlarini kadastr organlariga tashrif buyurmasdan ro‘yxatdan o‘tkazishlari (huquqni belgilovchi hujjatni olishlari) mumkin.

## **«Tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya olish uchun elektron ariza taqdim etish»**

Yuridik shaxslar, tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya (litsenziya bitimi) olish (qayta rasmiylashtirish, uzaytirish) uchun elektron arizani Yagona portal orqali taqdim etishlari mumkin.

Arizalar, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Litsenziyalash va nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilish boshqarmasi tomonidan o‘rganib chiqiladi va litsenziyalash organining ekspertiza natijalariga muvofiq tegishli takliflar bilan birgalikda xulosa tayyorlanadi.

## **«Tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha ma’lumotlarni Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga taqdim etish»**

2014 yil 1 sentyabrdan boshlab, tadbirkorlik sub’ektlari tashqi savdo shartnomalari ma’lumotlarini raqamli imzodan foydalangan holda Yagona portal orqali elektron tarzda Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga taqdim etish imkoniyatiga ega Ushbu xizmatdan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektlari (jismoniy hamda yuridik shaxslar) foydalanishlari mumkin.


Aholining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkonoyatini yaratish uchun 2013-yil 1-iyulda Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalı ([www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)) ishga tushirildi, 2015-yil 17-martdan esa O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalı ([data.gov.uz](http://data.gov.uz)) foydalanishga topshirildi.

Mazkur ishlarning mantiqiy davomi sifatida Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimini alohida portal ko'rinishida ishga tushirish edi, mazkur tizim 2015-yil 1-yanvardan ishga tushgan bo'lib dastlab Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalining alohida bo'limida aholi e'tiboriga havola etildi.

O'zbekiston Respublikasi me'yoriy - huquqiy hujjatlarining muhokamasi portali – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 328-sون qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimining birinchi talqinidir.

### **Portalning maqsadi:**

- muammoni, uni tartibga solishning maqsadi va mavjud echimini tahlil qilish orqali normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan (vujudga kelgan) ijobjiy va salbiy oqibatlarni aniqlash;
- ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasida va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tizimida korrupsiya, boshqa huquqbazarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, tadbirkorlik sub'ektlari uchun ortiqcha ma'muriy hamda boshqa cheklowlarni joriy etadigan yoki joriy etishga sharoit yaratadigan qoidalarni aniqlash;
- tadbirkorlik sub'ektlarida asossiz xarajatlar paydo bo'lishiga olib keluvchi qoidalarni aniqlash



Foydalanuvchilar joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar borasida nafaqat moddama-modda o‘z takliflarini bildirishlari balki, mazkur hujjatlar borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib mahsus so‘rovnomani to‘ldirishlari ham mumkin. So‘rovnomalar Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimini va mazkur Portalni yanada rivojlantirishda ahamiyatga ega.

Muhokamadagi loyihalar bo‘limiga kirib, hozirda muhokama jarayonida bo‘lgan loyihalar haqida ma’lumotlarni olish, fikr-mulohazalar qoldirish imkoniyati mavjud.

Maxsus imkoniyatlar

O‘zbekcha | [Русский](#)

Tizimga kirish

O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi

 Yangiliklar	 Materiallar	 Portal haqida	 Qayta aloqa						
<a href="#">Izlash</a>	<a href="#">Izlash uchun matnni kriting...</a>		<a href="#">Kengaytirilgan qidiruv ▾</a>						
Normativ-huquqiy hujat loyihasi nomi	ID	Hujat muallifi	Hujatni qabul qiluvchi tashkilot	Hujat turi	Hujat ko‘rinishi	Hujatning joriy holati	Muhokama boshlanishi (sana)	Muhokama yakunlanishi (sana)	Izohlar soni
<a href="#">Об утверждении Положения о порядке подготовки, переподготовки и повышения квалификации судоводителей и выдачи удостоверений на право управления судами</a>	1416	O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Qaror	NHH loyihasi	Muhokama jarayonida	2017-04-26 15:47:10	2017-05-11 00:00:00	0
<a href="#">ПЛАН РАБОТЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕЖДУНАРОДНОЙ ДОГОВОРНО-ПРАВОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА 2017-2020 ГОДЫ</a>	1415	O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Reja	NHH loyihasi	Muhokama jarayonida	2017-04-26 09:07:53	2017-05-11 05:12:00	0

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portalı ([regulation.gov.uz](http://regulation.gov.uz))dan bepul internet asosida foydalanish qulayligi fuqarolar va hukumat, davlat idoralari o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

## O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali – [data.gov.uz](http://data.gov.uz)

O‘zbekiston Respublikasi ***Ochiq ma’lumotlar portali*** 2015 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Dastlabki bosqichda unda sakkizta tashkilotdan 80

turdagi ma'lumot joylashtirilgan bo'lsa, bugungi kunda mazkur portalda 120 ta tashkilotning 2216 xildagi axboroti o'rinni olgan. Bu axborotlar iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va boshqa dolzARB sohalarga taalluqlidir.

Davlat organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar va axborotlarni ochiq ma'lumotlar ko'rinishida e'lon qilinishi ulardan turli axborot resurslarini shakllantirishda manbaa sifatida va axborot tizimlarini, shuningdek, ham davlat organlari, ham tadbirkorlik subektlari uchun xizmat va ilovalar yaratishda foydalanish mumkin.

Internet tarmog'ida keyinchalik ochiq ma'lumotlar uchun "yagona nuqta" vazifasini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali ishga tushirilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi qayta ishlash va tahlil qilish uchun mos formatlarda davlat organlari faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 avgustdagagi *-Ochiq ma'lumotlar taqdim etilishi hisobga olingan holda internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida* qarori asosida internet tarmog'ida axborotdan ko'p marotaba, erkin va bepul foydalanish imkonini beruvchi O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida Ochiq ma'lumotlar portali — **www.data.gov.uz** ishga tushirilgan.

### **Ochiq ma'lumotlar portali ishga tushirishdan ko'zlangan asosiy maqsad**

– davlatning barqaror rivojlanishida hukumat va aholining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yagona tizimga ulangan xalqaro kompyuterlar tarmog'i – Internet va undagi o'zaro bog'langan gipermatnli elektron resurslar tizimi – xalqaro –o'rgimchak to'ril ning rivojlanishi hukumatning fuqarolar oldidagi hisobdorligini yangicha usullar yordamida ta'minlash imkonini yaratdi.

Tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, aholi uchun zarur ma'lumotlarni ularga o'z vaqtida taqdim qilmaslik va aholining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirmaslik jamiyat rivojiga juda katta salbiy ta'siri o'tkazib, oqibatda

– axborot taqchilligil jamiyatning inqiroziga sabab bo'lishi mumkin.

Ayni shu omil – **Ochiq ma'lumotlar portali** ishga tushirilishiga sabab bo'ldi.

**Ochiq ma'lumot** – bu, bir qarashda hammasi tushunarli, foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumot.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015 yil 7 avgustda qabul qilingan qarorga asosan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtiriladigan axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi uchun shaxsan javob berishi belgilangan.

### **Portalning foydalanuvchilar uchun ijtimoiy ahamiyati.**

Ochiq ma'lumotlar portali nafaqat davlat boshqaruvi organlari tizimining ochiqligini ta'minlashga, balki iqtisodiyotga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Birgina ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar bilan aholini boxabar qilish o'rtacha 1 milliard AQSh dollari miqdorida foyda keltiradi. Transport tizimiga oid ochiq

ma'lumotlar tarmoqlarining shakllantirilishi 700-900 milliard AQSh dollarigacha bo'lgan mablag'ni tejab qolishga olib kelishi aniqlangan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida internet tarmog'ida ochiq ma'lumotlar oqimini faol shakllantirayotgan xususiy sektor vakillari internetdagi portallardan marketing tadqiqotini yuritishda ham foydalanayotganliklariga guvoh bo'lish mumkin.

Hukumatning ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish yuzasidan olib borgan islohotlarining ikkita muhim jihatni bor. Birinchidan, jamoatchilikni ochiq ma'lumotlar bilan ta'minlash hukumat faoliyatining oshkorraligini va fuqarolarning jamiyat qurilishidagi keng ishtirokiga, ikkinchidan, tadbirkorlar va fuqarolarning hukumatga nisbatan ishonchi oshishiga xizmat qiladi.

Ochiq ma'lumotlar portalni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samaralarini o'zida aks ettiradigan, ayni chog'da davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim axborot resursi bo'lib, uni takomillashtirish, boyitish va targ'ib qilishga barcha mas'uldir.

### **Ochiq ma'lumotlar portalni imkoniyatlari va foydalanuvchilari. Ochiq ma'lumotlar portalni bo'limlari.**

Portal ikki tilda faoliyat olib borib, quyidagi bo'limlarga ega: a) **Asosiy** - "Bosh sahifa", "Dasturchilarga", "Yangiliklar";

b) **Qo'shimcha** - "Portal yangiliklari", "Ommabop ma'lumotlar", "Tashkilotlar", "Portal haqida", "Kayta aloqa", "Ma'lumotlardan foydalanish shartlari".

a) **Asosiy bo'limlar. "Bosh sahifa" bo'limi.** Ushbu bo'lim portal bosh sahifasi bo'lib, u portalning mohiyatini yoritib beruvchi bannerlar va belgilar shaklidagi ma'lumotlar hamda Portal xakidagi anonslardan iborat yangiliklarni o'z ichiga oladi. Izlash funksiyasi portaldagi ma'lumotlarni tezda topish imkonini beradi. Portal bosh sahifasidan boshqa sahifalarda joylashgan asosiy ma'lumotlarga kerakli havolalarni bir marta bosish (klik) orqali o'tish mumkin.

**"Dasturchilarga" bo'limi.** Ushbu bo'limda, qayta ishslash va tahlil qilish uchun mos bo'lgan mashina o'qiy oladigan formatdagi ochiq ma'lumotlar taqdim etiladi.

**"Yangiliklar" bo'limi.** Davlat organlari tomonidan taqdim etilgan yangi ma'lumotlar ushbu bo'limda to'liq tarzda berib boriladi.

b) **Qo'shimcha bo'limlar. "Portal yangiliklari" bo'limi.** Ushbu bo'limda yangiliklar anonsi joylashtiriladi. Bir marta bosish (klik) orqali yangiliklarning asosiy sahifasiga o'tiladi hamda tanlangan mavzu bo'yicha to'liq matn ochiladi.

**"Ommabop ma'lumotlar" bo'limi.** Mazkur bo'lim foydalanuvchilar tomonidan ko'p murojaat etilgan ma'lumotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

**"Tashkilotlar" bo'limi.** Mazkur bo'limda ochiq shaklda ma'lumotlarni joylashtiruvchi davlat organlari ro'yxati keltirilgan.

**"Portal xakida" bo'limi.** Mazkur bo'limda foydalanuvchiga portalning xususiyatlari xakida qisqacha ma'lumot beriladi.

**"Qayta aloqa" bo'limi.** "Qayta aloqa" bo'limi portal administratoriga

xabarlar jo‘natish sahifasi hisoblanadi. Jo‘natuvchi ushbu sahifada ism, familiya, ye-mayl, telefon raqami va manzili kabi barcha zarur aloqa ma’lumotlarni qoldirishi mumkin. Tegishli katakchaga xabaringiz matnini kiritish - har qanday fikr, savol, shikoyat yoki biror bir taklif yuborish mumkin.

**“Ma’lumotlardan foydalanish shartlari” bo‘limi.** Ushbu sahifada ma’lumotlardan foydalanish uchun belgilangan shartlar keltiriladi.

### O‘zbekiston Respublika Prezidenti virtual qabulxonasi – pm.gov.uz;

2016 yil 24 sentyabrda O‘zbekiston hukumat portalida Shavkat Miromonovich Mirziyoevning virtual qabulxonasi – PM.gov.uz sayti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

2016 yil 23 dekabrda PM.gov.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga aylantirildi ("PM" - –Prezidentga Murojaatl).

Hal etilmagan masalalar/muammolar, ariza, shikoyat yoki takliflar bo‘lsa, u holda murojaatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga 3 xil usulda: qo‘ng‘iroq qilish, murojaat yuborish yoki O‘zLiDeP hududiy partiya tashkiloti Kengashiga tashrif buyurish orqali yuborish mumkin.

Hukumat rahbariga murojaat qilishni istagan har qanday fuqaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri sayt orqali yoki (0 800) 210–00–00 telefon raqami yoki 1000 qisqa raqami yordamida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga shikoyat, taklif va talablarini yetkazishi mumkin. Qo‘ng‘iroqlar butun Respublika bo‘ylab bepul.

Shuningdek, O'zLiDePning hududiy Kengashlariga murojaat qilish mumkin. Murojaatning maqomini (javob berilgan-berilmaganini) sayt orqali tekshirib borish mumkin. Virtual qabulxona orqali murojaat qilish uchun elektron raqamli imzo talab qilinmaydi.

Махсус имкониятлар
[Ўзбекча](#)
[Русский](#)



Ўзбекистон Республикаси Президенти  
**Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг**  
виртуал қабулхонаси



pm.gov.uz



*Сизда ҳал этилмаган масалалар/муаммолар, ариза, шикоят ёки тақлифлар борми?*  
**У ҳолда мурожаатингизни тўғридан-тўғри Ўзбекистон Республикаси Президентига З хил усугуда:**  
**қўнгироқ қилиши, мурожаат юборши ёки Қорақалпогистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳридаги Ҳалқ қабулхоналарига ташриф буюорши орқали юборшишингиз мумкин.**

Янгиликлар
Статистика

**4 ой - қисқа давр. Қисқа статистика**  
2017.01.26

PM.gov.uz портали – Ўзбекистон Республикаси Президенти (2016 йил 23 декабрга қадар Боз Батағсил...)

Ўзбекистон Республикаси Президенти  
виртуал қабулхонаси  
2016.12.23

PM.gov.uz Ўзбекистон Республикаси Президентининг Виртуал қабулхонасига айлантирилди.  
Батағсил...

[Барча янгиликлар >](#)
Жами
705663
Кўриб чиқилган
639018



**1000 ёки 0-800-210-00-00**


Ўзбекистон Республикаси Президентига ариза, тақлиф ва шикоятларни (0 800) 210-0000 ёки «1000» қисқа рақамларiga қўнгироқ қилган ҳолда юбориш мумкин (қўнгироқ республика бўйича белул бўлуб, ундан факатина стационар телефонга қўнгироқ қилиш нахри бўйича ҳақ олинади)

Мурожаатни юборинг
 Мурожаат мақомини текшириб кўринг


### **Yagona identifikatsiya tizimi id.gov.uz**

### **Yagona Identifikatsiya Tizimi One ID - bu nima?**

Yagona identifikatsiya tizimi turli hukumat agentliklariga va fuqarolik veb-saytlariga kirish imkoniyatini beradigan yagona akkaunt bilan ta'minlaydi. Foydalanuvchilar turli xil veb saytlar uchun turli xil akkauntlar yaratishiga to'g'ri kelmaydi va ular o'zlarining elektron raqamli imzolari orqali YaIT ga javobgar idoralarga tashrif buyurmasdan ro'yhatga kirishlari mumkin. Foydalanuvchi YaITga kirgandan so'ng, u YaITga bog'langan veb saytlarga qaytadan kirishiga hojat qolmaydi. Yagona Identifikatsiya Tizimi One ID turli veb-saytlar, davlat va




xo‘jalik boshqaruvi, davlat hokimiyati va mahalliy biznes tashkilotlarning portallari, barcha foydalanuvchilar uchun qulay foydalanish uchun mo‘ljallangan.



YaIT One ID veb-saytlarga foydalanuvchilarni aniqlash uchun xizmat turlarini taqdim etadi. Buning uchun, foydalanuvchilar shaxsiy ma’lumotlarini

YaIT One ID avvaldan ro‘yxatdan o’tkazishlari kerak: foydalanuvchi nomi, parol, To‘liq ismi, ShIR va hokazo.

Veb-saytiga kirish uchun foydalanuvchi YaIT One ID login va parolini kiritishi kerak. Tizim ma’lumotlarni tekshirib va autentifikatsiya natijasini foydalanuvchi identifikatoriga qaytaradi.



e-hukumat tizimlari bilan Yagona Identifikatsiya Tizimi integratsiya bo‘lgani sababli, barcha tegishli resurslarga kirish uchun bir akkaunt bilan foydalanish imkonini beradi. Yagona Identifikatsiya Tizimi akkaunti yordamida barcha xizmatlar bilan foydalanish mumkin.



**Boshqa saytlar bilan integratsiya**

Veb-sayt egasi va foydalanuvchini identifikatsiya qilish uchun, har qanday xizmatlar (bank xizmatlari, elektron tijorat va boshqalar) bilan ta'minlash uchun

- Yagona Identifikatsiya Tizimi qonuniy va qulay yo'l.

Yagona Identifikatsiya Tizimi qonun bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 17 dekabr 2015 yil 365 sonli tasdiqlangan - foydalanuvchilarni aniqlash Yagona **Identifikatsiya** Tizimi elektron hukumat haqidagi nizomga muvofiq, Yagona Identifikatsiya Tizimi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar haqiqiy deb qabul qilish lozim.



### Yuridik shaxslarni identifikatsiya qilish

Tashkilot (kompaniya) rahbari jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, o'z kabinetida tashkilot qo'shishi mumkin. Buning uchun, Yagona Identifikatsiya Tizimi shaxsiy kabinetida, tashkilot rahbari nomidan olingan Elektron Raqamlı Imzo taqdim etilishi kerak. Yuridik shaxs qo'shib tashkilot nomidan davlat xizmatlaridan foydalanish uchun boshqa foydalanuvchilarga (xodimlarga) o'z vakolalarini topshirishi mumkin.

The screenshot shows the Yagona Identifikatsiya Tizimi website interface. At the top, there is a navigation bar with links: 'Foydalanuvchilarga', 'Davlat tashkilotlari uchun', 'Ulangan saytlar', 'Tizim haqida', 'O'zbekcha', and font size controls. Below the navigation, a section titled 'Ulangan saytlar ro'yxati:' lists several government services:

- EGOV**: O'zbekiston Respublikasi elektron litsenziyalash
- CLASSIFIERS.GOV.UZ**: Kataloglarni va klassifikatorlarni ro'yxati
- Emblem of Uzbekistan**: Individual va Yuridik Shaxs ma'lumotlar tizimi portali
- e-kommunal**: Kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portali
- "Yagona oyna" markazlari**: "Yagona oyna" markazlari
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki**: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Identifikatsiyalashning yagona tizimi quyidagi **vazifalarni bajaradi**:

- interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda foydalanuvchilarning haqiqiy identifikasiyalanishini ta’minlash;
- «Elektron hukumat» tizimi foydalanuvchilarini ro‘yxatga olish, identifikasiyalash, autentifikasiyalash va avtorizasiyalashning yagona mexanizmini ta’minlash;
- idoralararo elektron hamkorlik qilishda davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning (keyingi o‘rinlarda vakolatli organlar deb ataladi) axborot tizimlaridan ruxsat etilgan holda foydalanishni ta’minlash.

Yuklangan vazifalarni bajarish uchun identifikatsiyalashning yagona tizimi quyidagi **funksiyalarni amalga oshiradi**:

- foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, identifikasiyalash, autentifikasiyalash va avtorizatsiyalash;
- «Elektron hukumat» tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining markaziy ma’lumotlar bazalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;
- foydalanuvchilarining ishonchli shaxsiy ma’lumotlarini identifikasiyalashning yagona tizimiga ulangan vakolatli organlarning axborot tizimlariga ruxsat etilgan holda uzatish;
- davlat xizmatlari ko‘rsatishda va idoralararo elektron hamkorlik qilishda foydalanuvchilarning vakolatlarini saqlash va boshqarish.

Identifikatsiyalash yagona tizimining ishlashi O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, ushbu Vazirlik quyidagilarni **ta’minlaydi**:

- identifikatsiyalash yagona tizimining dasturiy-apparat kompleksini texnik qo‘llab-quvvatlash va yanada takomillashtirish;
- belgilangan tartibda foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari saqlanishi va axborot xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish;
- vakolatli organlar axborot tizimlarining identifikatsiyalashning yagona tizimi bilan integratsiyalashuviga qo‘yiladigan texnik talablarni tasdiqlash;
- davlat organlari axborot tizimlarining identifikatsiyalashning yagona tizimi bilan integratsiyalashuviga ko‘maklashish;
- talablar buzilgan taqdirda foydalanuvchilar va vakolatli organlar axborot tizimlarining identifikatsiyalash yagona tizimidan foydalanishini blokirovka qilish.

## Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy maqsadi
2. Interaktiv Davlat xizmatlarini yagona portalı
3. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalı – [data.gov.uz](http://data.gov.uz)
4. Portalning foydalanuvchilar uchun ijtimoiy ahamiyati.

## **10-mavzu. KOMMUNAL TO‘LOVLARNI AMALGA OSHIRISHDA INTERAKTIV XIZMATLAR**

### **Reja:**

1. Kommunal xo‘jalik va uy-joy fondi portali e-kommunal.uz dan
- 2.Bo‘limda bir qancha xizmatlar .
3. Kommunal xizmatlarni onlayn to‘lashda xizmatlar ketma-ketligi

Kommunal xo‘jalik va uy-joy fondi portalini tahlil qilish. Uning resurslari, faoliyat maqsadlari, kommunal xizmatlarini yagona oyna ko‘rinishida interaktiv xizmatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tinglovchi e-kommunal.uz, ya’ni Kommunal xo‘jalik va uy-joy fondi portalidan ID.uz yagona identifikatsiya tizim orqali ro‘yxatdan o‘tishi kerak bo‘ladi xamda elektron xisoblagichlarni profilga kiritib onlayn to‘lovni amalga oshirishi lozim.

Kommunal xo‘jalik va uy-joy fondi portali e-kommunal.uz

Portalning asosiy vazifasi aholining uy-joy-kommunal soha va kommunal xizmat vakillari, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining sohaning yuqori tashkilotlari bilan hamkorligini yanada takomillashtirishdir. Portalning maqsadi – interfaol va axborot xizmatini ko‘rsatish orqali kommunal xizmatlarining aholi, tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishi uchun yagona axborot makonini tashkil etish, kommunal xizmatlar faoliyatida oshkoraliyki ta’minlashdan iborat. Portal èrdamida iste’molchilarga interaktiv xizmatlar ko‘rsatish maqsadida kommunal xizmat va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati avtomatlashirilmoqda.

ШЖБИБ раҳами 30911864180016  
Телефон раҳамангизни киритинг: Телефон кодини таъланган

Топширилган декларациялар

16:11 31.03.2016 ENG

Endilikda soliq to‘lovchilarga har bir xizmat bo‘yicha o‘z fikrlarini va baholarini qoldirish, soliq organlari esa – soliq to‘lovchilarning fikrlarini o‘rganish, taklif va e’tirozlarini ko‘rib chiqish imkoniyatlari mavjud.

Электронные налоговые услуги - Mozilla Firefox  
https://my.soliq.uz/feedback/?interactiveId=6

Интерактив Предоставление разъяснений по общим вопросам налогообложения

Ф.И.О.\* Сайдов Камол

email адрес kamol@inbox.uz

Номер сотового телефона (9989XXXXXX)

Оценка\* ★★★★☆

ИНН

Оставить комментарий\* Как хорошо что теперь можно комментировать услуги.

Защита от СПАМА 388654 Введите код на картинке

ОТПРАВКА

Назад Инструкция Оцените услугу Оставить отзыв

Bugungi kunda davlat soliq xizmati organlari tomonidan 26 turdagи elektron davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Bundan tashqari 10 ta yangi xizmatlar test sinovida taqdim etilmoqda. Soliq to‘lovchilarning toifasi va joylashgan joyidan qat’iy nazar barcha xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud.

Joriy oy davomida vujudga kelgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida my.soliq.uz portalı test rejimida ishga tushirildi. Ushbu davr mobaynida davlat soliq xizmati organlarining elektron davlat xizmatlaridan yangi va oldingi tizimlardan foydalanish mumkin. Yangi portal bo‘yicha taklif va e’tirozlaringizni mysoliquz@soliq.uz elektron manziliga bilan hamda my.soliq.uz portalidagi «Aloqa» bo‘limida joylashtirilgan manzillarga yuborishingiz mumkin. Bundan tashqari har bir xizmat bo‘yicha fikr hamda takliflaringizni xizmat sahifasida izoh ko‘rinishida qoldirishingiz mumkin.

## Nazorat savollari

1. LexUz dan foydalanish axamiyati tushuntirib bering.
2. Hujjatlarni izlash qoidalarini ko‘rasatib bering.
3. my.soliq.uz portalı test rejimida ishga tushirilishini ko‘rsatib bering .

# **AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI**

## **1-mavzu. DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISH MILLIY TIZIMI FANIGA KIRISH**

**Ishdan maqsad:** Davlat xizmati mohiyatini va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan oldin, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mehnat faoliyati turlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilish lozim.

### **Masalaning qo‘yilishi:**

#### **Bilib olasiz:**

Давлат хизмати моҳиятини ва унинг ўзига хос хусусиятларини аниқлашдан олдин, инсонлар томонидан амалга ошириладиган ижтимоий фойдали меҳнат фаолияти турлари тўғрисида тушунча ҳосил қилиш лозим.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

#### **1-topshiriq.**

Yuridik adabiyotlarda, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy foydali mehnat faoliyati fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida turli (davlat, nodavlat) tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari doirasida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar sifatida ta’riflab o‘tilgan bo‘lib, shartli ravishda bir necha guruhlarga bo‘lingan.

Bularni tariflab bering.

#### **Topshiriqni yechilishi:**

**Давлат**

- Давлат хизмати тушунчаси, ўзига хос хусусиятлари ва турлари.
- Inson

**Хизматлар**

- Давлат хизматларини кўрсатишда элекtronxukumat фаoliyat йўналишлари
- axborotnimosofaga uzatish

**Тизим**

- Узбекистонда электронхукумат тизимини самарали жорий этиш борасида олиб борилганислоҳотлар

**2-topshiriq. Davlat xizmati tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari va turlarini guruhlab ko‘rsating.**

## **Давлат хизмати**

– товарлар, моддий бойликлар ишлаб чиқариш, маълум бир хизматлар кўрсатиш;

– номоддий (маънавий) бойликлар яратиш (масалан, китоблар, мақолалар ёзиш, кино ва видеофильмлар яратиш, сценарийлар тайёrlаш);

– ижтимоий-маданий фаолият (таълим бериш, соғлиқни сақлаш ва ҳ.к.лар);

– давлат хизмати, яъни жамиятнинг барча соҳаларида фаолият кўрсатиш;

- ижтимоий-маданий (таълим, соғлиқни сақлаш, фан, маданият, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш) соҳаларни бошқариш;

- иқтисодиёт (саноат, қишлоқ ва сув хўжалиги, қурилиш, транспорт, алоқа, хизмат кўрсатиш) соҳаларини бошқариш;

– маъмурий-сиёсий (мудофаа, давлат хавфсизлиги, адлия, ички ишлар, ташқи ишлар) соҳаларни бошқариш1;

- нодавлат, жамоат, диний, халқаро, хорижий ташкилотлар томонидан хизмат кўрсатиш;

- жамиятнинг турли соҳаларида маълум бир эҳтиёжларни қондириш мақсадида ижтимоий фаолият билан шуғулланиш ва бошқалар.

## **Давлат хизматларини кўрсатишда электрон хукумат фаолият йўналишлари**

- давлат органларининг хизматчилари;
- маҳаллий органларининг хизматчилари;
- давлат корхоналари, муассасалари, ташкилотлари ва бирлашмаларининг ташкилотларнинг хизматчилари;
- жамоат бирлашмаларининг хизматчилари ва х.к.лар.

### **Nazorat savollari:**

15. Davlat xizmatarini ko‘rsatish samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyaarining ahamiyati qanday jarayonarda o‘z aksini topadi?
16. Fanni o‘tilishi o‘z oldiga qanday maqsad va vazifaarni qo‘yadi?
17. Fanni o‘rganishda qanday ko‘nikma va maakaga ega bo‘lish mumkin?
18. O‘zbekistonda davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda AKTdan foydalanish yo‘nalishida qanday chora-tadbirar amaga oshirildi?
19. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish masalasi qanday o‘z aksiri topgan?

**Amaliy mashg‘ulot.**

### **2-Mavzu: JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXBOROTLASHGANLIK AHAMIYATI**

**Ishdan maqsad:** Boshqaruv va iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini avtomatlashtirish va robotlashtirish, «intellektual» tizimlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, har bir insonga ixtiyoriy axborot va bilimlarni taqdim etuvchi yagona integrallashgan tizimlarni yaratish jamiyat munosabatlарининг барча тизимларда радикал о‘згартирishlar qilishni talab qiladi, оқибатда eng katta o‘sish va o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishda shaxs erkinligini ta’minlaydi.

## Masalaning qo‘yilishi:

### Bilib olasiz:

Ахборотлашган жамият ахборот-коммуникация технологиялари натижасида кириб келган замонавий тараққиётнинг энг ривожланган фазаси ҳисоблаш лозим.

### Ishni bajarish uchun namuna

Hozirgi kunda bo‘lg‘usi axborot jamiyatining barcha xususiyatlarini yetarli darajada tavsiflab berish mushkul muammo hisoblanadi, chunki uning har biri biron-bir darajada o‘zini namoyon qilib boradi. Biri aniq darajada, ikkinchisi munosab, uchinchisi davr mobaynida o‘zini namoyon qilib boradi. Shunday bo‘lsa ham, jamiyatni axborotlashtirish yo‘lidagi harakatlari va bu harakatni keyingi istiqbollarini tahlil qilib axborotlashgan jamiyat istiqbolini quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

#### Ахборотлашган жамият истиқболини қўйидаги асосий ҳусусиятларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- инсониятнинг туганмас захираси бўлган ва барча индивид, ташкилот, ижтимоий гурухлар ва бутунлай жамият кира олиши мумкин бўлган ахборотлар шаклидаги энг муҳим ва қўйматга эга бўлган билимлар жамиятнинг бош бойлиги ҳисобланади. Билимлар ва уларни амалий2 жиҳатдан кўллаш кўшимча қўймат манбаи сифатида меҳнатнинг ўрнини босиб боради. Саноатлашган жамиятда меҳнат ва капитал марказий ўзгарувчилар бўлгани каби ахборот ва билимлар ҳам ахборотлашган жамиятнинг асосий ўзгарувчиси ҳисобланади;
- ялпи миллий маҳсулотда ахборот маҳсулот ва хизматлар улуши ўсиб боради;
- инсонларни ўзаро самарали ахборотли ҳамкорлиги, жаҳон ахборот ресурсларига кириш ва ахборот маҳсулот ҳамда хизматларига бўлган талабларни таъминловчи глобал ахборот фазоси яратилади;
- ўзининг хаёт фаолияти ва индивилар фаолияти учун биринчи навбатда илмий ахборотларни ишлаб чиқариш ҳусусиятига эга бўлган жамият;
- ахборотлар узатиш тезлиги, ҳажми ва ишлов бериш тезлиги ўсишини таъминлашда зарур бўлган ахборот техникалари ишлаб чиқарилади ва фойдаланилади;
- эски касбларни йўқ бўлиши ва янгиларини пайдо бўлиши, улардаги ишчилар сонидаги муносабатларни ўзгариши билан боғлик ҳода жамият профессионал тузилиши ўзгаради. Бир вактнинг ўзида ривожланган автоматлаштирилган ва компютерлаштирилган иш жойлари тизимини яратиш асосида индивидлашган меҳнатнинг улуши ортиб боради. Демак, ишлаб чиқаришда ишчининг тури шаклланиб боради;
- ахборот технологиялари маънавий маданиятга фаол таъсир кўрсатиб боради, компютер маданияти шаклланиб боради, маданият ютуклари ҳақиқий равища умумхалқ бойлигига айланниб боради. Компютерлаштириш ва таълим узлуксизлиги амалга ошиб боради;
- кишилик жамиятининг хаётй фаолиятида глобаллашув амалга ошади.

### 1-topshiriq.

Axborotlardan axborotlashgan jamiyatni qurishga olib keluvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy resurslarlarini ko‘rsatib bering.

Taraqqiyotning mumkin bo‘lgan rivojlanishida ishlab chiqarishning asosiy mahsulotlaridan biri axborot va bilimlar bo‘lib boradi. Ajralib turuvchi xususiyatlari:

❖ jamiyat hayotida axborotlar, bilimlar va axborot texnologiyalarining ahamiyat ortib boradi;

❖ ichki aylanma mahsulotlarda axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, kommunikatsiyalarda band bo‘lgan insonlar soni ortib boradi;

❖ telefon, radio, televideniya, Internet tarmog‘i, shuningdek an’anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali jamiyatni axborotlashtirish o‘sib boradi;

❖ insonlarni o‘zaro samarali axborot hamkorligini, b) ularni jahon axborotlariga kirishi, v) ularni axborot resurslari va xizmatlariga bo‘lgan talablarini qanoatlanirishni ta’minlovchi global axborot makoni yaratiladi.

## 2-topshiriq.

1.Axborotlashgan jamiyatga o‘tish bilan axborotlarga ishlov berishda kompyuterlar va AKTga asoslangan yangi sanoat paydo bo‘ldi. Axborotlashgan jamiyatga xos jihatlarni keltirib o‘ting.

- axborot resurslariga erkin kirish amalga oshiriladi.

Shu bilan birga o‘zining ijobiy tomonlari bilan birga ayni damda salbiy munosabatlarni ham kuzatish mumkin:

❖ jamiyatga ommaviy axborot vositalarini o‘ta ta’sir qilishi;

❖ sifatli va ishonchli axborotlarni tanlash muammosi mavjud bo‘ladi;

O‘zbekistonni axborotlashgan jamiyatga o‘tishdagi yo‘li uning hozirgi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy xususiyatlari bilan aniqlanadi va ularga quydagilarni kiritish mumkin:

-bir tomondan:

1) O‘zbekistonda o‘tish iqtisodiyotiga xos bo‘lgan salbiy iqtisodiy munosabatlarni mavjudligi;

3) axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan to‘lovga qobiliyatli talablarni yo‘qligi;

4) axborot mahsulotlarini asosiy iste’molchilar bo‘lgan ko‘p sonli o‘rta hollar sinfini yo‘qligi.

O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyatga o‘tishda harakatlar quyidagi masalalarni hal qilinishini taqozo qiladi:

- axborotlashgan jamiyatni texnologik asosini yaratish va rivojlantirish;

- tanlangan yo‘lni amalga oshishini ta’minlovchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va madaniy yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ommaviy iste’molchilarga yo‘naltirilgan axborot va kommunikatsiya xizmatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish sohasida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- foydalanuvchilarni axborot tizimlari bilan tarmoqli o‘zaro homkorligi

uchun muvofiqlashtirilgan arzon qurilmalarni, uy kompyuterlashtirishlarni dasturiy va servisli quvvatlovchi tizimlarni ishlab chiqish;

- aholi uchun axborot va kommunikatsiya xizmatlari bozorini tadqiq qilish hamda rivojlantirishda davlat va nodavlat tuzulmalari integratsiyasini yengillatuvchi iqtisodiy sharoitlarni yaratish.

Iqtisodiyot va jamiyatni "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida - digitization, ba'zan esa digitalization) to'g'risida fikr bildirishdan avval, birinchi navbatda, terminga anqlik kiritish zarur bo'ladi. Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni ommaviy joriy etish va ishslash ko'nikmalarini olish, ya'ni, axborotni yaratish, qayta ishslash, almashish va uzatish texnologiyalari bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sifatida tushuniladi<sup>25</sup>.

### **Nazorat savollari:**

1. Axborotashgan jamiyat tushunchasini talqin qilishda qanday yondashuv mavjud?
2. Axborotlashgan jamiyat qanday holatlarda shakllanadi va rivojlanib boradi?
3. Axborotlashgan jamiyat ko'rsatkichini aniqlovchi qanday asosiy o'zgaruvchi parametrlarni ko'rsatish mumkin?
4. Axborotlashgan jamiyatning qanday ajraib turuvchi xususiyatlari mavjud?
5. Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos jihatlari?

### **Amaliy mashg'ulot.**

## **3-Mavzu: O'ZBEKISTONDA AXBOROTLASHTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **Ishdan maqsad:**

### **Bilib olasiz:**

*Ахборотлаштириши* - юридик ва жисмоний шахсларнинг ахборотга бўлган еҳтиёжларини қондириш учун ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ҳамда ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда шароит яратишнинг ташкилий, ижтимоий-иктисодий ва илмий-техникавий жараёни эканлигини тбилиш лозим<sup>1</sup>.

<sup>25</sup> Бундай таъриф, хусусан, UNCTAD (The Transformative Economic Impact of Digital Technology,[http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09\\_Katz\\_en.pdf](http://unctad.org/meetings/en/Presentation/ecn162015p09_Katz_en.pdf)) эксперлари томонидан келтирилган

## **Masalaning qo‘yilishi:**

### **Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati.**

Mamlakatimizda fuqarolarning o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega ekani Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan. Asosiy Qonunimizning 30-moddasida O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga dahldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilangan.

Jumladan: «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, uning asosiy vazifa- lari axborot yerkinligi prinsiplari va kafolatlariga rioxo yetilishini, har kim- ning axborotni yerkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foy- dalanish va saqlash huquqlari ro‘yobga chiqarilishini, shuningdek axbo- rotning muhofaza qilinishini hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashdan iboratligi qayd etilgan. Qonunda axborot, axborot mulkdori, axborotni muhofaza etish, axborot resurslari, axborot borasidagi xavfsizlik, axborot egasi, maxfiy axborot, ommaviy axborot, hujjatlashtirilgan axborot tushunchalariga ta’riflar berilgan.

### **Ishni bajarish uchun namuna**

«Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonun<sup>226</sup> (yangi tahrirda) qachon qabul qilingan bo‘lib, axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solindi?

«Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonun<sup>227</sup> (yangi tahrirda) 2003-yil 11 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

### **1-topshiriq.**


Qonunda axborotlashtirish, axborot resurslari, axborot texnolo- giyalari, axborot tizimlari, axborot resurslarining yoki axborot tizimla- rining mulkdori; axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining egasi, bloger tushunchalariga ta’rif bering.

Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda mahfiy sirlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta’minlashi shartligi belgilangan.

---

<sup>261</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2003.- №1. - 2-м.

<sup>271</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2003.- №1. - 2-м.



## **2-topshiriq.**

«Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi qonun<sup>1</sup> qabul qilingan kun,sansasini ko‘rsating. U elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo (ERI) va qog‘ozdagi o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzoning tengligini tan olish shart- larini belgilaydi. Qonunda ERI va elektron hujjat tushunchasi; YeRIdan foydalanishni tartibga solish Vazirlar Mahkamasi va maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi; maxsus vakolatli organ vakolatlari, shu jumladan, ERI kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarining davlat ro‘y- xatiga olinishini amalga oshirish; ERI kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarining vazifalari, majburiyatlar va mas’uliyati; ERI kaliti sertifikatiga, uni berish, to‘xtatib turish va bekor qilishga talablar; yopiq ERI kalitlari egalarining va ochiq ERI kalitlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlar belgilab qo‘yilgan.Shular haqida ma’lumot bering.

## **Elektron raqamli imzoning ishlash jarayoni**

Qabul qilib olingan ma’lumotlarning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini aniqlash masalasini, ya’ni ma’lumotlar autentifikatsiyasi masalasining mohiyati haqida to‘htalamiz.

Ochiq kalitli kriptografik tizimlar qanchalik qulay va kriptobardoshli bo‘lmasin, autentifikatsiya masalasining to‘la yechilishiga javob bera olmaydi. Shuning uchun autentifikatsiya uslubi va vositalari kriptografik algoritmlar bilan birgalikda kompleks holda qo‘llanilishi talab etiladi.

Quyida ikkita (A) va (B) foydalanuvchilarining aloqa munosabatlarida autentifikatsiya tizimi raqib tomonning o‘z maqsadi yo‘lidagi qanday xatti-harakatlaridan va kriptotizim foydalanuvchilarining foydalanish protokolini o‘zaro buzilishlardan saqlashi kerakligini ko‘rsatuvchi holatlar ko‘rib chiqiladi.

*Rad etish (renegatstvo)*- Foydalanuvchi (A) foydalanuvchi (B) ga haqiqatan ham ma’lumot jo‘natgan bo‘lib, uzatilgan ma’lumotni rad etishi mumkin. Bunday qoida buzilishining (tartibsizlikning) oldini olish maqsadida elektron (raqamli) imzodan foydalaniladi.

*Modifikatsiyalash (o‘zgartirish)* -Foydalanuvchi (B) qabul qilib olingan ma’lumotni o‘zgartirib, shu o‘zgartirilgan ma’lumotni foydalanuvchi (A) yubordi, deb takidlaydi (da’vo qiladi).

*Soxtalashtirish* -Foydalanuvchi (B)ning o‘zi ma’lumot tayyorlab, bu soxta ma’lumotni foydalanuvchi (A) yubordi deb da’vo qiladi.

*Faol modifikatsiyalash (o‘zgartirish)* - (A) va (B) foydalanuvchilarining o‘zaro aloqa tarmog‘iga uchinchi bir (V) foydalanuvchi noqonuniy tarzda bog‘lanib, ularning o‘zaro uzatayotgan ma’lumotlarini o‘zgartirgan holda deyarli uzlusiz uzatib turadi.

*Niqoblash (imitatsiyalash)* - Uchinchi fodalanuvchi (V) foydalanuvchi (B)ga foydalanuvchi (A) nomidan ma’lumot jo‘natadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan: modifikatsiyalash, soxtalashtirish, faol modifikatsiyalash, niqoblash kabi aloqa tizimi qoidalaring buzilishini oldini olish maqsadida raqamli signaturadan - raqamli imzo va uzatiladigan ma’lumotning biror qismini to‘la o‘z ichiga oluvchi raqamli shifrmatndan iborat bo‘lgan ma’lumotdan foydalaniladi.

*Takrorlash* - Foydalanuvchi (V) foydalanuvchi (A) tomonidan foydalanuvchi (B)ga junatilgan ma’lumotni takroran (B)ga jo‘natadi. Bunday noqonuniy xatti-harakat aloqa usulidan banklar tarmoqlarida elektron hisob-kitob tizimidan foydalanishda noqonuniylik bilan o‘zgalar pullarini talon-taroj qilishda foydalaniladi. Ana shunday noqonuniy usullardan muhofazalanish uchun quyidagi chora - tadbirlari ko‘riladi.

- imitatsiyalashga bardoshlilik - imitabardoshlilik;
- kriptotizimga kirayotgan ma’lumotlarni muhofaza maqsadlaridan kelib chiqib tartiblash.

- Elektron raqamli imzo aloqa tizimlarida bir necha tur qoida buzilishlaridan muhofaza qilinishni ta'minlaydi, ya'ni: maxfiy kalit faqat foydalanuvchi (A)ning o'ziga ma'lum bo'lsa, u holda foydalanuvchi (B) tomonidan qabul qilib olingan ma'lumotni faqat (A) tomonidan jo'natilganligini rad etib bo'lmaydi;
- qonun buzar (raqib tomon) maxfiy kalitni bilmagan holda madifikasiyalash, soxtalashtirish, faol modifikasiyalash, niqoblash va boshqa shu kabi aloqa tizimi qoidalarining buzilishiga imkoniyat tug'dirmaydi;
- aloqa tizimidan foydalanuvchilarning o'zaro bog'liq holda ish yuritishi munosabatidagi ko'plab kelishmovchiliklarni bartaraf etadi va bunday kelishmovchiliklar kelib chiqqanda vositachisiz anqlik kiritish imkoniyati tug'iladi.

Ko'p hollarda uzatilayotgan ma'lumotlarni shifrlashga hojat bo'lmay, uni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash kerak bo'ladi. Bunday holatlarda ochiq matn jo'natuvchining yopiq kaliti bilan shifrlanib, olingan shifrmatn ochiq matn bilan birga jo'natiladi. Ma'lumotni qabul qilib olgan tomon jo'natuvchining ochiq kaliti yordamida shifrmatnni deshifflab, ochiq matn bilan solishtirishi mumkin.

### **Nazorat savollari:**

3. Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati.
4. Davlat xizmatining maqsadi va vazifalari.


### **Amaliy mashg'ulot.**

## **4-Mavzu: O'ZBEKISTONDA AXBOROT RESURSLARINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI**


**Ishdan maqsad:** Kompyuter texnikalari va telekommunikatsiyalarni barcha iqtisodiy sohalarga keng joriy qilib borilishi natijasida avvallari tasavvur qilish bir muncha murakkab bo'lgan katta hajmli axborotlarni to'plash, ishlov berish va saqlash, shu bilan birga tezkor uzatish imkoniyatlarini taqdim etishini ko'rib chiqish.

### **Masalaning qo'yilishi:**

#### **Bilib olasiz:**



Insonlar tobora ko‘proq «axborot», «axborotlashtirish», «axborot texnologiyalari» kabi tushunchalardan barcha faoliyatda keng qo‘llanilyapti. Bu vositalarni faoliyatga joriy qilinishi axborot resurslarini shakllantirishda asosiy elementlar sifatida hizmat qiladi.



O‘zbekiston Respublikasi «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonunida **«axborot resursi** — axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi» deb tushuncha beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonunda **«Axborotlashtirish** — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-teknikaviy jarayoni» deb ko‘rsatilgan.


## 1-topshiriq.

### Tashkilot axborot resurslarini shakllantirish manbaalari

Har qanday tashkilot biron-bir tashqi muhitda mavjud bo‘ladi va o‘zining ichki muhitini yaratadi. Ichki muhit korxona tuzilmaviy bo‘linmalari va unda faoliyat yuritayotgan insonlar o‘rtasidagi texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlar to‘plamidan shakllanadi.

Tashkilot doirasida vujudga kelish manbaasiga *ko‘ra tashqi va ichki axborotlardan* tashkil topgan axborot resurslariga ega bo‘ladi. Shular haqida ma’lumot bering. VENN DIAGRAMMASINI yarating.

Aniq tashkilotda undagi munosabatlar va shakllanish manbaalari ko‘ra axborot resurslarini ichki va tashqi axborot resurslariga ajratish mumkin



## 2-topshiriq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot uchun tashqi manbaalardan kelib tushuvchi tadbirkorlik axborotlarining ahamiyati katta bo‘ladi va o‘z rivojlanish strategiyalarini rejalashtirishda ularga asoslanadi (1-jadval).

**1-jadval.**

### Tadbirkorlik axborotlari tuzilishi

Axborot turlari	Izoh
Makroiqtisodiy	Mamlakat iqtisodiyoti umumiy holatini tavsiflab beradi va davlatning maxsus muassasalari yoki mustaqil institutlar tomonidan taqdim etiladi
Moliyaviy	Tashkilotning joriy va istiqbol moliyaviy holati va kapital, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi bozorida yuzaga kelgan holatlarni tavsiflab beradi, maxsus moliyaviy axborotlar xizmati, brokerlik kompaniyalari, banklar va boshqa tashkilotlar tomonidan taqdim etiladi
Birja	Valyuta kurslar, hisoblash va foiz stavkalari, qimmatli qog‘ozlar kotirovkasi to‘g‘risidagi axborotlar. Banklar, birja va maxsus agentliklar tomonidan taqdim etiladi
Tijorat	Korxonalar (banklar, firmalar, korporatsiyalar), ularni ishlab chiqarish aloqlari, ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, asosiy shartnomalari, baholar, texnologiyalar, rahbarlar, aksiyadorlar va shu kabilar to‘g‘risidagi axborotlar. Elektron ma’lumotlar bazasi davriy yangilanadigan nashrlar ko‘rinishida taqdim etiladi
Statistik	Iqtisodiy, moliyaviy, birja, ijtimoiy va boshqa ma’lumtlar dinamik qatorlar va bashoratlari baholash ko‘rinishida taqdim etiladi
Tadbirkorlik axborotlari	Axborot agentliklari va ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etiladigan biznes turli sohalari joriy axborotlari

Ommaviy axborot vositalari iqtisodiy va siyosiy tavsifdagi axborotlarni taqdim etadi. Tashqi tadbirdorlik axborotlari manbaasini bir nechta guruhlarga ajrating. (2-jadval).

### Nazorat savollari

1. Axborot resurslari haqida tushuncha bering.
2. Tashkilot axborot resurslarini shakllantirish manbaalarini ko'rsating.
3. Axborot resurslari iqtisodiy faoliyatni axborotlashtirish asosi.
4. O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalini ko'rsating.


### Amaliy mashg'ulot.

## 5-Mavzu: "EEKTRON DAVLAT"NI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MASALALARI

**Ishdan maqsad:** "Elektron hukumat" (Elektron hukumat) tushunchasining bir nechta ta'riflari mavjud. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti "elektron hukumat"ni "Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan, xususan, Internetdan foydalanib hukumatni takomillashtirish vositasi sifatida" ta'rifini o'rGANISH.

### Masalaning qo'yilishi:

#### Bilib olasiz:



### Ishni bajarish uchun namuna

"Elektron hukumat" G2C, G2B va G2G darajalarida o'zaro hamkorlikni avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu darajalarda amalga oshirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqing (1.2-jadval).

1.2<sup>28</sup>-jadval

#### O'zaro ta'sir turlari bo'yicha "elektron hukumat" modellari

Elektron hukumat modellari	Manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik
Hukumat -Fuqarolarga	Hukumat tomonidan davlat xizmat va axborotlarini bir tomonlama taqdim etish

<sup>28</sup> <http://www.infosistema.kg>

Fuqarolar-Hukumatga	Fuqarolar va hukumat o‘rtasida axborot ayirboshlash imkoniyati
Hukumat-Biznesga	Biznesga hukumat bilan tranzaksiyalar uchun zarur bo‘lgan aniq axborot larni taqdim etishdagi elektron tranzaksiyalardan tashkil topadi. Elektron xaridlar tizimini misol sifatida keltirish mumkin.
Biznes-Hukumatga	ada samarali bo‘lishida, masalan, bizneslarni boshqarish va elektron hisobga olishini yaxshilash, yordam berish uchun hukumatga ot va xizmatlarga taalluqli. Elektron xaridlar tizimi o‘lgani kabi B2Gda ham o‘zaro hamkorlikni ovchi ilova hisoblanadi.
Hukumat-Xodimlarga	Davlat xizmatlarini boshqarishni yengillatish va davlat xizmatchilari bilan ichki aloqani ta’minlovchi tashabbuslardan tashkil topadi. Masalan, inson resurslarini onlayn-boshqarish tizimi.
Hukumat- Hukumatga	Ma’lumotlar bazasi majmuasi doirasida davlat muassasa va tashkilotlari o‘rtasida onlayn axborot almashish va kommunikatsiyalar imkoniyatini beradi.
Hukumat-Notijorat tashkilotlariga	Hukumat notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlariga axborotlar taqdim etadi.
Notijorat tashkilotlari- Hukumatga	Notijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlariga Hukumat bilan axborot almashishga imkon beradi.

#### «Elektron hukumat» tushunchasiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsifi<sup>4</sup>:

*Elektron hukumat – axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z ichki va tashqi islohotlarini amalga oshirishda foydalanadigan hukumatdir.*

#### Elektron hukumat tushunchasiga Yevropa Ittifoqining tavsifi<sup>5</sup>:

*Elektron hukumat bu – axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi organlarida qo’llash bo’lib, tashkiliy o’zgarishlar hamda yangicha malakalarning joriy etilishi bilan uyg’un holda, davlat xizmatlarini va demokratik jarayonlarni takomillashtirish hamda, davlat siyosati instituvtalarini qo’llab qurvatlashga aytildi.*

### 1-topshiriq.

#### Davlat-fuqarolarga (G2C / C2G)

Endi fuqarolarga axborotni etkazish asosan ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi va tartibsizdir. Odamlar kerak bo’lganda kerakli hujjatlar bilan tanishish imkoniga ega emaslar. Elektron hukumat tizimi fuqarolarga qanday

imkoniyatlarni taqdim etadi:

Electronic «elektron hukumat» juda keng doiradagi texnologiyalarga asoslanadi (2-rasm).



Elektron hukumat arxitekturasining tarkibiy qismlari

## 2-topshiriq.

**O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar**

### **Elektron hukumat tushunchasiga Jahon Bankining tavsifi<sup>1</sup>:**

«Elektron hukumat» atamasi - fuqarolar, biznes va hukumatning turli tarmoqlari bilan munosabatlarni isloh qilishga qodir axborot texnologiyalarining Davlat organlari tomonidan, qo'llanishiga aytildi. Bu texnologiyalar turli maqsadlarda xizmat qilishi mumkin: fuqarolarga davlat xizmatlarini ko'rsatishning takomillashtirilishi; ishlab chiqarish va biznes bilan o'zaro munosabatlarning yaxshilanishi va yanada samarali davlat boshqaruvi. Natijada, korrupsiyaning qisqarishi, shaffoflikning ortishi, foydalanuvchilarga keng qulayliklar, daromadlarning ortishi va / yoki xarajatlarning kamayishi kabi afzalliklarning amalga oshishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat boshqaruvi organlarida samarali foydalanish, jamiyatning barcha qatlamlariga keng qamrovli elektron xizmatlarni ko‘rsatish va sharoitlar yaratish haqida tushunchalar bering.(Tarmoq texnologiyalarini qo'llagan holda)

## Nazorat savollari

- 1.Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Davlat boshqaruvi.
2. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini samarali joriy etish borasida olib borilgan islohotlar.
- 3."Elektron hukumat" G2C, G2B va G2G darajalarida o'zaro hamkorlikni

avtomatlashtirishni ta'minlaydi. Ushbu darajalarda amalga oshirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqing


### **Amaliy mashg'ulot**

#### **6-Mavzu: Elektron hukumatni tariflashda asosiy yondoshuvlar Elektron hukumat tizimi interaktiv xizmatlarini tashkil etish**

**Ishdan maqsad:** Yangi xizmatnini strukturaviy tahlil qilish. Uning resurslari, faoliyat maqsadlari, kutilishi rejalashtirilgan natijalar va tizimning idividual tasniflarini o'rghanishga bag'ishlangan.

#### **Masalaning qo'yilishi:**

##### **Bilib olasiz:**



#### **Ishni bajarish uchun namuna**

##### **Yangi interaktiv xizmatlarni yaratish** E-hukumat tizimiga yangi xizmatlarni yaratish va ularni kiritish, e-


hukumati tizimini xaètiy rivojlanishning asosiy jihatlaridan xisoblanadi. E-hukumat tizimidagi xizmatlarni yetkazib berish, iloji boricha inson ishtirokisiz bajarilishi, xatoliklarning kamligi xamda xizmatning sifati yuqori bo'lishiligiga asosiy sababchi bo'lishi aniqlangan.

Tizimni avtomatlashtirishdagi eng asosiy g'oya — —qog'ozbozlik sièsatini tamomlash, èki ushbu faoliyatga asoslangan jaraenlar hajmini hech bo'limganda qisman kamaytirish tushuniladi.

Amaliy ishni bajarishda BPWin dasturi tarkibidagi IDEF0 va IDEF3 vositalardan foydalanish mumkin.

Ushbu amaliy ishni bajarish uchun 1-2 amaliy ishlar bajarilgandan so'ng olingan natijalariga asoslanadi. Ya'ni xozirgi kunga kelib davlatimizning e-hukumat tizimida mavjud bo'lмаган xizmatni aniqlab, ushbu xizmatni yaratish maksadi dolzarb xisoblanadi.

Yangi xizmatlarni yaratish BPWin dasturida xizmat modelini qurishdan boshlanadi.




3.1-rasm. BPwin dasturi ish stoli

So‘ngra ushbu dastur tarkibidagi IDEF0 va IDEF3 metodi asosida diagrammalar shakllantirib boriladi.


### 1-topshiriq.

Dasturdan foydalanib, uskunalar panelidan yangi model yaratib unga nom beriladi.




3.2-rasm. Yangi model yaratish

Yaratilaётган yangi modelga nom beriladi va uning metodologiyasi tanlanadi. Dastlabki modelni IDEF0 metodologiyasidan foydalanib yaratiladi. So‘ngra model muallifi va yana bir necha sozlashlar amalga oshiriladi.




**3.3- rasm.** Model yaratishdagi dastlabki sozlashlar  
 Keyingi qadamda esa quyidagi rasmida keltirilgan oyna ochiladi. Bunda model yaratilishi uchun barcha qismlar va panellari mavjud.



**3.4-rasm.** Dastlabki ishchi oyna

## 2-topshiriq.

Endi esa dastlabki modelni ko‘rinishini ishlab chiqing.



3.5 -rasm. Model ko‘rinishi


Ushbu modelni qurishda modelning chap tomonida «kirish». Tepadan «boshqaruv». Pastdan «normativ xujjatlar va qoidalar». O‘ng tomonda esa yaratilgan «xizmat» joylashtiriladi.

Yuqoridagi amallar bajarilgandan so‘ng, yangi xizmatni yaratishning IDEF0 modelining ichki amallarini taxlil qilib chiqish lozim. Buning

uchun dastur menyusida joylashgan tugmasini bosib, IDEF3 tanlanadi va yangi xizmatni yaratish uchun xizmatning bajarilishini kadamli ravishda èritib chiqish lozim. Yangi xizmatning e-xukumati tizimiga kiritish uchun bajarilish quyidagi ketma-ketlikda ifodalanishi mumkin:

### 1.Xizmat qanday texnik talablarda ishlaydi

- Xizmat soxasini aniqlash (vazirlik, qo‘mita va agentlik)
  - Ijro turi (xududiy èki maxalliy)
  - Xizmat ijrosini bajarishni ta’minlash kabi bajariladigan amallar taxlil qilinishi lozim.



3.6 -rasm. IDEF3 modeli ko‘rinish

## Ishning bajarilish tartibi

- II. Yaratilishi rejalashtirilgan yangi xizmat tanlab olish va uni vazirlik, qo‘mita va agentlik va idoralaridan olish jaraèni va undan qaysi maqsadlarda foydalanish algoritmlari (a’nanaviy usulda e-xukumati tizimini ishlatmasdan).
- JJ. BPWin dasturida xizmatning modelini qurish va e-xukumat tizimiga kiritish taxlili
- KK. Xizmat olish jaraènidagi ichki va tashqi amallarga izox berish (IDEF3)
- LL. Xizmat olish davomiyligini aniqlash
- MM. Natija va Xulosalar.

### Nazorat savollari

- II. Yangi xizmatlar qanday yaratiladi?
- JJ. Xizmat olish jaraènidagi ichki va tashqi amallar?
- KK. BPWin dasturida xizmatning modelini qurish ketma-ketlig
- LL. e-xukumat tizimiga yangi xizmatlarni kiritish?

### Amaliy mashg‘ulot.

**7-Mavzu:** O‘zbekistonda interaktiv davlat xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirilishi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı my.gov.uz dan amaliètda foydalanish

**Ishdan maqsad:** Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini amalda qo‘llash. Uning resurslari, faoliyat maqsadlari, interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish.

#### Masalaning qo‘yilishi:

#### Bilib olasiz:

Тингловчи my.gov.uz portali, яъни Ягона интерактив давлат хизматлари порталидан ID.uz ягона идентификация тизим орқали рўйхатдан ўтиши керак бўлади хамда интерактив хизматлар орқали давлат ташкилотига мурожаат этиши лозим.

### Ishni bajarish uchun namuna

Yagona portal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi —Interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida||gi

378-sun qarori aosida tashkil etilgan hamda mazkur Qaror bilan qabul qilingan Nizomga ko‘ra faoliyat yuritadi.

my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (Yagona portal) 2013 yilning 1 iyul kuni ishga tushirilgan bo‘lib, Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan «bir darcha» rejimida faoliyat ko‘rsatadi.

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadi fuqarolarga interaktiv davlat xizmatlarin ko‘rsatishdir. U yagona oyna rejimida faoliyat ko‘rsatadi. Yagona portal zamonaviy texnologiya èrdamida foydalananuvchining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan.

Ягона интерактив давлат хизматлари порталининг вазифалари:

- фойдаланувчиларга давлат органларига тўғридан-тўғри мурожаат қилиш учун имконият бериш;
- фойдаланувчиларни АКТ соҳасидаги бошқа лойиҳалар билан интеграциялаш;
- фойдаланувчиларнинг давлат органлари билан ўзаро ҳамкорлиги самарадорлигини ошириш;
- давлат органларига мурожаат қилинганда, фойдаланувчилар учун бюрократик тўсиқларни кисқартириш ва уларни бартариф этиш;
- электрон ҳукуматини янада ривожлантириш ва давлат бошқарувига замонавий АКТ ни жорий этишда кўмаклашиш.

## 1-topshiriq.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı 2013 yil 1 iyulda ishga tushirildi. U quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Davlat tashkilotlari va xizmatlariga oid ma’lumotlardan foydalanish.
- Davlat xizmatidan foydalanish uchun elektron shakldagi so‘rovlarni va boshqa hujjalarni to‘ldirish imkoniyati.
- Davlat xizmatidan foydalanish uchun so‘rov (Ariza) yuborish.
  - So‘rovlarni ixtiёriy paytda va manzildan yuborish.

- So‘rov qabul qilinishi uchun navbatda turish zarurati bo‘lmaydi.
- So‘rovni yuboruvchi arizasining bajarilishiga oid ma’lumotlar- dan ixtiériy paytda xabardor bo‘lish imkoniyati.
- Davlat xizmatlari berilishi haqidagi so‘rovni berish.
- Davlat xizmati so‘rovi natijalarini olish imkoniyati.



### 1.1-rasm

Shuningdek, Yagona portal orqali 120 dan ortiq davlat organlariga bevosita elektron tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratilgan. Va bu organlar ro‘yxati vaqt o‘tishi bilan kengayib bormoqda.

Yagona portal orqali ko‘plab foydali va zarur ma’lumotlar ham berib boriladi. Masalan, mazkur portaldan notarial harakatlarning turlari va bunday harakatlarga to‘lanadigan davlat bojlari (1), Ichki ishlar organlarining Kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqiladigan huquqbuzarliklar va ular uchun qo‘yiladigan jarimalar miqdori (2), Yo‘l harakati qoidasi buzilishi yuzasidan belgilanadigan jarimalar miqdori (3), Davlat o‘rmon fondidan tashqari, daraxtlar va butalarni kesish uchun to‘lanadigan to‘lovlar miqdori va yashil o‘simliklarga yetkazilgan zarar va ularni o‘zboshimchalik bilan kesganlik uchun jarima miqdorlari (4) bilan tanishish mumkin.

Davlat yo‘l harakati xavfsizligi organlari tomonidan yo‘l qoidasi buzilishi yuzasidan belgilanadigan jarima miqdori bo'yicha ma'lumot				
O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi moddalarli	Huquqbuzarlik turi	Eng kam ish haqining miqdorida jarima qilmati	Transport vositalasini boshqarish huquqidan mahrum etilish muddatasi	Jarima miqdori
125-modda. Transport vositalaridan foydalanan qoidalarini buzish				
125-modda 1-qism	Haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo‘lovchilar tashishda xavfsizlik kamidan foydalaniш qoidalariga, yuhud shuningdek motosikl haydovchilarining motoshlemlardan foydalaniш qoidalariга rivoя etmasligi	eng kam ish haqining beshdan bir qismini miqdorida		26048 so‘m
125-modda 2-qism	Haydovchilarning belgilaning tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilaman yoki majburliy texnik ko‘rildan o‘tkazilaman yuhud foydalaniш man ellidigan danjada nosozligi bo‘lgan, suddi shuningdek ishlayotganida rashqariga chiqarayotgan iflosolantiruvchi modalitaming meʼoriy, shuningdek shovinje darejasi belgilanigan normallardan ortiq bo‘lgan transport vositalarini boshqarishi	eng kam ish haqining ikkitan bir qismini miqdorida		65120 so‘m
125-modda 3-qism	Haydovchilarning tormez tizimida, nol boshqaruvda yoki ulovchi qurilmada nosozligi bo‘lgan yuhud tegishli ruxsatnomasiz qiyata jhoozhang transport vositalarini boshqarishi	eng kam ish haqining bir baravari miqdorida	yoki transport vositalini boshqarish huquqidan olli oyqacha muddatga mahrum etish	130240 so‘m

### 1.2-rasm. Yo‘l qoidasi buzilgandagi jarimalar miqdori haqida ma’lumot

Bundan tashqari portaldan ishonch telefonlari bo‘limi ham joy olgan bo‘lib, unda 19 ta ishonch telefoni ko‘rsatib o‘tilgan.

Barcha xizmatlar	Barcha tashkilotlar	Qisqa raqamlar	Tadbirkorlik	NILLI muhokamasi	yangilik
101 Yong‘in xavfsizligi xizmati	102 Militsiya	103 Tez yordam	104 Gaz xizmati		
1050 Qutqaruv xizmati	1002 "DORI DARMON" AK (dorixonalar bo‘yicha ma’lumot)	1007 Bosh prokuratura ishonch telefoni	1008 Adliya vazirligi ishonch telefoni		
1054 "Suvsoz" DUK (avariya xizmati)	1055 Toshkent shahri kommunal xizmatlari bo‘yicha dispetcherlik xizmati	1056 Kommunal-sozlash avariya tiklash xizmetlarining Markaziy dispetcherlik xizmati	1062 "Toshshahartransxizmat" AK ishonch telefoni		
1064 TShTT ma’lumot berish xizmati (Shaharlar kodlari)	1065 «UZDIGITAL TV»	1068 ShTS (to‘g‘ri simlar ta’mirlash buyurosni)	1069 Dorixonalar bo‘yicha ma’lumot		
1086 Shahar telefonlarni ta’mirlash bo‘yicha buyurtmani qabul qilish	1004 Aniq vaqt haqida ma’lumot berish xizmati	1001 Ob-havo ma’lumoti			

### 1.3-rasm. Ishonch telefonlari ro‘yxati

Va yana portalda fuqarolar tomonidan so‘ralgan savollarga berilgan javoblarni o‘zida mujassam etgan —Ko‘p beriladigan savollar|| bo‘limi hamda bo‘sh ish o‘rinlari ro‘yxati ham joy olgan.

Yagona portal davlat interaktiv xizmatlaridan foydalanish tartiblari:  
Foydalanuvchi davlat interaktiv xizmatidan foydalanish ruxsatnoma  
asosida amalga oshiriladi.

Foydalanuvchi arizasiga asosan ruxsatnoma berish va uni berkitib èki èpib qo‘yish huquqlariga —O‘zinfokom|| marka- zi èki Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi kompyuterlashtirish markazlari ega, ya’ni ushbu markazlar ushbu faoliyatni olib borish vakolatiga ega va mas’ul markazlar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar (ariza va passport asosida) va yuridik shaxslar (ariza va ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida) uchun shaxsiy kabinetdan erkin foydala- nishga ruxsatnoma bir èki ikki kunmobaynidan mas’ul mar- kazlar tomonidan beriladi.

Foydalanuvchi o‘zi to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlar o‘zgarganda besh kun muddatda bu haqda mas’ul markazga xabar berishi shart.

Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish tartiblari Yagona portal nizomida batafsil keltirilgan. Quyida arizani berish, javob berish, rad etish, ko‘rib chiqish tartibi va muddati hamda nazoratiga oid tartiblarini qisqacha keltiramiz.

#### Arizani berish tartibi

Foydalanuvchilar shaxsiy kabinet orqali o‘z murojaatlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va davlat tashkilotlariga yuborishlari mumkin.

Murojaat bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hamda murojaatlarda qo‘yilgan masalalarni hal etish vakolatiga kiradigan bir nechta davlat organlariga yuborilishi mumkin.

Foydalanuvchi shaxsiy kabinetidan yuborgan murojaat elektron raqamli imzo va ularni identifikatsiyalovchi boshqa hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak.

Foydalanuvchi arizaga zarur hujjatlar, xatlar va rasmlarni ilova qilishi mumkin.

Arizani qabul qilish tartibi:

Mas’ul xodim ariza qabul qilinganligi to‘g‘risida foydalanuvchiga xabar jo‘natadi.

Arizaga javob berish tartibi:

Foydalanuvchi arizasiga javob ko‘rsatilgan pochta manziliga yuboriladi.

Foydalanuvchi arizasi murojaatlar uchun belgilangan tartib va muddatda ko‘rib chiqiladi.

Foydalanuvchi arizasiga javob oluvchining èki boshqa vakolatli xodimning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ariza rad etilish tartibi: Quyidagilar foydalanuvchi murojaatini ko‘rib chiqishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

Odobsizlik mazmunidagi murojaatlar (axloqsiz èxud haqoratlari iboralar, tahdidlar, mantiq va ma’nosini bo‘lmagan takliflar va shunga o‘xshash murojaatlar).

Matnda tushunarsiz qisqartirishlar èki reklama materiallari mavjud bo‘lgan arizalar.

Tarkibida aniq arizalar, shikoyatlar èki takliflar bo‘lmagan murojaatlar. • Rad etishning asoslangan sabablari ko‘rsatilgan rad javobi foydalanuvchiga bir ish kuni mobaynida yuboriladi.

Ariza vakolatiga kirmaydigan davlat organlariga tushganda, u besh kun muddatda, foydalanuvchi xabardor qilingan holda tegishli organga yuboriladi.

Arizalarni ko‘rib chiqish tartibi:

Foydalanuvchi shaxsiy kabinet orqali berilgan arizasi majburiy qabul qilinishi va ko‘rib chiqilishi kerak, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bunda ushbu murojaat Mas’ul xodim elektron pochtasiga kelib tushgan sana – murojaat qabul qilingan sana hisoblanadi. Arizalarni ko‘rib chiqish muddati:

Takliflar – bir oygacha muddatda. Agar qo‘srimcha o‘rganishlar talab qilinsa, bu to‘g‘rida foydalanuvchi o‘n kun muddatda xabardor qilinadi. Bunda muddat ariza oluvchiga tushgandan boshlab hisoblanadi.

Ariza èki shikoyatlar – o‘n besh kun muddatda. Agar qo‘srimcha o‘rganish va (èki) tekshirish o‘tkazish, qo‘srimcha hujjatlar talab etilsa – bir oygacha muddatda. Bunda muddat ariza Mas’ul xodimga tushgandan boshlab hisoblanadi.

Ariza nazorati va javobgarlik tartibi:

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Davlat tashkilotlari rahbarlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiy bo‘linmalari Yagona portal orqali ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatishning asossiz rad etilganligi va xizmatlar sifatsiz ko‘rsatilganligi uchun javob beradilar.

Foydalanuvchi arizada noto‘g‘ri ma’lumotlar berganligi, uydirma va haqoratlar bo‘lgan murojaatlar uzatganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.


Yagona portaldan foydalanishning foydalanuvchi uchun ba’zi imkoniyatlari

Kommunal xizmat, elektr energiya va suv iste’molchilari ushbu xizmat xarajatlari haqidagi shaxsiy malumotlardan foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu imkoniyatdan foydalanish tartibi juda osondir. Ushbu xizmatga doir ariza va shikoyatlarni Yagona portal orqali tezda jo‘natish va hal qilish imkoniyati yaratildi. Bunda arizaga hujjatlar va rasmlarni ilova qilish imkoniyati mavjud.

Chet el fuqarolari O‘zbekistonga viza rasmiylashtirish uchun interaktiv xizmatdan foydalanishi mumkin. Buning uchun hamkasb èki do’stlarini bezovta qilish zarurati yo‘qoldi. Tadbirkorlar uchun onlayn interaktiv xizmatlar Yagona portal samarali imkoniyatlaridan biri aloqa natijalari SMS xabarlar èrdamida jo‘natilishidir. Bu aloqani qulay va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Chunki foydalanuvchi ariza yetib borganligi va ishga tushganligi haqida xabardor bo‘ladi va bu haqda Yagona portaldan xabarlar èzib, xodimlarni qo‘srimcha savollar va e’tibor bilan bezovta qilmaydi. Natijada foydalanuvchi bezovta bo‘lmaydi va xodimlar qulay sharoitda ariza ko‘rilishi tartibiga rioya qilgan holda ishini davom ettiradi.

Yagona portaldan 4 xil ro‘yxatdan o‘tish usuli mavjud:

0. SMS tasdiqlash orqali ya’ni Yagona portaldan ro‘yxatdan o‘tiladi.
  1. ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro‘yxatdan o‘tiladi.
  2. Elektron raqamli imzo orqali.
  - 3.UzCARD èrdamida.




#### 1.4-rasm

Misol qilib portaldan to‘laqonli foydalanish hamda davlat organlariga murojaat qilish uchun ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro‘yxatdan o‘tishni misol qilib ko‘ramiz. Dastlab ID.uz – Yagona identifikatsiya

tizimidan ro‘yxatdan o‘tiladi.

1.5-rasm

ID.uz- yagona identifikasiya tizimidan ro‘yxatdan o‘tib, so‘ng yagona portalga kiraётganda aynan o‘sha ID profil orqali tizimga ma’lumotlar kiritiladi.



1.6-rasm

Shundan so‘ng, foydalanuvchi kabineti ochiladi. U yerda Profil, Yuridik shaxs, Mening arizalarim, Mening qoramalarim, Mening ma’lumotlarim kabi bo‘limlar mavjud.

Profil	
Yuridik shaxs	2000032443
Mening arizalarim	Alishertult
Mening qoramalarim	Abdullaev Alisher Ilhamovich
Mening ma’lumotlarim	alishertult@inbox.uz
Mening bank kartalarim	
Biznesni ro‘yxatdan o’tkazish	
To’lovlar	
Tanlangan xizmatlar	
Public ID	2000032443
Login ID/STIR	Alishertult
F.I.O.	Abdullaev Alisher Ilhamovich
Elektron pochta	alishertult@inbox.uz
Telefon raqami	
Jins	Erkak
Tug‘ilgan sana	1988-02-11
Pasport seriyasi/raqami	
Kim tomonidan berilgan	Qo‘qon shahar II B
Pasport berilgan vaqt	2013-01-19
Yashash joyi	Город Ташкент, Юнусабадский район, Узбекистан
Amal qilish muddati	2023-01-18
Ro‘yxatga olingan vaqt	2015-05-06 03:58:34
So‘nggi kirish	2016-04-21 12:06:02

1.7-rasm

Foydalanuvchining shaxsiy kabineti  
Profilda shaxsiy ma’lumotlarni tahrirlash imkoniyati mavjud. Mening

arizalarim bo‘limida yuborilgan arizalar ro‘yxati, ularning holati va ularga berilgan javob xatlari bilan tanishish imkoniyati mavjud.

The screenshot shows the Yagona interactive government services portal. At the top, there's a search bar with placeholder text "Izlash...". Below it, two buttons: "Xizmatlar bo'yicha" and "Tashkilotlar bo'yicha". On the right side, there's a sidebar with icons for "Davlat tashkilotiga murojaat yuborish", "Davlat organi rahbariyati qabuliga yo'llish", "Call-center: 1060 yoki (0800) 200-18-18", and "TJKK masalalari bo'yicha murojaat (Call-center 1095)". The main area has tabs for "Saralash" and "Arizalar ro'yxati". Under "Saralash", there are fields for "Murojaat raqami", "Sana (dan)", "Sana (gacha)", "Status", and "Statusni tanlang". Under "Arizalar ro'yxati", there's a table with columns for "Xidob", "Tashkilot", "Taqdirm etilgan vaqt", and "Maqomi". The table contains several entries, each with a green "Ko'rib chiqish" button.

1.8-rasm. Murojaat yuborish

Yagona portalning eng qulay tomoni bu davlat organlariga bevosita elektron murojaat qila olish imkoniyati borligidir. Bu fuqarolarga ancha qulayliklar yaratadi. Agar ilgari èzilgan murojaatni chop etib, konvertga solib, pochtadan yuborib èki bevosita fuqaroning o‘zi o‘sha murojaat xatini davlat organi binosiga olib borib berib, ortiqcha harajat va harakat, asosiysi qimmatli vaqtini yo‘qotgan bo‘lsa, endilikda uyda o‘tirgan holda ham, ko‘chaga bir qadam chiqmasdan tegishlicha shikoyat qilish, ariza èki taklif berish imkoniyati mavjud.

## 2-topshiriq.

### Qanday qilib murojaat qilish mumkin?


Avvalo yuqorida ta’kidlanganidek, Yagona portal tizimiga kiriladi. So‘ngra portalning yuqori o‘ng burchagida turgan —Davlat tashkilotiga murojaat qilish tugmasi bosiladi.

5 qadamdan iborat quyidagi oyna ochiladi:

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent sh., 09.12.2015y., O'RQ-395-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947- sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldag'i PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabr sanadagi PQ-4022-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 dekabrdagi PF-5598-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 maydag'i PQ-4321-sonli "Raqamli iqtisodiyot va «elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

11. Analiz mirovogo opyta razvitiya promishlennosti i podxodov k sifrovoy transformatsii promishlennosti gosudarstv-chlenov Yevraziyskogo ekonomicheskogo soyuza / Informatsionno-analiticheskiy otchet YeEK. - M.: YeEK. - 2017. - 116 str.

## **Internet saytlari**

12.[www.gov.uz](http://www.gov.uz). – (O'zbekiston Respublikasi xukumat portali)

13.[www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz) – (Davlat interaktiv xizmatlari portali).

14.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) – (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).

15.[www.udemy.com](http://www.udemy.com) – (Ochiq kodli ommaviy on-line kursi).

16.[www.KhanAcademiya.com](http://www.KhanAcademiya.com) – (Ochiq kodli ommaviy on-line kursi).

17.[www.catback.ru](http://www.catback.ru) – (Iqtisodga oid o'quv materiallari va ilmiy журнallar).

18.[www.mf.uz](http://www.mf.uz) - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O'quv-uslubiy bo'lim tomonidan  
ro'shatga olindi:  
№ 190705  
2019 yil "30" 08

"TASDIQLAYMAN"  
Toshkent moliya instituti  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
I.N.Qo'ziyev  
2019 yil "30" 08



DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING MILLIY  
TIZIMI

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	– Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi:	230000	– Iqtisod
Ta'lim yo'nalishlari:	5231300	– Pensiya ishi
	5231500	– Baholash ishi
	5232000	– Davlat budjetining g'azna ijrosi
	5232700	– Investitsion loyihalarni moliyalashtirish
	5232800	- Elektron tijorat

Toshkent – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi, Toshkent moliya instituti Kengashining 2019 yil "30", 08 dagi 1-sonli buyrug'i (buyruqning —-ilovasi) bilan tasdiqlangan "Davlat xizmatlarini ko'rsatishning milliy tizimi" Fan dasturi asosida tayyorlangan.


**Tuzuvchilar:**

- Mamajanov J. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining raisi o'rinnbosari (*kadrlar buyurtmachisi*)  
A.Ro'ziyev TMI, "Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n.; (*tayanch OTMdani*)  
U.Asrayev TMI, "Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi.  
(*tayanch OTMdani*)

**Taqrizchilar:**

- R.Alimov TDIU, "Ekonometrika" kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori (*turdosh OTMdani*)  
A.Kenjabayev TMI, "Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrasi professori, i.f.d. (*tayanch OTMdani*)


Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 2019 yil "1" 08 dagi 2-sonli majlisida muhokama etilib, "Byudjet hisobi va g'aznachilik" fakultet Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**"Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri**  
2019 yil "8" 08  i.f.n., dots. U.Yakubov

Fanning ishchi o'quv dasturi "Byudjet hisobi va g'aznachilik" fakulteti Kengashinin 2019yil "17" 09 dagi 1-sonli majlisida muhokama etilib, O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**"Byudjet hisobi va g'aznachilik" fakulteti dekani**  
2019 yil "17" 08  i.f.n., dots. U.Ortiqov

Fanning jshchi o'quv dasturi institut O'quv-uslubiy Kengashining 2019yil "19" 08 dagi "1" — sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**Kengash kotibi:**  
2019 yil "20" 08  i.f.n., dots. T.M.Baymuratov

## Kirish

Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotni zamonaviy axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni ta’minlash imkonи oshdi.

O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, internet tizimini qo‘llash orqali integratsiya jarayonini ta’minlash dolzarb va muhim vazifalardan sanaladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tizimiga asoslangan milliy Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha elektron hukumat tizimini yaratilishi, uning barcha imkoniyatlarini ijtimoiy va iqtisodiy, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, communal sohalarga tatbiqetish-xalq manfaatlarig xizmat qilishi, mehnat samaradorligini oshirishi, jamiyat uchun yangi imkoniyatlar, qulay shart-sharoitlar yaratishi tajribadan isbotlangan. Shu sababdan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan jamiyat taraqqiyoti poydevorini qurish maqsadidaqator qonunlar, hukumat qarorlari qabul qilinib, amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalar belgilangan.

«Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning milliy tizimi» fanining mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarori hamda 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarorlarining asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan va unda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini o‘qitishda zarur bo‘lgan asosiy jihatlar yoritilgan.

### I. O‘quv fanning dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

“Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning milliy tizimi” fani axborotlashtirish, axborotlashgan jamiyat, raqamli iqtisodiyotda interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish, elektron hukumat milliy tizimini yaratishdagi jahon tajribasi, O‘zbekistondagi holati, huquqiy asoslari, rivojlantirish bosqichlari, ahamiyati hamda bevosita milliy tizim bilan ishslash malakalari, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda shu sohada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

Talabalarning ushbu fanni chuqur o‘rganishi davlat xizmatlari ko‘rsatish

milliy tizimini yaratilishi, O‘zbekiston Respublikasida axborotlashtirish jarayonlari, axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish jarayonlari, raqamli iqtisodiyot, yagona interaktiv davlat portalı, davlat portalini rivojlantirish va takomillashtirishda mamlakatda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy tizimda ishslash malakalarini o‘rganishda, shuningdek, fuqarolarga bu davlat xizmat ko‘rsatish milliy tizimidan samarali foydalanishni targ‘ib qilishda xizmat qiladi.

## **II. O‘quv fanning maqsadi va vazifasi**

Fanning maqsadi— “Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning milliy tizimi” fanining asosiy maqsadi talabalarda davlat boshqaruvi va sub’ektlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda innovasion usul hamda mexanizmlarni joriy etilganligi, jumladan yagona interaktiv davlat portalı va undan foydalanish, hozirgi kungacha bu tizimda ishga tushirilgan loyihamar, bu sohadagi jahon tajribasi, istiqboli to‘g‘risida fikr yurita olish yo‘nalishida mos nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarnishakllantirishdan iborat.

Fanningvazifasi – zamonaviy axborot kommunikatsion va raqamli texnologiyalardan foydalasngan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatayotgan milliy tizim, tashkil etuvchi komponentlari, masalalari asoslaridan nazariy va amaliy bilimlarni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan bo‘yicha talabalar davlast boshqaruvirdagi axborot tizimlari to‘g‘risidagi bilimlarga, Internet tarmog‘i orqali davlat xizmatlarini olish va xizmat ko‘rsatish milli tizimidan samarali foydalanish malakalariga ega bo‘lishi, etika va axborot madaniyati kabi tushunchalarni o‘zlashtirishlari lozim bo‘lib, bilim, ko‘nikma va malakasiga quyidagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

- davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini shakllantirish tamoyillari;
- davlat xizmatlari milliy tizimidan foydalanishda zarur bo‘lgan texnik va dasturiy vositalar;
  - davlat va interaktiv xizmatlar portalı, kommunikatsiya va Internet tarmog‘i;
  - davlat va hukumat boshqaruvi hamda xizmatlari;
  - axborotlashtirish, elektron hukumat, interaktiv davlat xizmatlari va ahborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar;
  - davlat va hukumat boshqaruvi hamda xizmatlarida joriy etilayotgan axborot-kommunikatsiya tizimlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
  - Internet va kompyuterdan samarali foydalanish, axborot madaniyati va Internetdan foydalanish qoida va etikasi, axborot xavfsizligi tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
  - davlat boshqaruvda, tashkilot va organlarida joriy etilgan axborot tizimlari, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda axborot-kommunikatsiya tizimlarini qo‘llash sohalari;

- axborot tizimlari va texnologiyalarining funksional imkoniyatlari va ularidan oqilona foydalanish;
- turli vaziyatdan kelib chiqqan holda samarali va maqsadsli qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat boshqaruvi va xizmatlarida joriy etilgan axborot tizimlari va texnologiyalari, xizmat axborotlarini olishni shakllantirish, guruhlash va tahlil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

### **III. FANNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI HAMDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH**

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, pertseptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarini baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetentsiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rGANISH, tahlil qilish va qayta ishslash;
- o'rGANISH natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'limga oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limga samarali tashkil etish talab etiladi.

5230600 –“Moliya”, 5230700-“Bank ishi” , 5230800-“Soliqdfk va soliqqa tortish”, 5230900-“Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha”, 5231200-“Sug'urta ishi”, 5231300-“Pensiya ishi”, 5231500-“Baholash ishi”, 5232000-“Davlat budgetining g'azna ijrosi”, 5232100-“Korporativ moliya”, 5232700-“Investitsion loiyhalarni moliyalashtirish”, 5232800-“Elektron tijorat”ta'limga yo'naliшlarida “Davlat xizmatlarini ko'rsatishning milliy tizimi” fanidan o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilganoatlar hajmining taqsimoti

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami	Shu jumladan:		
			ma'ruza	amaliy mashg'ul ot	mustaqil ta'limga
<b>1-modul. Davlat xizmatlarini ko'rsatish milliy tizimini qurish</b>					
1.	“Davlat xizmatlarini ko'rsatish milliy tizimi” faniga kirish	6	2	2	2
2.	Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati	6	2	2	2
3	O'zbekistonda axborotlashirishning me'yoriy-	8	2	2	4

	huquqiy asoslari				
4.	<u>O‘zbekistonda axborot resurslarini shakllantirish yo‘nalishlari</u>	8	2	2	4
5.	Davlat xizmatlarini shakllantirishning nazariy masalalari	8	2	2	4
6.	Elektron hukumatni tariflashda asosiy yondoshuvlar	8	2	2	4
7.	O‘zbekistonda interaktiv davlat xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirilishi	8	2	2	4
<b>2-modul. O‘zbekistonda interaktiv innovasion davlat xizmatlari milliy tizimini joriy etilishi</b>					
8	Elektron hukumat raqamli iqtisodiyot elementi sifatida	8	2	2	4
9	O‘zbekistonda taqdim etilayotgan interaktiv davlat xizmatlari	8	2	2	4
10	Kommunal to‘lovlarni amalgalashda interaktiv xizmatlar	8	2	2	4
11	Mobil va onlayn to‘lov tizimlari	8	2	2	4
12	Qonunchilik onlayn portali va mobil tizimlari	8	2	2	4
13-14	Davlat soliq tizimi interaktiv xizmatlari	12	4	4	4
<b>Jami</b>		<b>104</b>	<b>28</b>	<b>28</b>	<b>48</b>

## **ASOSIY QISM**

### **1. Fanning nazariy mashg’ulotlari mazmuni**

#### **1- modul. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish milliy tizimini qurish**

##### **1-mavzu. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish milliy tizimi faniga kirish**

“Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning milliy tizimi” fani axborotlashtirish, axborotlashgan jamiyat, raqamli iqtisodiyotda interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish elektron hukumat milliy tizimini yaratishdagi jahon tajribasi, O‘zbekistondagi holati, huquqiy asoslari, rivojlantirish bosqichlari tahlili va an’analari, ahamiyati hamda bevosita milliy tizim bilan ishlash malakalari, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda shu sohada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab oladi.

“Davlat xizmatlarini ko‘rsatishning milliy tizimi” fanining asosiy maqsadi talabalarda davlat boshqaruvi va sub’ektlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda innovatsion usul va mexanizmlarni joriy etilganligi, jumladan, yagona interaktiv davlat portalini va undan foydalanish, hizirgi kungacha bu tizimda ishga tushirilgan loyihalar, bu sohadagi jahon tajribasi, istiqboli to‘g’risida fikr yurita olish yo‘nalishida mos nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni

shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining hammasi ham bu haqda to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmasada, vaqt o‘tishi bilan ushbu tizim jamiyat hayotining butun jabhasini qamrab olishini dunyo tajribasi ko‘rsatmoqda. Shu munsoabat bilan aholini kompyuter savodxoniligini oshirish, uning davlat elektron va interaktiv xizmatlaridan foydalanishga o‘rgatish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun o‘qitish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Elektron hukumat tizimi idoralararo darajada davlat muassasalari o‘rtasida axborot almashish samaradorligini hamda joylarda rejalashtirish va boshqaruvning sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Jamoatchilik fikrini muntazam monitoring etib borish hamda unga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Elektron hukumatxalq bilan muloqot uchun qo‘srimcha mexanizmlarni yaratish, davlat organlari faoliyatining samaradorligi, tezkorligi hamda shaffofligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ijro-intizomini yanada mustahkamlaydi. Har qanday mamlakatda milliy ma’lumotlar bazasi hamda elektron reestrlar elektron hukumat faoliyatining asosiy jihatlari hisoblanadi. Bu mexanizmlar jiemoniy va yuridik shaxslar, avtomobil transporti, ko‘chmas multk, davlat xizmatlari to‘g’risidagi ma’lumotlarni tizimlashtirish imkonini beradi.

Turli idoralar axborot tizimlari o‘rtasida elektron hamkorlikka o‘tilishi aynan elektron hukumatning shakllanish jarayoni sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan davlat boshqaruva organlarida samarali foydalanish, jamiyatning barcha qatlamlariga keng qamrovli elektron xizmatlarni ko‘rsatish va sharoitlar yaratmoqda.

Elektron hukumat tizimini yaratish arzon va samarali ma’muriy boshqaruvga olib kelishi bilan jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tubdan o‘zgartiradi, buning natijasida hokimiyatning xalq oldidagi mas’uliyati oshadi.

## **2-mavzu. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati**

Axborotlashgan jamiyat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari natijasida kirib kelgan zamonaviy taraqqiyotning eng rivojlangan fazasi. Axborotlashgan jamiyatni shakllanishi va rivojlanishining asosiy holatlari. Axborotlashgan jamiyatning bosh maqsadi. Axborotlashgan jamiyat istiqbolining asosiy xususiyatlari. Axborotlashgan jamiyatga xos jihatlar. Axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy tomonlari. Raqamli iqtisodiyot jamiyat rivojlanishining yuqori bosqichi. Raqamlashtirish tufayli tubdan o‘zgaradigan iqtisodiyot va davlat boshqaruvining xususiy institusional maydonini tahlil va tadqiq qilish alohida ahamiyati.

## **3-mavzu.O‘zbekistonda axborotlashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari**

*Axborotlashtirish.*Davlatning axborotlashtirish sohasidagi siyosati O‘zbekiston hukumati axborotlashtirishga iqtisodiy rivojlanish va aholining

turmush darajasini oshirishning strategik ustuvor yo‘nalishi sifatida qaramoqda. “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to‘g’risida”gi qonuni. “Axborotlashtirish to‘g’risida”gi qonun. “Elektron raqamli imzo to‘g’risida”gi qonun. “Elektron hujjat aylanishi to‘g’risida”gi qonun. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g’risida”gi qonun. “Bir darcha” printsipi. Elektron hukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solish. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlan tirish vazirligi.

2013-2020-yillarda O‘zbekistonda telekommunikatsiya texnologiyalari, aloqa infrastrukturasi va tarmog’ini rivojlantirish dasturi. “Elektron hukumat” tizimining axborot tizimlari komplekslari va ma’lumotlar bazalarini yaratish bo‘yicha loyiha va chora-tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005yil 26sentabrdagi “Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g’risida”gi 215-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005yil 22noyabrdagi “Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g’risida” 256-sonli qarori, “Axborotlashtirish to‘g’risida”gi qonun ijrosini ta’minalash, axborotlashtirish sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va davlat axborot resurslarini shakllantirish, davlat organlarining axborot tizimini barpo etish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda Davlat axborot resurslarini shakllantirish tartibi to‘g’risidagi va Davlat organlarining axborot tizimlarini tashkil etish tartibi to‘g’risidagi Nizomlar tasdiqlangan hamda birinchi Nizomning ilovasida Davlat organining rasmiy saytiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006yil 20fevraldagagi “Davlat axborot resurslari hamda ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g’risida”gi 27-sonli qarori respublikada davlat axborot resurslarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, maxsus markazlar –“Elektron hukumat tizimini rivojlantirish markazi” hamda “Axborot xavfsizligini ta’minalash markazi”ni tashkil etish belgilangan.

“Elektron hukumat” tizimining jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g’risidagi va “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikasiyalashning yagona axborot tizimi to‘g’risidagi nizomlar.

2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi amalga oshirilishini muvofiqlashtirish Respublika komissiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mazkur komissiyaning ishchi organi.

#### **4-mavzu. O‘zbekistonda axborot resurslarini shakllantirish yo‘nalishlari**

Axborot resurslari. O‘zbekiston Respublikasida mavjud axborotlar bozori. Davlat axborot resurslari tashkil etish yo‘nalishlari. Tashqi va ichki axborotlardan shakllangan axborot resurslari. Alovida insonlar, guruhlar, jamoa va tashkilotlarning faoliyati ularning axborotlashganlik darajasiga va mavjud axborotlardan samarali foydalanish xususiyatlariga bog’liq.

Hozirgi davr axborot oqimlari hajmi tez sur’atlarda o‘sib borish jihatlari bilan xususiyatlanadi. Bozoriy munosabatlar ma’lumotlarning o‘z vaqtida olinishiga, to‘g’riligiga, to‘laligiga va saqlanishiga juda katta talablar qo‘yadi va bularsiz moliya-kredit, investitsion va marketing faoliyatining samarali rivojlanishi mumkin emas. Axborot resurslariga axborot tizimi ega bo‘lgan barcha axborotlar hajmi.

Axborot resurslari jismoniy, xuquqiy shaxslar va davlat orasidagi munosabatlar ob’ekti bo‘lib hisoblanadi va boshqa resurslar kabi qonunlar himoyasida bo‘ladi. **Axborotlashtirish** — yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

Informatikaga tegishli ravishda axborot resurslari deyilganda avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari va hizmatlari bilan birga ko‘rib chiqiladigan axborot tizimidagi kutubxona, arxivlar, fondlar, ma’lumotlar va bilimlar bazasi sifatida tashkil etilgan alohida hujjatlar, hujjatlar massivi va fayllar tushuniladi. O‘z navbatida hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida mavjud axborotlar bozorini bir nechta sektorga ajratib ko‘rish mumkin.

Davlat axborot resurslarini tashkil etish yo‘nalishlari. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Davlat axborot resurslari, ba’zi mahfiy axborot resurlardan tashqari, odatda ochiq va umumfoydalaniladigan bo‘ladi.

Tashkilot axborot resurslarini shakllantirish manbaalari. Tashkilot doirasida vujudga kelish manbaasiga ko‘ra tashqi va ichki axborotlardan tashkil topgan axborot resurslariga ega bo‘ladi.

Axborotlar tavsifiga bog’liq holda tashkilot tashqi axborotlarini shakllanishidagi bir nechta manbaalari. Davlat va boshqaruv organlari axborotlari. Axborot resurslarini boshqarish mohiyati. Axborotlar siyosiy resurs sifatida. Axborotlar harbiy resurs sifatida. Axborotlar halq ho‘jaligi resursi sifatida. Milliy axborot resurslari. Axborotlar fan va ishlab chiqarish resursi sifatida. Axborot resurslari iqtisodiy faoliyatni axborotlashtirish asosi. Axborotlarni muhim turlaridan biri-iqtisodiy axborotlardir. Axborot resurslarining tasniflanishi. Informatika sohasiga xos axborot resurslari. O‘zbekistonda axborot bozorini bir nechta sektorga bo‘lib ko‘rish mumkin. Tadbirkorlik axborotlari tuzilishi. Tadbirkorlik axborot manbaalari. Tashqi tadbirkorlik axborotlari manbaalari.

#### *5-mavzu. Davlat xizmatlarini shakllantirishning nazariy masalalari*

“Elektron hukumat” atama va kontseptsiyalarini paydo bo‘lishi hamda asosiy holatlari. O‘zaro hamorlik turi bo‘yicha “Elektron hukumat” modellari.

Gartner Group, xaloqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, “Elektron hukumat” to‘g’risidagi qonunda tavsiflanishi. Elektron hukumat tushunchasini paydo bo‘lishi va kontseptsiyalari. Elektron hukumat strategiyasini yaratish holatlari. Davlat — biznes (G2B/B2G). Davlat-davlat (G2G). Davlatlararo elektron shaklda munosabatlar o‘rnatishga imkon beradi. Davla-fuqaro (G2C/S2G).

Elektron hukumat tizimining fuqarolarga taqdim etadigan imkoniyatlari. Davlat xizmatlariga murojaatlar vaqt qisqaradi. Turli davlat tashkilotlari o‘zarohamkorligi samaradorligi ortadi. Davlat qonunlari, qoidalari va xizmatlarini olish imkon yaratiladi. Hukumat faoliyati shaffofligi ortadi. Chet ellarda ishlayotgan fuqarolar ham mamalakat ishlarida faol ishtirok etadi.

Elektron hukumat arxitekturasi komponentlari. Yuqori va quyi daraja komponentlari. Raqamli tengsizlik muammolari va ularni echilishi. “E-inclusion” kontseptsiyasi. Raqamli tengsizlik alohida va butunlay dunyo mamlakatlarida o‘zini namoyon qiladi.

Elektron hukumatni joriy etish murakkab tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jarayon.

## **6-mavzu. Elektron hukumatni tariflashda asosiy yondoshuvlar**

Dunyodagi ko‘plab mamlakat hukumatlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan intensiv foydalanishi. Inglizcha electronic government so‘zlari hukumatga faoliyat sub’ektlari emas, davlat hukumati organlarining faoliyati shakl va usullariga taalluqli. “Elektron hukumat” va “Elektron davlat” tushunchalarini qo‘llanishi. Elektron davlat tushunchasini kiritilishi. Jahon banki va YuNESKO tomonidan berilgan ta’rif. AQSh qonunchiligidagi elektron hukumat talqini. Evropa Hamkorligi komissiyasi talqini. Ichki va tashqi axborot-kommunikatsiya tarmoqlari.

Elektron hukumat fuqarolarga, korxonalarga, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlariga va mansabdor shaxslarga axborot va o‘rnatilgan davlat xizmatlarini taqdim etish usuli bo‘lib, bunda davlat va ariza beruvchining o‘zaro munosabatlari minimallashtiriladi va axborot texnologiyalaridan maksimal darajada foydalaniladi.

Jahon amaliyotida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatining maqsadli holatini belgilash uchun nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, balki nafaqat ijro etuvchi hokimiyatlarga murojaat qilinadigan “Elektron davlat” tushunchasi qo‘llaniladi. Shunday qilib, “Elektron hukumat” tushunchasi “Elektron hukumat” degan ma’noni anglatadi va davlatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud tarmoqlarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni tavsiflaydi.

Elektron hukumatning funksiyalari umuman davlatning funksiyalari va axborot kommunikatsion texnologiyalarita’siri ostida mavjud boshqaruv usulini o‘zgartirganda olinadigan shakl asosida aniqlanishi mumkin. Bu vazifalarning barchasi, qaysidir ma’noda, zamonaviy davlatning asosiy vazifasi bo‘lib, aholini jamoat tovarlari bilan ta’minlash, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rag’batlantirish, shuningdek, ijtimoiyadolat tamoyillariga asoslangan tovarlarni

taqsimlashda tenglik shartlarini ta'minlashdan iborat. Elektron hukumat infratuzilmasi an'anaviy hukumat singari dolzarb siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishga, birinchi navbatda fuqarolarning davlatga va uning siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga, davlat sektori ishining sifatini yaxshilashga va innovatsiyalarni ilgari surishga qaratilgan. Bundan tashqari, elektron hukumat davlat organlari faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini zarus darajada ushlab turish orqali korruptsiyaning oldini olishga yordam beradi.

Ma'muriy islohotlarning maqsadlaridan biri ma'muriy to'siqlarni engib o'tish uchun biznes xarajatlarini kamaytirishdir.

"Boshqaruv" kontseptsiyasining tamoyillari va "Samarali boshqaruv" usullari endigina amalga oshirila boshlandi va ba'zi dasturiy hujjatlarda ulardan foydalanishning dastlabki belgilari mavjud, masalan, so'nggi yillarda davlat-xususiy sektor tizimidan foydalanish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun uchinchi sektor bilan o'zaro hamkorlik qilish mavzusi paydo bo'ldi.

## **7-mavzu.O'zbekistonda interaktiv davlat xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirilishi**

Innovatsion rivojlanish, kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi natijasida hozirgi kunda yangi shakldagi davlat boshqaruvi, faol takomillashtirib borilayotgan "Elektron hukumat" kontseptsiysi hayotga keng tadbiq etib borilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shahslaring huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish respublikamizda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiyot va jamiyat hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati e'tiborga olingan holda 2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi qabul qilinib, 2013 yildan interaktiv davlat xizmatlari yagona portali ishga tushirildi. Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari Davlat qo'mitasi qoshida Elektron hukumatni rivojlantirish hamda Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlari tashkil etildi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llashda samarali o'sishga erishildi va qisqa davrda **axborot texnologiyalari bozorini istiqbolda ham o'sib borishiga asos bo'luvchi me'yoriy-huquqiy bazasi yaratildi.**

**O'tgan yillar mobaynida Internet, mobil aloqa va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish, mahalliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish yuqori texnologik bazasini shakllantirish bo'yicha tizimlashgan ishlar olib borildi.** Telekommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq va aloqa infrastrukturasini rivojlantirishning hozirgi bosqichi keng polosali fiksirlangan va mobil kirish

tizimlarini kengaytirish, ma'lumot va ovozli trafiklarni uzatish kommutatsiya markazlarini ko'paytirish, magistral tarmoqlarni modernizatsiya qilish, multimedia xizmatlarini rivojlantirish infratarkibini yaratish bilan ajralib turadi.

Internet tarmog'i milliy segmentini yuqori tezlikda rivojlanib borishi. UZ domen zonasasi. Iqtisodiyot tarmoqlari va mahalliy sanoatni rivojlanishida boshqaruv hamda ishlab chiqarish jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalar va dasturiy mahsulotlardan foydalanish katta o'rin tutadi. Axborotlashtirish va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishda boshqaruv jarayonlari avtomatlashtirish darajasi uzlusiz rivojlantirilishi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali (gov.uz) va Internet tarmog'ida my.gov.uz manzilida joylashtirilgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yo'lga qo'yilgandan buyon bu tizimlar ustuvor yo'nalishlar qatorida uzlusiz rivojlantirish bilan birga takomillashtirib borilmoqda va bu jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDX) to'g'risidagi Nizomga asosan Yagona portalning asosiy vazifalari.

"Elektron hukumat" tizimining takomillashuvi davlat interaktiv xizmatlari sonini ortib borishi. Yagona portalning aholining davlat qurilishidagi faol ishtirokini ta'minlashning muhim vositasi maqomini olishi respublikada demokratik tamoyillarni og'ishmay amalga oshirilishiga, aholi turmush sifatini yuksaltirish, kundalik hayot tarzini engillashtirish, davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish imkoniyatini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

## **2-modul. O'bekistonda interaktiv innovatsion davlat xizmatlari milliy tizimini joriy etilishi**

### **8-mavzu. Elektron hukumat raqamli iqtisodiyot elementi sifatida**

Davlat boshqaruvi ma'nosida jamiyatni rivojlantirish global munosabatlari. Davlat hokimiyyati qonunchilik, ijrochi va boshqaruv organlari elektron xizmat ko'rsatish sohasi raqamli iqtisodiyot tizimining asosiy tashkiliy-texnik tashkil etuvchisi. Elektron hukumat asosiy modellari. Elektron hukumat asosiy modellarining taqqoslama tasniflari. Dunyo taraqqiyotining hozirgi bosqichida jahon iqtisodiyotining rivojlanishi takomillashuvning raqamlashtirish bosqichga o'tib, "Uchinchi sanoat inqilobi", "Industriya 4.0" kontseptsiya va boshqa shu kabi ishlanmalar. Aniq vaziyatlar odatda yangi texnika-iqtisodiy to'lqinning yuqori bosqichida paydo bo'ladi va rivojana borib, tadqiqot tashkilotlari, innovatsion kompaniyalar yangi tarmoqlar chegarasidan tashqariga chiqa boshlaydi, iqtisodiyotnng an'anaviy sohalari va oxir-oqibat jamiyat va davlat institutlarini qamrab oladi.

Texnologik jihatdan ilg'or davlatlarning hozirgi inqilobiy holatdan ta'sirlanish - ekspertlari xatolar, raqamlashtirish bilan bog'liq ishga tushirgan dastur va tashabbuslariga oid tajribasini o'rganish juda muhimdir. Bu o'z dasturini yaratish va resurslarni tejashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar oldini olishga yordam beradi.

Raqamlashtirish tufayli tubdan o‘zgaradigan iqtisodiyot va davlat boshqaruvining xususiy institutsional maydonini tahlil va tadqiq qilish alohida ahamiyatga molik bo‘ladi. Shubhasiz, etarlicha qisqa muddatda va ayni paytda raqamli transformatsiyalarga mos kelmaydigan huquqiy-me’riy bazaviy tizimida o‘zgarishlar amalga oshirish zarur bo‘ladi.

“Raqamlashtirish” jarayoni odatda raqamli texnologiyalarini ommaviy joriy etish va ishslash ko‘nikmalarini olish, ya’ni, axborotni yaratish, qayta ishslash, almashish va uzatish texnologiyalari bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sifatida tushuniladi.

Microsoft tahlilchilarining fikriga ko‘ra, jahon AT-industriyasini keyingi yanada rivojlantirishda “Texnologik platforma” - qo‘shma texnologiyalar, mahsulotlar va ularni tarqatish kanallari to‘plamlari, shuningdek, ulardan foydalanish va taqsimlash ekotizimlarini ommaviy joriy etish muhim rol o‘ynashi kerak. Hozirgi kunda yangi texnologik platformalarning asosiy elementlari bulutli hisoblash, mobillik, buyumlar Internetti, katta ma’lumot texnologiyalari, biznes-analitika va kompyuterli o‘rgatish hisoblanadi. 2015 yilda jahon ishbilarmonlik faolligi markazlaridan biri hisoblanadigan Jalon Iqtisodiy Forumi (WEF) maxsus uzoq muddatli Digital Transformation Initiative (DTI) (“Raqamli ishlab chiqarishni tashkillashtirish tashabbusi”) dasturi ishga tushirilganligini e’lon qildi. Yaratuvchilarining fikriga ko‘ra, mazkur dastur “Biznes va jamiatni kelgusi raqamlashtirishda yangi yo‘nalish va imkoniyatlarni aniqlash uchun fokal nuqta (focalpoint) bo‘lishi kerak”.

## **9-mavzu. O‘zbekistonda taqdim etilayotgan interaktiv davlat xizmatlari**

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı. O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarining muhokamasi. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalı. O‘zbekiston Respublika Prezidenti virtual qabulxonasi.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı davlat hokimiyyati organlari faoliyatining funktsional jarayon va tartibini qo‘llab-quvvatlovchi, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining elektron hamjihatlik infratuzilmasining tizimini tashkil etuvchi qism hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy maqsadi. O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalining asosiy funktsiyalari. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı – my.gov.uz va uning yangicha talqini – my2.gov.uz. O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (keyingi o‘rinlarda Yagona portal deb ataladi) Internet tarmog’ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalı doirasida, shu jumladan “Bir darcha” rejimida faoliyatko‘rsatadi.

Portal Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, “ID.uz” identifikatsiya tizimi, O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki axborot tizimlari hamda resurslariga, normativ-huquqiy hujjatlar ta’sirini baholash tizimi portaliga hamda “Tadbirkorlik” tizimiga ulangan. Hozirgi kunda “Yagona darcha” axborot tizimi, yagona identifikatsiyalash axborot tizimiga integratsiyalash bo‘yicha ishlar

olib borilmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida, belgilangan tartib-taomillarni buzganlik uchun shikoyat bildirish, tadbirkorni murojaat qiluvchining mobil telefon raqami orqali identifikatsiya qilish maqsadida ro‘yxatga olish, muhandislik-kommunikatsiya texnologiyalariga ularish uchun ariza berish, tadbirkorlik sub’ektlariga o‘zimizda ishlab chiqarilgan avtomobil transporti vositalarini xarid etish uchun ariza berish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olish maqsadida arizani rasmiylashtirish singari xizmatlar joriyqilingan.

Davlat bojxona qo‘mitasi saytida elektron yuk bojxona deklaratsiyalari qabul qilinmoqda. 2015 yilda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali ishga tushirildi va elektron savdo shakli amaliyatga tatbiq etildi.

“Murojaatlarni ko‘rib chiqish” modulining imkoniyatlari. “O‘zarxiv” Agentligi xizmatlari. “Davlat organi rahbariyati qabuliga yozilish”. “Bo‘sh ish o‘rnlari”. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishxizmati.

“O‘lchov vositalarining davlat metrologik tekshiruvini o‘tkazishga ariza berish”. “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun arizalarni rasmiylashtirish”. “Tibbiy faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziya olish uchun elektron ariza taqdim etish”. “Tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha ma’lumotlarni Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga taqdim etish”. “Tadbirkorlik sub’ektlari ehtiyojlari uchun O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtotransport vositalarini xarid qilish uchun buyurtma taqdim etish”. “Nafaqavayordampulimiqdorihaqidama’lumotnomaolishuchun elektron arizayuborish”. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali. Ochiq ma’lumotlar portali ishga tushirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad. Portalning foydalanuvchilar uchun ijtimoiy ahamiyati. Ochiq ma’lumotlar portali imkoniyatlari va foydalanuvchilari. Ochiq ma’lumotlar portali bo‘limlari. O‘zbekiston Respublika Prezidenti virtual qabulxonasi

## **10-mavzu. Kommunal to‘lovlarini amalga oshirishda davlat interaktiv xizmatlari**

“Bir darcha” tamoyili asosida kommunal xizmatlarni interaktiv tarzda ko‘rsatish. Billing to‘lov tizimi. Kommunal to‘lovlarionlayn xizmatlari portali. Gaz iste’moli to‘lovlarini onlayn xizmatlari. Elektr energiyasi uchun to‘lovlar onlayn xizmatlari.

2012 yil 19 martda Uy-joy communal xizmatlar sohasida – “Bir darcha” tamoyili asosida communal xizmatlari tomonidan xizmatlarni interaktiv tarzda ko‘rsatishni ta’minlab beruvchi e-Kommunal.uz – uy-joy fondi va communal xo‘jaligi portali ishgatushirlidi. Billing to‘lov tizimi yordamida communal xizmatlar bo‘yicha hisob holati haqida ma’lumot olish(balansni tekshirish) va to‘lash imkoniyati mavjud. To‘lovni amalga oshirish ham bank onlayn plastik kartalari orqali amalga oshiriladi. Buning uchun karta raqami, amal qilish muddati, hudud, to‘lov miqdori kiritilishi talab qilinadi. Tizimga kirish Elektron raqamli imzo yordamida amalga oshiriladi yoki yagona identifikatsiyalash portali ID.UZportalidan ro‘yxatdan o‘tish oraqali ham kirish mumkin. Normativ hujjatlar bo‘limida communal sohalar bo‘yicha qonunchilik

bazasi keltirilgan.

UZTRANSGAZ portalı – uztransgaz.uz. Uztransgaz.uz(yangi versiyasi uztg.uz) sayti “O‘ztransgaz” Aktsiyadorlik kompaniyasining sayti bo‘lib, sayt kompaniya haqidagi ma'lumotlar, sohaga oid me'yoriy huquqiy hujjatlar, interaktiv xizmatlar, virtual qabulxonalar, foydali saytlarga havolalar va h.k. bo‘limlar hamda mijozlar va xodimlar ishlashi uchun alohida maxsus interfeysgaega.

Gaz ta'minoti iste'molchilar uchun sayt orqali hisoblagich holatini kiritish, to‘lovlarni amalga oshirish, murojaatlar yuborish va h.k. imkoniyatlar yaratilgan. Buning uchun abonentlar shaxsiy kabinetiga kirishlari kerak bo‘ladi. Xonadondagi ko‘rsatgichni onlayn tarzda kiritish uchun “Ko‘rsatgich”(pokazanie) oynasini tanlab, so‘ngra yangi raqamlari kiritib, pastdagи “Saqlash” (soxranit) tugmachasi belgilanadi. To‘lovnı amalga oshirish uchun interaktiv xizmat bo‘limiga kirib onlayn to‘lov bandini tanlash kerak bo‘ladi. To‘lov esa onlayn plastik kartochkalari orqali MBank yoki u-Payto‘lov tizimlari yordamida amalga oshiriladi.

Elektr energiyasi to‘lovlari holati portali – my.uzbekenergo.uz. Elektr haqini elektron shaxsiy kabinetdan to‘lasa bo‘ladi. Uy-joy kodeksining 134-moddasida belgilab qo‘yilganidek, ko‘rsatilgan kommunal xizmatlar uchun majburiy to‘lovlari o‘tgan oydan keyingi oyning o‘ninchi kunidan kechiktirmay to‘lanishi lozim.

Iste’molchi mobil telefon raqamini dasturga biriktirishi uchun elektr ta’minoti korhonasiga murojaat etishi va to‘lov tizimi orqali to‘lovlari amalga oshirilishijarayonidayokihududgaxizmatko‘rsatuvchiagenttomonidanSMS-xabar yuborilishi orqali amalga oshiriladi. Hozirda maishiy iste’molchilar uchun www.uzbekenergo.uz rasmiy veb-sayti orqali shaxsiy kabinetga kirish jarayonida telefon raqamini ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyati hamyaratilgan.

## **11-mavzu. Mobil va onlayn to‘lov tizimlari**

USSD-so‘rovlarxizmati. Mobil va onlayn to‘lov tizimlari. Uzcard banklararo to‘lov tizimi. Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi. CLICK” tizimi – bu mobil banking tizimi. MBank mobil ilovasi. “U-PAY” tizimining asosiy ustunligi. Uzcard Online plastik kartochkadagi pullarni boshqarish vositasi.

Mijozlar USSD so‘rovlar yordamida SMS xabar ko‘rinishidagi to‘liqma’lumot ololmasligi mumkin, lekin tezlik, qulaylik jihatdan bu xizmatning ham o‘z o‘rnibor. USSD so‘rovlar xizmati mijoz va ilovalar orasidagi ma'lumotlarni real vaqt oralig’da interaktiv almashish imkonini beradi. USSD xizmatidan foydalanganda telefondan SMS markazi raqamlarini yoki boshqa qisqa xabarniyo‘llashning hojati yo‘q. Mobil va onlayn uzcard.uz, click.uz, mbank.uz, u-pay.uz,payme.uz to‘lov tizimlari. Texnologiyalar rivojlanib borgani sari insonlar hayoti bir qadar qulaylashib bormoqda. Endilikda communal xizmatlarga, turli jarimalarga, ta’lim shartnomalariga yoki yana boshqa turli to‘lovlarni to‘lash uchun uzundan-uzun navbatlarga turishimiz ham shart emas. To‘lovlarni amalga oshirishning zamonaviy vositalari yordamida istalgan vaqtida va istalgan joyda turib bu masalalarni hal qilish mumkin.

Uzcard banklararo to‘lov tizimi bu asosiy elementi mikroprotsessori

plastik kartochkalar bo‘lgan, qonuniy normalar, normativ hujjatlar va dasturiy texnik echimlar va kerakli tashkiliy texnik infrastruktura uyg’unligiga asoslangan, pul to‘lovlarni elektron ko‘rinishda amalga oshirish uchun mo‘ljallangan va mikroprotsessorli bank kartochkalarini chiqaruvchi va mahsulot(ish, hizmat) sotuvchilariga hizmat ko‘rsatuvchi banklarni, hisob banki va protsessing tashkilotini bir butun tizimga birlashtiruvchi hududiy to‘lov tizimidir.

Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi. Yagona Umumrespublika Protsessing Markazining asosiy maqsadlari.

“CLICK” tizimi– bu mobil banking tizimi bo‘lib, jismoniy shaxslarga mobil telefon orqali (USSD\SMS-portal yordamida) yoki Internet orqali (Web\Web-mobile vositasida) uyali aloqa operatorlari, internet-provayderlar xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish; boshqa jismoniy shaxslarga, savdoservis korxonalariga (supermarket, restoran va kinoteatrлarda to‘lovlar) pul mablag’larini o‘tkazish; bevosita o‘z bank hisoblaridan internet-magazinlardan onlayn-xaridlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Mobil telefon orqali to‘lov (\*880# qisqa raqamiga) USSD-so‘rov yordamida amalga oshiriladi. Mazkur texnologiya to‘lovlarni istalgan joyda va vaqtida yaqin atrofda internet bor-yo‘qligidan qat’iy nazar amalga oshirish imkoniyatiniberadi. “CLICK” tizimining asosiy imkoniyatlari.

Telefonga MBank ning mobil ilovasini yuklab olib, ro‘yxatdan o‘tkazib communal xizmatlarga, turli jarimalarga, ta’lim shartnomalarigayoki yana boshqa turdagni to‘lov larga pul o‘tkazish mumkin.

Ushbu mobil ilovani Google Play Marketyoki App Storedan yuklab olish mumkin. Bu ilova butun O‘zbekiston bo‘ylab, hattoki internet sifati past bo‘lgan joylarda ham yaxshi ishlaydi. Undan yurtimizdagi deyarli barcha xizmatlar va tashkilotlarga to‘lovlarni amalga oshirish uchun foydalanish mumkin.

## **12-mavzu. Qonunchilik onlayn portali va mobil tizimlari**

O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. Tizimdan foydalanish qoidalari. Taqdim etilayotgan qulaylik va imkoniyatlar. Qonun, me’yoriy hujjatlarni izlash. Joriy hujjatni to‘plamga qo‘sish.O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi huquqiy-axborottizimihuquqiy axborot izlash tizimi bo‘lib, normativ- huquqiy hujjatlarni oson hamda qulay shaklda izlash va ular bilan tanishish imkoniniberadi. Tizimdan foydalanish uchun Internetga ulangan kompyuter (yoki boshqa uskunalar) kerak. Hujjatlardan foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tish majburiy emas. O‘zbekistonda huquqiy-normativ hujjatlarni tarqatuvchi bir necha dasturlar mavjud va afzalliklari.

Izlash tizimi barcha foydalanuvchilar kirishi mumkin bo‘lgan Izlashning soddalashtirilgan shakli hamda faqatgina ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar kirishi mumkin bo‘lgan Izlashning kengaytirilgan shakliga bo‘linadi. Izlash shaklini tozalash tugmasi orqali shaklni qidiruv so‘rovlaridan batamom tozalash mumkin.Izlash shakllarida izlashning mavjud bitta rekvizitini yoki bir nechta rekvizitlarini ixtiyoriy birikmasini kiritgan holda izlashni amalga oshirish mumkin.

Hujjatlarni ko‘rish sahifasi. Funktsional panel topilgan hujjat “Sichqoncha”ning chap tugmasi bilan bosilganda funksional paneli va hujjatni o‘qish maydonchasidan (hujjat matnidan) iborat bo‘lgan hujjatni ko‘rish sahifasida ochiladi. Joriy hujjatni to‘plamga qo‘shish. Buning uchun foydalanuvchi dastlab LexUZtizimgaloginparolyokiIDorqalikirishishart.

NORMAkompaniyasi O‘zbekiston elektron mahsulotlar bozorida 1999 yildan beri faoliyat yuritadi, o‘zbek va rus tillarida huquqiy va iqtisodiy mavzularda elektron axborot qidiruv tizimlarini, kartografik asosda elektron ma’lumotnomalar va boshqa elektron mahsulotlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan.

Kompaniyaning vazifasi. NORMA kompaniyasi loyihalari. Elektron ekspert ma’lumot tizimlari.

### **13-14-mavzu. Davlat soliq tizimi interaktiv xizmatlari**

Aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga taqdim etilayotgan interaktiv davlat soliq xizmati. Xizmatlar yo‘nalishlari guruhi. Fuqarolarga hisoblangan sug’urta badallari. ERI kalitining sertifikati. ERI kaliti olish tartibi. Internet orqali olingan elektron arizalar asosida ularga soliq to‘lovchi identifikatsiyaraqami-STIRniberishvasoliqto‘lovchigao‘ziningsoliq to‘lovchi identifikasiya raqamini -STIRni aniqlash xizmatlari. Yangi portalni yaratishdan maqsad - aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining davlat soliq xizmati organlari bilan o‘zaro munosabatlarini elektron shaklga o‘tkazish orqali faoliyatning shaffofligi, tezkorligi va samaradorlik darajasini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat.

“Elektron hukumat to‘g’risida”gi Qonun talablariga qat’iy rioya qilgan holda, portalda elektron davlat xizmatlari interaktiv va axborot davlat xizmatlariga ajratilgan. Portalda soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog’liq barcha masalalarni elektron shaklda hal etishga mo‘ljallangan yuridik va jismoniy shaxslarning “Shaxsiy kabinet”lari yanada qulay ko‘rinishda qayta ishlab chiqildi. Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida “Shaxsiy kabinet” joriy etildi.

